O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim mazmunini tubdan islox qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni kredit-modul tizimiga o'tkazish, innovatsion ta'lim texnologiyalariga asoslangan ta'limni joriy etish borasida ulkan ishlar olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasining «Oliy ta'lim Tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari» deb nomlangan 3-bobi «Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish» deb nomlangan bo'lib, bunda talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayoniga kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv uslubiy materiallarni keng joriy etish», bo'lajak mutaxassislarning zaruriy kompetensiyalarini, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini, tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Natijalar. Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish, amaliy ko'nikmalarni oshirish, iqtisodiyotning innovatsion taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan element hisoblangan axborot va bilimlarni o'zlashtirish bilan bog'liq

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

muammolarni hal qilishga qaratilgan. Oliy ta'lim muassasalarida bu vazifalarni amalga oshirishga esa bosqichma-bosqich o'tish rejalashtirilgan.

Muxokama. Oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining vazifasi mutaxassislarni nafaqat bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash, balki bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning murakkabliklarini anglashga ham maqsadli tayyorlashdan iborat. Bunday raqobatbardosh bitiruvchilarni shakllantirish ta'lim tizimiga iqtisodiy tamoyillarni singdirishni talab etadi. Bugungi kunda ta'lim tizimi talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirishi lozim. Bu jarayonga ilg'or kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, o'zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchanlik, iqtisodiy savodxonlik, iqtisodiyot sohasida uzluksiz mustaqil ta'lim olish qobiliyati va bu bilimlarni innovatsion tarzda qo'llash malakasi kiradi. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari turli xil iqtisodiy muammolarni tahlil qilish, jamiyat taraqqiyotiga konservativ va progressiv yondashuvlarni baholash, ushbu muhim o'zgarishlar bo'yicha o'z fikrlarini bildirish, amaliy kasbiy vazifalarni bajarishga tayyorgarlik ko'rish va muayyan global vaziyatni tushunish ko'nikmalariga ega bo'lishlari zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 8-yanvar kuni Davlat byudjeti parametrlarini ijro etish va xududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha joriy yilgi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan videoselektorda Prezidentimiz quyidagi jummalarni keltirdilar: "Yagona yo'limiz - tadbirkorlar sonini ko'paytirish, odamlarni ishbilarmon qilish!"

Prezidentimiz tomonidan tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlarga imtiyozlar berish, tadbirkorlik faoliyatining umumiy manzarasini ilgari surish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan shaxslarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan iqtisodiy bilimlarni (kengaytirish yoki o'stirish) oshirish va zamonaviy strategiyalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Zamonaviy jamiyatda oliy ta'limning muhim tarkibiy qismlaridan biri, bizningcha, iqtisodiy ta'limdir. Inson elementi iqtisodiy faoliyatning asosiy katalizatori bo'lib, shaxslarda iqtisodiy bilim, kompetensiya va madaniyatni egallashga yordam beradi. O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi aholi o'rtasida bozor munosabatlariga mos fikrlash tarzini shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu maqsadga erishish iqtisodiy tafakkurga asos bo'ladigan iqtisodiy ta'limni kompleks isloh qilishni taqozo etadi. Demokratik bozor islohotlarini ilgari surish avtonom jarayon emas, balki yoshlarning iqtisodiy kompetensiyasiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

Oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy ta'limga ilgari yetarlicha e'tibor berilmas edi. Faqatgina iqtisodiyot sohasida ish olib boruvchi kadrlargina iqtisodiy bilim egallash imkoniyatiga ega bo'lgan. Iqtisodiyotda jadal rivojlanish emas, balki ekstensiv rivojlanish sari yo'l tutilgan, sifat o'zgarishlarga emas, miqdor o'zgarishlarga ko'proq e'tibor qaratilgan. Ish haqi qat'iy belgilangan smeta asosida amalga oshirilib, boqimandalik kayfiyatini keltirib chiqargan edi. Bu esa tadbirkorlik qobiliyatining bo'g'ib qo'yilishi va rag'batlantirilmasl原因 iqtisodiy tafakkurning susayishiga imkon yaratdi.

Shu sababli ham, avvalambor, iqtisodiy ta'lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish va chuqurlashtirish, xususan, bu mazmunga nafaqat bilim, ko'nikma va malaka, balki iqtisodiy kompetentlikni rivojlantirish masalasi ham ko'ndalang qilib qo'yiladi.

Iqtisodiy ta'lim umumiy va kasbiy ta'limdan alohida va maxsus ta'lim emas. Kasbiy ta'limdagi o'quv jarayonining maqsad va vazifalari mazmunini hamda bozor munosabatlarini hisobga olgan holda talabalarning yakka va umumiy ta'lim olishini qayta ko'rib chiqish, ushbu tushunchani anglashda umumiy yondashuvni ajratib ko'rsatishga imkon beradi. Shunda biz bozor sharoitida iqtisodiy ta'lim talabalar va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining jamiyatning iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuviga imkon berishdan kelib chiqamiz. Shunday qilib, iqtisodiy ta'lim kasbiy ta'lim tizimining bir qismidir.

Talabalarga iqtisodiy ta'lim berishning asosiy maqsadi quyidagilarni shakllantirishdan iborat:

- iqtisodiy bilimlardan kelib chiqadigan va jamiyatni konsolidatsiyaga (birlashuviga) olib keladigan yo'nalishlar va munosabatlar;
- har xil iqtisodiy faoliyat turlari va iqtisodiy institutlar bilan aloqada bo'lgan har bir shaxsning xarakterini yo'naltirish va manfaatlarini himoya qilish uchun etarli bo'lgan kompetentsiyalar;
- hodisalarni, hokimiyat va iqtisodiy sub'ektlarining xatti-harakatlarini adekvat baholash imkonini beradigan o'z tasavvurlari va munosabatlari.

Iqtisodiy ta'limning o'ziga xos xususiyati shundaki, u katta yoshdagi tinglovchining tizimlashtirilgan nazariy qarashlarini, axloqiy qadriyat fazilatlarini (e'tiqodlari, motivlari, qadriyat yo'nalishlari va boshqalar) shakllantiradigan iqtisodiy madaniyatni shakllantirishning tarkibiy qismidir. Talabalarning iqtisodiy ta'lim xususiyatlarini aniqlashda biz uning jamiyat faoliyati va rivojlanishi jarayonida, umuman ta'limning ijtimoiy instituti kabi juda muhim rol o'ynashini hisobga oldik. Iqtisodiy ta'limsiz iqtisodiy rivojlanishning erishilgan darajasini saqlab qolish va uni yanada takomillashtirish mumkin emas. Bu muammo ta'lim

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

jarayonida hal qilinadi, uning vazifasi insonni iqtisodiyot me'yorlari va qadriyatlari bilan tanishtirish, iqtisodiy fikrlash va faoliyat uslubini rivojlantirishdir. Boshqa ta'lim turlari kabi, Iqtisodiy ta'lim jamiyatning iqtisodiy barqarorligi va iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan. Uni amalga oshirish oliy ta'lim bitiruvchilarini turli ijtimoiy rollarga tayyorlash va iqtisodiyot bilan bog'liq muayyan ijtimoiy lavozimlarni egallash bilan bog'liq. Ushbu bosqichdagi iqtisodiy ta'limning xususiyatlari mamlakatimiz iqtisodiyotining hozirgi holati bilan bog'liq va quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- jamiyatning iqtisodiy bilimlarga va yangi iqtisodiy tafakkur madaniyatiga ega mutaxassislariga ehtiyoji ortib bormoqda;
- bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan, jamiyatning kasbiy madaniyatida hali "ildizlari" bo'lmagan ko'plab yangi kasblar paydo bo'lmoqda;
- yangilanayotgan O'zbekistonning zamonaviy hayotida iqtisodiy bilimlarning roli tubdan oshib bormoqda.

Iqtisodiy ta'limning vazifalari:

- 1) jamiyatda iqtisodiy munosabatlardagi madaniyatni keng targ'ib etish;
- 2) yosh avlodda mazkur jamiyatda iqtisodiy rivojlanishning ma'lum darajasini belgilovchi hayotiy ideallarni va iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish;
- 3) iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq ijtimoiy rolni faol va samarali bajarishga tayyorgarlik sifatida "ijtimoiy tanlov".

Iqtisodiy ta'lim sohasida o'quv jarayonini amalga oshirishda yangi, bozor va demokratik uslub quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- 1) iqtisodiy bilimlarni berishning rasmiy jarayoni o'qituvchi va talaba tomonidan birgalikda muhokama qilinadigan aniq muammolarni hal qilish bilan almashtiriladi;
- 2) beriladigan bilimlarning mohiyati passiv yodlash emas, balki turli xil va aniq ma'lumotlarni o'zlashtirishdan iborat;
- 3) o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot shakli o'qitish emas, balki o'zaro ma'lumot almashish bo'lib qoladi, bu talabalarning mustaqil ta'lim olishidagi rolining oshishiga olib keladi;
- 4) ta'lim jarayonining tashabbuskori va yetakchisi – talaba;
- 5) ta'lim jarayonining ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlar bu - hamkorlik;
- 6) ta'lim beruvchi roliga faqat professional o'qituvchi emas, balki iqtisodiy ma'lumotlarning har qanday tashuvchisi ham bo'lishi mumkin.

Xulosa. Shunday qilib, "iqtisodiy ta'lim"ga iqtisodiy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish, shaxsning iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarini, iqtisodiy fikrlash va xulq-atvorini shakllantirish, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga kirishish

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

jarayoni va natijasi sifatida ta'rif berish, uni iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beruvchi va samarali iqtisodiy faoliyat yuritishning sharti ekanligini hisobga olgan holda, iqtisodiy ta'lim talabaning iqtisodiy tarbiyalashning va iqtisodiy kompetentsiyani shakllantirishning asosi degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Bo'lajak mutaxassisni tayyorlashda bugungi kunda bizning nazarimizda asosiy yo'nalishlardan biri talabalarda iqtisodiy kompetentlikni shakllantirish bo'lib, u iqtisodiy tayyorgarlik asosini tashkil qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PK-5847-son " O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi qarori. <https://lex.uz/docs/4545884>
2. Arkhipov, A.Yu. Iqtisodiy tafakkur: mazmuni va shakllanish yo'llari / A.Yu.Arxipov . - M .: Luch, 2004. - 122 b.
3. Itkin, I.B. Iqtisodiy ta'lim nazariyasi va amaliyotining sotsiologik jihatlari: falsafa fanlari nomzodi avtoreferati / I.B.Itkin . - Sverdlovsk, 2002.- 21 b.

**PROFESSIONAL TA'LIMDA INNOVATSION G'OYALAR ORQALI
BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARINING YOZISH
KO'NIKMALARINI SHAKILLANTIRISH**

Raximov Ilhomjon Abdullayevich
Pedagogika fanlar nomzodi dotsent
Usmonova Gulnoza Abdurashid qizi
NamDu tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada professional ta'limda innovatsion g'oyalar orqali boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining yozish ko'nikmalarini shakillantirish, mamlakatimizdagi ta'lim tizimining tutgan o'rnini hamda ta'lim tizimining rivojlanishida boshlang'ich ta'limning qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi haqida ma'lumotlar keltirilib o'tiladi. Shuningdek, boshlang'ich ta'limga innovatsion yondashuvning naqadar samarador ekanligi haqidagi bir qancha ma'lumotlar va fikrlar ham o'quvchilar e'tiboriga havola etiladi.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, boshlang'ich ta'lim, reja, kuzatuvchanlik.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida pedagog kadrlarning oldiga qo'yiladigan asosiy talab fikrlash doirasi keng bo'lgan, ilmiy dunyoqarashi shakllangan, ma'lumotlar oqimidan o'ziga kerakli bo'lganlarini saralab olish qobiliyatiga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash vazifalarini qo'ymoqda. Hozirgi davrda zamon chig'irig'idan omon chiqishning asosiy va yagona yo'li ta'lim tizimini kundan kunga rivojlantirish hisoblanadi. Asosiy maqsadimiz ta'lim tizimini rivojlantirish ekan, xo'sh, bu yo'lda nimalar qila olamiz? Dastlab, mazkur tizimning asosiy bo'g'inlarini aniqlab olishimiz lozimdir. Bu o'rinda esa ta'limning asosiy bo'g'ini sifatida boshlang'ich ta'limni e'tirof etishimiz lozim.

Bola kamolotining shakllanishi ko'p jihatdan chiroyli yozuvga ham bog'liq. Chiroyli yozish orqali bolalar boshqa fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

imkoniga ega bo'ladilar. Inson hayotida yozuv muhim o'rin tutadi, chunki u har kuni turli-tuman qog'ozlar va hujjatlardan foydalanadi. Bularning hammasi chiroyli va bexato yozishni taqozo etadi. Ammo qisqa muddat ichida kichik yoshdagi o'quvchilarda chiroyli, tez va bexato yozish malakalarini o'stirish mumkin emas, buning uchun bir necha yil talab etiladi. Chiroyli yozuvga o'rgatish uchun bolalarning maktabga qadam qo'ygan kunlaridan boshlab izchil mashqlar asosida olib borish zarur. Harflarni yozishda o'qishga o'rgatishdagi tarkib asos qilib olinadi, ya'ni o'qish darsida o'quvchilar harfni o'zlashtiradilar, matnni o'qiydilar, yozuv darsida esa shu harfli so'zni yozadilar. Yozuvga o'rgatish, birinchi navbatda, grafik malaka hosil qilishdir. Har bir malaka ham ta'lim berish, ko'nikmani shakllantirish va shu asosda qator mashqlarni bajarish natijasida hosil qilinadi. Grafik malaka, birinchidan, qo'l-harakat malakasidir, bu harakat birinchi qarashda muskul kuchiga asoslanadi. Ikkinchidan, yozuv jarayonida nutqning o'zlashtirilgan birligi bo'lgan tovush grafik belgilarga, ya'ni harfga tarjima qilinadi. Bu yozuvga ongli faoliyat tusini beradi. Yozuvning ongliligi, birinchidan, tovush va harfning to'g'ri nisbatini, ikkinchidan, bir qancha grafik va orfografik qoidalarga rioya qilishni, uchinchidan, o'z fikrini, taassurotini ifodalashda yozuv malakalaridan foydalanishni talab qiladi. Yozishdan birdan-bir maqsad fikrni ifodalashda yozuvlaridan foydalanish hisoblanadi. Bu maqsadni bolalar tez anglab yetsalar, ularda yozma nutq malakasi shunchalik muvoffaqiyatli va to'g'ri shakllanadi. Savod o'rgatish jarayonida bolalar juda sekin yozadilar, uz fikrini, xatto bir yozuv bilan yozma ifodalash uchun ham yarim oylar o'tadi. Yozuv malakasi o'qish malakasi bilan uzviy bog'liqdir. Bola yomon o'qisa, yozuvni egallashi qiyin bo'ladi, chunki bo'g'inlab o'qish malakasidan so'ng, bo'g'inlab yozish malakasi shakllanadi. Yozish va o'qish uchun bolaning umumiy nutqiy rivojlanishi katta ahamiyatga ega. Keyinroq bolalarda uz fikrini yozma ifodalash malakasi bir oz barqarorlashganda, bu malaka nutqga, fikrni ifodalash jarayoniga

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

ham ijobiy ta'sir qiladi. Grafik malakani shakllantirishda quyidagi bosqichlar: 1. Turli shakllar andozasi ustidan chizish. Erkin rasmlar chizish. Yozuv qurollarini to'g'ri tutish, turli qiya elementlar chizish, uzunlikni, oraliq masofani chamalash va hokazo.

Boshlang'ich ta'lim bu nafaqat ta'lim tizimining, balki jamiyatning asosiy fundamenti hisoblanadi. Bugungi kunda, ya'ni axborotlashish asrida aqliy faoliyat, xususan, pedagogik faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassislar ta'lim mazmuni, metodlari, qouniyatlari, ta'limni tashkil qilish shakllari, pedagogik texnologiyalar va ularning turlarini, ularni dars jarayonida qo'llay bilishi, ya'ni sodda qilib aytganda, kuchli intellekt va tajribaga ega bo'lishlari lozim. Shu o'rinda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bir qator xususiyatlari bilan tanishishimiz lozim. Chunki boshlang'ich ta'limning ta'lim tizimida qanchalik muhim o'rin tutishini o'rganish uchun mazkur davrda, ya'ni boshlang'ich ta'lim jarayonida bolalarning qaysi xususiyatlari qay darajada rivojlanishini bilib olish zarur. Maktabga kelish arafasida bolaning so'z boyligi o'z fikrini bayon qila oladigan darajada ortadi. Mazkur yoshdagi bolalarning yana bir o'ziga xos xususiyati bola nutqida o'z fikrini bayon etibgina qolmay, balki o'z suhbatdoshining diqqatini o'ziga jalb qilish uchun ham gapiradilar. Bu jarayonda ularda kelajakda o'z kasbida erkin ishlash ko'nikmalari, fikrlarini bayon eta olish ko'nikmalari ma'lum darajada shakllanadi. Bu davrda yozma nutq ham shakllana boshlaydi. **Yozma nutq jummalarni to'g'ri tuzish va so'zlarni to'g'ri yozishga ma'lum talablar qo'yilganligi bilan xarakterlanadi. Bola so'zlarni qanday eshitgan bo'lsa, shundayligicha yozmasligini bilishi, ularni to'g'ri talaffuz etishga va yozishga o'rganishi zarur. Yozma nutqni egallash asosida bolalarda turli matnlar haqidagi ma'lumotlar yuzaga keladi.**

Bu davrda yozma nutq endigina shakllana boshlagani bois, bolada o'zi yozgan fikrlarni, so'z va harflarni nazorat etish malakasi hali rivojlanmagan bo'ladi. Lekin unga ijod qilish imkoniyati beriladi. Ushbu mustaqil ijodiy ish maktab yoshidagi

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

o'quvchilarda berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash, fikrini bayon etish uchun ma'lumot to'plash, muhim jihatlarini ajratib olish, uni ma'lum ketma-ketlikda bayon etish, reja tuzish malakasini yuzaga keltiradi. Jummalarni to'g'ri tuzish, aynan shu mazmunga mos so'zlarni topish va ularni to'g'ri yozish, tinish belgilarini to'g'ri qo'yish, o'z holatlarini topa olish va to'g'rilash aqliy rivojlanishning ko'rsatkichlaridan hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'limdagi chiroyli yozish faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchining aqlidroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, eslab qolish va esga tushirish imkoniyatlarining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Ta'lim jarayonida ularning bilimlar ko'lami kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, ularda tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. Mazkur yoshdagi bolalar o'z idroklarining aniqligi, ravonligi, o'tkriligi bilan boshqa yosh davrlaridagi insonlardan farq qiladi. Ular har bir narsaga berilib, o'ta sinovchanlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish qobiliyatiga ega bo'ladilar.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, boshlang'ich ta'lim jarayoni ta'lim tizimida juda katta ahamiyatga egadir. Mazkur jarayonni tashkil etish ham ancha katta mas'uliyatni o'qituvchi zimmasiga yuklaydi. Boshlang'ich ta'limdan keyingi ta'lim jarayonlarida o'quv-ta'lim ishlarini tashkil etish, ularni muvaffaqiyatli yo'lga qo'yish bevosita mazkur jarayon bilan bog'liq ekanligini yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib bimalol e'tirof etishimiz mumkin.

Chiroyli yozuv qoidalarini yaxshi bilish yozuv malakasining shakllanishiga yaqindan yordam beradi. Chiroyli yozuv qoidalarini qisqa va tushunarli qilib bayon etish lozim, shundagina o'quvchilar uni to'liq o'zlashtirishlari va amalda qo'llashlari mumkin. Masalan, so'zlarda harflarning balandligini va qiyaligini bir xilda saqlash, so'zlarda harf unsurlari va harflar oralig'ini bir xil uzoqlikda chamalab yozish kabi qoidalarni asta-sekin o'z o'rnida o'rgatib borish lozim. Yozuvning qiyaligi haqidagi tushunchalar chuqur singdirilgandan so'ng, harflarni bir xil masofada tekis yozish qoidalari o'rgatiladi. Harflarni qo'l harakatini uzmasdan yozish qoidalari o'rganilgandan so'ng, so'zlarni qo'l harakatini uzmasdan yozish qoidalari o'rgatiladi. Ammo har bir

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

qoidani har darsda o'quvchini bezdiradigan darajada takrorlash yaramaydi, bunda ong'li ravishda o'zlashtirish uchun mo'ljallangan qoidalar asqotishi mumkin.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilarni husnixatga o'rgatishning asosiy maqsadi ham o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini ravon qilish hamda ularni har tomonlama yetuk insonlar etib tarbiyalash bilan bir qatorda, ularni go'zallikka intiluvchi, uni yurakdan his qila oladigan go'zallikni yaratishga intiladigan kishilar qilib voyaga yetkazishni nazarda tutadi.

REFERENCES

1. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Ta'lim muassasalarida multimedia exnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (Uslubiy qo'llanma)– Qarshi: 2011.
2. Tolipov O.,, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T.:Fan 2006
3. I. A. Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat etishga xizmat etsin. – Toshkent, “Sharq”, 1998. 2. M. G. Davletshin va boshqalar. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2007.
4. N. Atayeva va boshqalar. Umumiy pedagogika. – Toshkent: “fan va texnologiya”, 2012.
5. Malikova, D. (2020). Deposit base of Uzbekistan commercial banks. World Scientific News, (143), 115-126.
6. Malikova, D. (2020). Consulting services market of Uzbekistan. World Scientific News, (145), 168-179.
7. Malikova, D. (2023). METHODOLOGY FOR EFFECTIVE ASSESSMENT OF THE LEVEL OF ECONOMIC SECURITY OF BANKS. Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects, 96-98.

8. Malikova, D., & Ziyadullayeva, M. (2023). INFLATION: THEORETICAL ASPECTS AND ANALYSIS OF PRICE CHANGES IN UZBEKISTAN. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(2), 204-207.
9. Malikova, D., & Abduganieva, F. (2023). The Role of Consulting in the Modern Economy. Global Scientific Review, 12, 1-4.
10. Malikova, D., & Rakhmonov, N. (2023). MONETARY AGGREGATES AND THEIR IMPORTANCE IN THE ECONOMY.
11. Malikova, D., & Ochilova, I. (2023). Analysis of the Current State of Deposit Operations of Commercial Banks of Uzbekistan. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(2), 28-31.
12. Rohatoy Safarova, Muhayyo Inoyatova. Alifbe 1-sinf [Matn] darslik.- Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021 -80 b.
13. Qo'ldoshev R. Maktab o'quvchilarining grafik va kalligrafik qobiliyatlarini shakllantirishning metodologik asoslari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2022. –Т. 22. –No. 22.5. Қўлдошев Р. А. БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЧАПАҚАЙ ЎҚУВЧИЛАРНИ ЁЗУВГА ЎРГАТИШНИНГ ИЛ

ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ МУЛЬТИМЕДИАЛИ
ЗАМОНАВИЙ ЎҚИТИШ ВОСИТАЛАРИ АСОСИДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

М. Л. Болтаева

педагогика фанлари фалсафа доктори,

Наманган давлат университети доценти

И. В. Ходжибаева,

Наманган муҳандислик-технология институти ассистенти,

hodjira@gmail.com

Abstract: This article analyzes the model of improving students' professional training based on multimedia teaching tools.

The impact of modern information and communication technologies on the educational process, the effectiveness of interactive teaching methods and the possibilities of practical application are discussed.

Key words: multimedia teaching, interactive education, professional training, information and communication technologies, digital education.

Бугунги кунда таълим жараёнини самарали ташкил этишда ахборот-коммуникация технологиялари, хусусан, мультимедиа ўқитиш воситаларининг аҳамияти тобора ортиб бормокда. Халқаро тажриба шуни кўрсатадики, интерактив ва мультимедиа ўқитиш технологиялари талабаларнинг билим олиш самарадорлигини оширишда муҳим ўрин тутди.

Замонавий мультимедиа ўқитиш воситаларининг самарадорлигини баҳолаш мезонлари давлат таълим стандартларининг қоидалари ва ишлаб чиқаришни модернизация қилишга оид амалдаги қонун ҳужжатларининг мандатлари билан шаклланади. Демак, замонавий мультимедиа ўқитиш воситалари самарадорлигини баҳолашнинг комплекс мезонлари мажмуига қуйидаги элементларни киритиш мумкин ва буни “Технологик машиналар ва жиҳозлар” таълим йўналиши талабалари учун назарий механика фанини ўқитиш мисолида кўриб чиқамиз:

1) билимлилик –мультимедияли ўқитиш воситаларидан фойдаланиш, талабаларга мураккаб назарий принципларни аниқ ва тушунарли равишда тушунтиришга ёрдам беради. Визуал ва интерактив контент орқали, масалан, турли хил машиналарнинг ишлаш принциплари ва механизмларнинг ҳаракати, назарий билимларни енгилроқ ўзлаштириш;

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

2) фаолиятли – Мультимедиа воситалари талабаларнинг назарий билимларни амалий кўникмаларга айлантириш, симуляциялар ва анимациялар орқали талабалар турли механик жараёнларни ва технологиялар билан боғлиқ муаммоларни амалий шартларда ечишни, ўз навбатида, уларнинг машина ва жиҳозларни ишлатишдаги амалий кўникмаларини мустаҳкамлаш;

3) компетентлилик – иш фаолиятида мураккаб механизмлар ва машиналар билан боғлиқ муаммоларни ечишда самарали қарорлар қабул қилиш қобилиятини ривожлантириш, анимациялар, симуляциялар ва интерактив машқлар орқали муаммоларни тўғри таҳлил қилиш ва энг самарали йўللарни топишда ўз компетентлигини оширадилар.

Таълимни ташкил этишнинг турли усуллари - маърузалар, амалий машғулотлар, тренинг машғулотлари, мустақил таълим, аудитория ва аудиториядан ташқари машғулотларни, шу жумладан амалиёт ва баҳолашни бирлаштириш кабилар ёрдамида ушбу мезонларнинг белгиланиши бир нечта мақсадларга эришиш имконини беради. Буларга зарурий касбий билим, кўникма ва малакаларни касбий маҳоратнинг зарур даражасига интеграция қилиш; талабаларнинг мавзуни мустақил ўрганишини ривожлантириш; тегишли методикаларни ўзлаштириш; касбий ўсишга бўлган бутун умрлик интилишни шакллантириш киради.

Объект, жараён ёки ҳодисанинг хусусиятлари уларнинг ўзига хос мазмуни билан шаклланади, бу эса ушбу мазмунга ўзаро таъсир қилади. Касбий тайёргарлик таълим жараёнининг муҳим жиҳати эканлигини ҳисобга олган ҳолда, унинг турли ташкилий тузилмаларини аниқлаш учун "таълимни ташкил этиш шакллари" тушунчасини кўриб чиқиш муҳимдир.

Таълимни ташкил этиш шакллариغا нисбатан ҳар хил таърифлар мавжуд бўлиб, уларнинг ҳар бири тегишли шаклнинг ўзига хос хусусиятларини қамраб олади. С.А.Смирнов таълим шаклини "таълим жараёни иштирокчилари ўртасидаги ўзаро таъсирлар сони ва турини аниқлайдиган ўқувчилар фаолиятини ташкил этиш усули" сифатида концептуаллаштирган.

Б.Т.Лихачев таълимни "мазмунга бой ва методик жиҳатдан когнитив-таълимий алмашинувларни, педагог ва таълим олувчилар ўртасидаги ўзаро таъсир ва муносабатларни осонлаштирадиган тизимли ташкил этилган тизим" деб таърифлаган. У таълимни мазмун, таълим воситалари ва методологияларни ўз ичига олган яхлит бир бутунлик сифатида тушуниш кераклигини таъкидлаган. Унинг таъкидлашича, таълимга

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

тарқоқ ёндашувлар фақат чекланган таълим ва ривожланиш қийматиға эга, ҳақиқий таълим амалиётининг умумий самарадорлиги алоҳида усуллардан эмас, балки бир нечта ўзаро боғлиқ функцияларни бажарувчи яхлит тизимдан келиб чиқади:

1) Таълим олувчиларга билим, кўникма ва малакаларни бериш, шу билан бирга, уларнинг дунёқарабини шакллантириш ва салоҳиятини шакллантириш учун мақбул шарт-шароитларни яратиш учун ушбу асосни яратиш ва ундан фойдаланишда таълим-тарбиявий жиҳатлар муҳим роль ўйнайди.

2) таълимий компонент ўқувчиларни турли хил фаолият турларига тизимли жалб қилишни осонлаштиради, бу уларнинг интеллектуал, маънавий, ҳиссий ва жисмоний хусусиятларини оширишга ёрдам беради.

3) ташкилий жиҳат - таълим жараёнининг маълум бир методологиясини ўз ичига олади, унинг ривожланишига ёрдам беради.

4) психологик ўлчов ўқувчиларда барча когнитив жараёнларни оптимал такомиллаштиришга қаратилган.

5) ривожлантирувчи жиҳат ҳар томонлама интеллектуал жалб қилишни қўллаб-қувватлайдиган хилма-хил шарт-шароитларни яратишга тааллуқлидир.

6) таълимий маълумотларни тарқатишда илмий қатъийлик ва мантиқий изчилликни таъминлаш учун тизимлаштириш зарур.

7) Мувофиқлаштирувчи функция турли хил таълим моделлари ўртасидаги ўзаро таъсирни осонлаштириш ва шу билан таълим тажрибасининг умумий самарадорлигини ошириш учун зарур.

8) рағбатлантирувчи жиҳат талабаларнинг ривожланиш хусусиятларини ҳисобга олишда намоён бўлади.

Ушбу функцияларни турли хил таълим моделлари бўйича интеграциялаш ўқитувчиларнинг касбий ўсишини оширишда, шу билан бирга ўқувчиларнинг шахсий ривожланишини ривожлантиришда муҳим роль ўйнайди. Бинобарин, таълимни ташкил этиш шакллариға нисбатан турлича таърифлар мавжуд бўлиб, уларнинг таснифи турли мезонларға асосланган.

Фикримизча, олий таълим муассасаларида касбий тайёргарликни қуйидаги шаклларға ажратиш мумкин:

- меъёрий-ташкилий мезонлар асосида кундузги, сиртқи, кечки ва масофавий форматлар;

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

- ташкилий-услубий мезонларга кўра маъруза, амалий машғулотлар, семинар машғулотлари, мустақил таълим, интегратив ёндашувлар, амалий тажриба ва турли баҳолаш усуллари.

Тадқиқотда касбий тайёргарликни ташкил этишнинг ташкилий-услубий мезонларига кўра туркумланган турли шакллари кўриб чиқилади. Маърузалар, амалий машғулотлар ва семинарларда замонавий мультимедиали ўқитиш воситаларини қўллаш, амалий машғулотлар жараёни билан бир қаторда, аудитория ва аудиториядан ташқари касбий тайёргарлик усуллари интеграциялаш, талабаларнинг мустақил ишларини ташкил этиш ва турли хил баҳолаш турлари қуйидагиларга ёрдам беради:

- биринчидан, Механик тизимларнинг барқарор ишлашини таъминлаш, технологик қурилмаларнинг хавфсизлигини ошириш, техник эстетика, мувозанат ва деформация каби масалаларни ҳал қилиш учун механиканинг асосий қонунларига таянади. Бу назария материалларнинг механик хусусиятлари, кучланиш ва деформацияларни баҳолаш, шунингдек, динамик тизимлар ичида куч таъсирларини бошқариш кўникмаларини ривожлантиришни ўз ичига олади.

Шунингдек, назарий механика хавфсизлик ва барқарорликни таъминлаш учун механик тизимлар ва конструкцияларнинг чегаравий шароитларини аниқлаш, объектларнинг стресс ва страин ҳолатларини кузатиш, уларнинг оптимал дизайнини яратиш ва иш муҳитига мослаш имкониятларини таҳлил қилишни назарда тутди. Бу жараёнда меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар ва механик тизимларнинг хавфсизлик стандартлари алоҳида аҳамият касб этади.

- иккинчидан, Назарий механика фани бўйича касбий аҳамиятли билим, кўникма ва малакаларни (механик тизимларни лойиҳалаш, юклама ва деформацияларни изланиш, динамик ва статик жараёнларни бошқариш, экспериментал тадқиқотлар асосида техник ечимларни қабул қилиш, конструкциялар ва механизмларнинг ишончлилигини таъминлаш) ривожлантириш, бу жараёнда механик тизимларнинг хавфсизлиги ва самарадорлигини оширувчи конструктив материалларни танлаш методларини эгаллаш алоҳида аҳамият касб этади.

Ушбу соҳада муҳандислик муаммоларини ечишда назарий ва амалий билимларни қўллаш орқали механик тизимларнинг хавфсиз ишлашини, иқтисодий самарадорлигини, энергия тежамкорлигини таъминлаш зарур. Бунда механикани ҳуқуқий, ижтимоий-иқтисодий, техник, санитария-гигиеник ва экологик талабларга мувофиқ ҳолда ривожлантириш масалалари алоҳида эътиборга олинади.

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

Назарий механика фанида конструкцияларни хавфсиз лойиҳалаш кўникмалари, юкламалар тақсимои, деформацияларнинг чегаравий ҳолатлари, материалларнинг физик-механик хусусиятларини таҳлил қилиш ва ҳисоблаш методлари эгалланади.

Механик тизимларни эксплуатация қилишда хавфсизликни ошириш, конструкцияларнинг мустаҳкамлиги ва чидамлилигини синаш учун назорат методларини қўллаш ҳам муҳим ҳисобланади.

Шунингдек, назарий механика фанида механик жараёнларни назорат қилиш ва оптималлаштириш стратегиясини ишлаб чиқиш орқали муҳандисларнинг касбий компетенциялари янада ривожлантирилади. Бу эса, технологик тараққиёт шароитида замонавий механик тизимларнинг ишончилигини ва иқтисодий самарадорлигини таъминлаш имконини беради;

- учинчидан, ишлаб чиқариш майдончаларига стажировка экскурсиялари, иш берувчилар билан ўзаро алоқалар ва шунга ўхшаш тадбирлар давомида таълим ресурсларининг киритилиши мультимедиа ўқитиш воситаларини талабаларга фанни мустақил ўрганиш усулларини эгаллашга ёрдам бериш имконини беради. Ушбу ёндашув, шунингдек, уларнинг фаолияти давомида касбий ўсишга доимий содиқликни шакллантиради.

Баҳолаш блокида - талабаларда мультимедиа воситаларидан фойдаланиб назарий механика фанини ўзлаштиришини баҳолаш мезон(репродуктив, вариатив, изланувчанлик, ижодий)лари ва даража (қониқарсиз; қониқарли; яхши; аъло)ларидан иборат компонентлар ўз аксини топган.

Баҳолаш даражаси	Мезонлар	Индикаторлар
Қониқарсиз	Репродуктив	- Асосий назарий тушунчаларни билмайди ёки нотўғри тушунади.
	Вариатив	- Масалаларни ечишда оғирлик қилади, формулаларни тўғри қўллай олмайди.
	Изланувчанлик	- Янги вазиятларга мослашишда қийналади, мустақил изланмайди.
	Ижодий	- Муаммоларни ҳал қилишда ижодий ёндашувга эга эмас, фақат тайёр ечимларни такрорлайди.
Қониқарли	Репродуктив	- Асосий қонуниятларни билади, лекин чуқур тушунишга эга эмас.
	Вариатив	- Оддий масалаларни ечиши мумкин, лекин нотўғри ёндашувлар учрайди.
	Изланувчанлик	- Мустақил ишлашга ҳаракат қилади, лекин янги шароитларга мослашиши суст.

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

	Ижодий	- Янги ечимларни ишлаб чиқишда суст ҳаракат қилади, ижодий ташаббус кам.	
Яхши	Репродуктив	- Назарий билимларни тушунади ва изоҳлаб бера олади.	Н
	Вариатив	- Турли шароитларда масалаларни ечиши мумкин, лекин баъзи камчиликлар мавжуд.	азар
	Изланучанлик	- Мустақил изланади ва қўшимча маълумотлар орқали ўз билимини бойитади.	ий
	Ижодий	- Муаммоларни ҳал қилишда янги ғоялардан фойдаланади, лекин чуқур таҳлил етишмайди.	меха
Аъло	Репродуктив	- Фан бўйича чуқур назарий билимларга эга, тушунчаларни мустақил изоҳлаб бера олади.	ника
	Вариатив	- Ҳар хил шароитларга мос равишда формулалар ва механик қонунларни қўллай олади.	ни
	Изланучанлик	- Янги билимларни мустақил ўрганади, муаммоларни ҳал қилишда янги ёндашувларни қўллайди.	ўқит
	Ижодий	- Муаммоларни инновацион усуллар билан еча олади, техник жиҳатдан асосланган креатив ечимлар таклиф этади.	иш

Н

азар

ий

меха

ника

ни

ўқит

иш

жара

ёнид

а

вази

фала

р,

тамо

йилл

ар, функциялар, билимлар тизими, методикалар, тажрибалар, мезонлар ва хиссий-кадриятли муносабатларни интеграциялаш яхлит ахборот таъсирини осонлаштиради. Бундай ёндашув нафақат таълим тажрибасини оширади, балки ўқувчиларнинг бутун ҳаёти давомида узлуксиз касбий ривожланишини ҳам қўллаб-қувватлайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Азларов Т.Р. Компьютер саводининг табақалашган талаблари // Халқ таълими. Тошкент, 1998, No 2. Б.87-90,
2. Арипов М. Информатика ва ахборот технологияси асослари. Т.: Университет, 2001. 361 б.
3. Аширова А.И. Ахборот тизимларини лойиҳалаш фанидан дастурий қобик яратиш ва таълимда фойдаланиш методикаси. Дисс.... пед. фан. ном. Т.: 2009.139 б.
4. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълимда замонавий ахборот технологияларини жорий этишнинг илмий-назарий асослари. Монография. - Т.: Фан, 2007. -160
5. Икратова Х.З., Бегматова Н.Х., Эшбоев Э.А. Ахборот технологиясидан фойдаланишни ўрганиш. -Тошкент: Фан ва технология, 2011. -117 б.

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

6. Комилов Ш.М., Эрматов Ш.Т. Мультимедиа электрон дарсликларини яратиш ва ишлатиш муаммоларини долзарблиги // «Ахборот–коммуникациялар технологиялар асосида электрон ўқув адабиётларини яратиш: тажриба, муаммо ва истиқболлар» республика илмий–амалий анжумани маърузалар тўплами. –Т.: ТошДИУ. 2004.
7. Филимонова М. Ю. Проектирование педагогической системы обучения инженерной графике с использованием новых информационных технологий: На примере подготовки инженеров-нефтяников: Дис канд. пед. наук: 13.00.08. – М.: РГБ, 2003. – 117с.
8. Фролова Л. А. Использование современных технологий в образовательном процессе // Начальная школа. – 2008. – № 7. – С. 94 – 96.



**ZAMONAVIY QURILISH MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF
ETISH.**

Akramov X.M.

(NamDU, San'atshunoslik kafedrası prjessori),

Qodirov D.B.

(NamDU, 3 kurs, HFX-22 guruh talabasi)

Annotasiya: Mazkur maqolada qurilish jarayonidagi muammolarni yoritilgan, Bu muammolarni bartaraf etish uchun ishlatiladigan bog'lovchi moddar tarkibini urganishga qaratilgan. Protland sement turlari, tarkibi va qo'llanish soxalari yoritilgan. G'isht va bloklardan qurilgan devorlarni yer osti suvlari ta'siridan ximoyalash. Pardozlash qorishmalar turlari, tarkibi va qo'llanish soxalari yoritilgan. Binolarni yer osti suvlaridan muxofaza qilish

Kalit so'zlar: Konstruksiylar, zakan va zovurlar, Portlandsement (ko'kimtir kulrang kukun), Pardozlash qorishmalari, Maxsus qorishmalar, klinker, Rangli portlandsementlar, yer osti suvlari.

Annotation: This article highlights the problems in the construction process, aims to study the composition of binders used to eliminate these problems. Types, composition and areas of application of Portland cement are highlighted. Protection of walls built of bricks and blocks from the effects of groundwater. Types, composition and areas of application of finishing mixtures are highlighted. Protection of buildings from groundwater


Keywords: Constructions, trenches and ditches, Portland cement (bluish gray powder), Finishing mixtures, Special mixtures, clinker, Colored Portland cements, groundwater.

Hozirgi vaqtda katta shaharlar tevarak atorfidagi ekinzor yerlarni aholiga qurilish uchun ajratilishi zakan va zovurlarni yoqalishi natijasida yer osti suvlarni yer yuziga ko'tarilish muammosi quruvchilarga ancha qiyinchilik tug'dirmoqda. Bu muammolarni nazariy va amaliy yechimlarni ota-bobolarimiz qurgan inshootlar tahlilida kurishimmiz mumkin.

Poydevorlar yerto'la, podval devorlari va zaminga tegib turadigan boshqa konstruksiyalar asosdagi namlik hisobiga zax tortadi. Bunday konstruksiyalarni

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

kapillar namlikdan asrash uchun poydevorlarga gorizontal va vertikal gidroizolatsiya qatlamlari qo'yiladi. Ular yopishtiriladigan material (ruberoid, gidroizol, izol, shisha mato, shisha kigiz) qatlami va bo'yoq parda va suvoq (sement qorishma, asfalt va boshqa bitumli materiallar) bo'lishi mumkin.



1-rasm G'isht va bloklardan qurilgan devorlarni yer osti suvlari ta'siridan ximoyalash:

a – podvalsiz binolarning gidroizolatsiyasi;

b – podvalli binolarning gidroizolatsiyasi;

1 – birinchi qavatdagi xonaning poli;

2 – tashqi devor; 3 – rulon materialdan qilingan gidroizolatsiya qatlami;

4 – sement qatlami; 5 – otmostka;

6 – poydevor; 7 – bitum (saqich) qatlam; 8 – mayin sement qorishmasidan tayyorlangan vertikal gidroizolatsiya; 9 – podvalning beton poli; 10 – gorizontal gidroizolatsiya qatlami;

11 – podval usti ora yopmasi.


Podvalsiz binolarda devorning poydevor bilan tutashgan qismiga gorizontal gidroizolatsiya sifatida qalinligi 20-30mm sement-qum qorishma (tarkibi 1:2) yoki ikki qavat ruberoid, gidroizol yoki nam o'tkazmaydigan boshqa material bitumli mastikada yotqiziladi. Bulardan tashqari, 25-30mm qalinlikda asfalt to'shama bilan ham devorni gidroizolatsiya qilish mumkin. Gorizontal gidroizolatsiya binoning birinchi qavat poli betonining sathi bilan baravar va bino atrofiga ishlangan otmostka sathidan 15-20 sm balandda joylashadi. Ichki poydevorlarda gorizontal gidroizolatsiya poydevorning tepa yuzasiga joylashtiriladi.

Podvalli binolarda gorizontal va vertikal gidroizolatsiyadan foydalaniladi. Gorizontal gidroizolatsiya devor g'ishtlarini yoki mayda bloklarini terganda

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

qatorlar orasiga rulonli materiallardan lenta tarzida bitumli mastika yordamida yotqiziladi. Hidroizolatsiyaning birinchi qatlami podval poli bilan bir tekislikda, ikkinchi qatlami esa birinchi qavat poli plitalari ostida joylashgan bo'ladi.

Vertikal hidroizolatsiya podval devorlarining sirtqi yopmasi va avatlararo ora yopmasiga o'linadi. Hidroizolatsiya turlarini tanlash ko'proq namligiga, yer osti suvlarining satxiga bog'liq bo'ladi. Quruq tuproqli yerda issiq bitumni poydevor yuzasiga ikki qayta surtish bilan chegaralanish mumkin. Nam tuproqli yerda esa podval devori sirti mayin sement qorishmasi yoki sement oxak qorishmasi bilan suvoq qilinib, ustidan issiq bitum ikki qayta surkab chiqiladi yoki ikki qavat rulon material yopishtiriladi. Yopishtirilgan hidroizolatsiya qatlami shikastlanmasligi uchun ular g'ishtin devor bilan himoyalanadi (1-rasm). Imorat quriladigan joyda yer osti suvlari sathi podval poli satxidan baland bo'lgan xollarda gorizontal va vertikal hidroizolatsiya ikki-to'rt qavat chirimaydigan rulon-material (gidroizol, izol, shisha mato, shisha kigiz, ruberoid va boshqalar) yopishtirish orqali hosil qilinadi.




2 – rasm. Yer osti suvlarining satxi baland bo'lgan joylardagi g'ishtin binolarning gidroizolatsiyasi.

1 – otmostka; 2 – rulon materialdan qilingan gorizontal gidroizolatsiya qatlami; 3 – podval polidagi gorizontal gidroizolatsiya qatlami; 5 – rulon

gidroizolatsiyaning burmasi (kompensator); 6 – bitum shimdirilgan los tiqilgan joy; 7 – poydevor sirtiga yopishtirilgan vertikal gidroizolatsiya; 8 – yopishtirilgan vertikal rulon gidroizolatsiya;

9 – himoya g'ishtin devor; 10 – loy suvoq.

Bunda gorizontal gidroizolatsiya qatlami podval poli tekisligida va devorlar sikoliga to'shaladi. Vertikal gidroizolatsiya yer osti suvi satxidan 0,5m balandda joylashishi lozim. Buning uchun gorizontal gidroizolatsiya to'shamasi podval poli betonli qatlami ustidan yotqiziladi. Uning bir uchi podval devori tagidan sirtga chiqarilib, sirtqi vertikal yuzada yer osti suvlari ko'tarilishi mumkin bo'lgan satxdan 0,5 metr yuqorida qoldiriladi. Agar yer osti suvlarining gidrostatik bosimi 0,8m dan ortiq bo'lsa, u xolda podval polining betonli qatlami ustidan hamda podval devori ostidan o'tgan yaxlit temir-beton plita o'rnatiladi (3-rasm).



3-rasm. Binolarni yer osti suvlaridan muxofaza qilish;

a, b – yer osti suvlari poydevor satxidan pastda joylashgan;

v, g, d – yer osti suvlari poydveorga xam chiqqan;

1 – gorizontal gidroizolatsiya; 2 – vertikal gidroizolatsiya; 3 – otmostka; 4 – podval devori; 5 – polga yotqizilgan beton qatlam;

6 – issiq bitum surtilgan qatlam; 7 – toza yog‘li tuproq; 8 – toza pol; 9 –

vertikal gidroizolatsiya; 10 – himoya g‘ishtin devor; 11 – beton; 12 – temir-beton plita.

Agar yer osti suvlari tarkibida agressiv moddalar ham bo‘ladigan bo‘lsa, u xolda poydevor betoni putssolan portlansement yoki shlakportlansement asosida tayyorlanadi.

Binoning yer ostidagi qismlarini yog‘in-sochin ta’siridan himoyalash uchun tashqi devorlar atrofiga nishobi binodan chetga qaratilgan yo‘lka-otmostka qilinadi. Otmostkalar suv o‘tkazmaydigan materiallardan, ya’ni asfalt, asfalt – betondan yoki yig‘ma temir-beton plitalardan to‘shalishi mumkin. Ularning eni kamida 0,5m, nishabi 2-3% qilib olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.B.A.Asqarova, Sh.R.Nizomov. Temirbeton va tosh-g‘isht konstruksiyalari. O‘quv qo‘llanma. - T.: Iqtisod-Moliya, 1997-357b. 16

2.Xasanova O.T., Yuldashev O.P. Bezopasnost zdaniy i soorujeniy. Uchebno-metodicheskoe posobie.-T.: TGTU, 2013 – 143s.

3.Akramov, K. M. (2021). Improvement of the ecological condition of the settlement points by the processing of their waste. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(2), 160-163.

**TA'LIM VA AMALIY FAOLIYAT KLASTERI MUHITIDA
MUAMMOLARNI HAL QILISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI**

Qorayev Samariddin Barakayevich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Yoshlar masalalari va ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor.

Abdullayeva Ozoda Odiljon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Umumiy pedagogika kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'lim va amaliy faoliyat klasterlari muhitida yuzaga keladigan muammolar va ularni hal qilishning zamonaviy yondashuvlarini tahlil qiladi. Klaster modeli ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari va sanoat korxonalari o'rtasidagi integratsiyani ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ushbu tizimni rivojlantirishda dual ta'lim, innovatsion texnologiyalar va universitet-sanoat hamkorligi muhim o'rin tutadi. Maqolada ta'lim dasturlarining mehnat bozoriga mos kelmasligi, o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarining yetishmovchiligi, innovatsion texnologiyalarning kam qo'llanilishi va hamkorlikning sustligi kabi muammolar ko'rib chiqilgan. Ularni hal qilish uchun STEAM yondashuvi, sun'iy intellekt, VR/AR texnologiyalar, texnoparklar va startap inkubatorlarini rivojlantirish kabi usullar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim klasteri, amaliy faoliyat, dual ta'lim, innovatsion texnologiyalar, universitet-sanoat hamkorligi, mehnat bozori, startap inkubatorlari, STEAM, sun'iy intellekt, virtual reallik.

ANNOTATION. This article analyzes the problems arising in the environment of educational and practical activity clusters and modern approaches to their solution. The cluster model is aimed at ensuring integration between educational institutions, research centers, and industrial enterprises, and dual education, innovative technologies, and university-industry cooperation play an important role in the development of this system. The article addresses issues such as the incompatibility of educational programs with the labor market, students' lack of practical skills, insufficient use of innovative technologies, and weak cooperation. To solve them, such methods as the STEAM approach, artificial intelligence, VR/AR technologies, the development of technoparks and startup incubators have been proposed.

Keywords: educational cluster, practical activity, dual education, innovative technologies, university-industrial cooperation, labor market, startup incubators, STEAM, artificial intelligence, virtual reality.

KIRISH

Ta'lim va amaliy faoliyat klasterlari o'zaro integratsiyalashgan tizim bo'lib, u ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan. Ushbu tizimning asosiy maqsadi –

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

ta'lim jarayoni va real sektorni yaqinlashtirish orqali yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va innovatsion rivojlanishni ta'minlashdir. Biroq, ta'lim va amaliy faoliyat klasterlari muhitida qator muammolar mavjud bo'lib, ularni hal qilish uchun zamonaviy yondashuvlardan foydalanish talab etiladi[2]. Ushbu maqolada klaster tizimida yuzaga kelayotgan asosiy muammolar va ularni bartaraf etishning ilg'or usullari keng tahlil qilinadi.

Ta'lim va amaliy faoliyat klasterlari innovatsion hamkorlik modeli sifatida quyidagi asosiy elementlardan iborat: Universitetlar va kasb-hunar ta'lim muassasalari – nazariy bilimlarni shakllantirish. Ilmiy-tadqiqot institutlari – innovatsion ishlanmalarni amalga oshirish. Ishlab chiqarish korxonalari va biznes sektori – amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va real soha bilan bog'liq tajribani oshirish. Mazkur klaster modeli ta'lim sifatini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish va mehnat bozorining talablariga mos kadrlar tayyorlash imkonini beradi[7].

Ta'lim va amaliy faoliyat klasteri tizimida uchraydigan asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

– Ta'lim dasturlarining mehnat bozoriga mos kelmasligi. Ko'plab universitet va kasb-hunar kollejlari dasturlari sanoat va ishlab chiqarish tarmoqlarining real ehtiyojlariga javob bermaydi. Bu esa bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Bunda, ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni kuchaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Undan tashqari, dual ta'lim tizimini joriy etish, ya'ni nazariy ta'limni bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'lash, bunda bitiruvchilar uchun kasbiy sertifikatlash tizimini rivojlantirish zarur. Nazariy bilimlar amaliyot bilan mustahkamlanmasa, o'quvchilar real ish sharoitlariga moslasha olmaydi. Yechim sifatida ta'lim dasturlarida loyiha asosidagi o'qitish metodlarini keng joriy etish muhim hisoblanadi. Sanoat hamkorliklarining kengaytirilishi va amaliyot dasturlarining ko'paytirilishi va, bunda talabalarning startap loyihalarda ishtirok etishini qo'llab-quvvatlash zarur[9]. Universitet va sanoat hamkorligi yetarli darajada rivojlanmagan bo'lib, ishlab chiqarish sektori va ta'lim muassasalari o'rtasidagi aloqalar sust bo'lsa, bitiruvchilar ish bozoriga tayyor holda chiqolmaydi. Bunda universitetlar va korxonalar o'rtasida hamkorlik shartnomalarini ko'paytirish, akademik ta'limni korporativ amaliyot bilan bog'laydigan maxsus dasturlarni ishlab chiqish va universitet qoshida innovatsion inkubatorlar va texnoparklar tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta'lim va amaliy faoliyat klasterlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar so'nggi yillarda dolzarb mavzuga aylangan. Ushbu bo'limda klaster tizimi, ta'lim va sanoat hamkorligi, innovatsion ta'lim yondashuvlari hamda zamonaviy texnologiyalarning ta'lim jarayoniga ta'siri bo'yicha mavjud adabiyotlar tahlil qilinadi. 1998 yillarda Porter tomonidan ilgari surilgan klaster nazariyasi sanoat va ta'lim o'rtasidagi integratsiyani muhokama qiladi. Unga ko'ra, klaster tizimi

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, balki malakali kadrlarni yetishtirish uchun ham muhim vosita hisoblanadi[2]. 2000 yillarda, Schmitz esa klasterlarning raqobatbardoshligi va innovatsiyalarni tezlashtirishdagi rolini ta'kidlaydi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda (Masalan, Germaniya va Shveysariya) **dual ta'lim tizimi** ishlab chiqarish va akademik ta'limni bog'lovchi muhim model sifatida baholanadi. Ushbu tizim, ayniqsa, kasbiy ta'limning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Universitet va ishlab chiqarish sektori o'rtasidagi hamkorlik bo'yicha tadqiqotlarda Etzkowitz va Leydesdorff tomonidan ishlab chiqilgan **“Triple Helix”** modeli keng qo'llaniladi. Ushbu model universitetlar, biznes va davlat hamkorligini rivojlantirish orqali innovatsion tizimlarni yaratishga qaratilgan[8].

Ushbu maqola sifatli va miqdoriy tahlil metodlari asosida olib borilgan. Ta'lim klasterlari muhitida yuzaga keladigan muammolar va ularni hal qilish usullari bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, statistik ma'lumotlar va amaliy tadqiqotlar o'rganildi. Masalan, adabiyotlar tahlili – Klaster tizimi va zamonaviy ta'lim metodikalariga oid ilmiy maqolalar, kitoblar va konferensiya materiallari o'rganildi. Taqqoslash usuli – Dual ta'lim tizimi, innovatsion yondashuvlar va universitet-sanoat hamkorligining turli davlatlardagi amaliyoti o'rganilib, ularning samaradorligi taqqoslandi. Intervyu va so'rovnomma – Ta'lim muassasalari, sanoat korxonalari vakillari va talabalar bilan suhbatlar o'tkazilib, klaster tizimining samaradorligi baholandi. Eksperimental yondashuv – Virtual reallik, STEAM va startap inkubatorlari asosida ta'lim olish natijalari tahlil qilindi[10].

Tadqiqotda quyidagi asosiy ma'lumotlar ishlatilgan:

1. Ilmiy maqolalar va monografiyalar – Klaster tizimi, innovatsion ta'lim usullari va sanoat hamkorligi bo'yicha xalqaro tadqiqotlar.
2. Statistik ma'lumotlar – Ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi bo'yicha xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari.
3. Empirik tadqiqotlar – Sanoat va akademik hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha tajriba loyihalarining natijalari.

Olingan ma'lumotlar asosida quyidagi yo'nalishlarda tahlillar amalga oshirildi: Mavjud muammolarni aniqlash – Ta'lim va amaliy faoliyat klasterlari duch kelayotgan muammolar sistematik tarzda o'rganildi. Zamonaviy yondashuvlar samaradorligini baholash – Dual ta'lim, innovatsion texnologiyalar va universitet-sanoat hamkorligining ta'lim sifatiga ta'siri baholandi. Tavsiyalar ishlab chiqish – Olingan natijalarga asoslangan holda samarali strategiyalar taklif etildi[1].

NATIJALAR

Ushbu maqolada ta'lim va amaliy faoliyat klasterlari muhitida yuzaga keladigan muammolar, ularning sabablari va hal qilishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy jihatlarni qamrab oldi: Ta'lim va sanoat o'rtasidagi integratsiya sustligi – Universitet va ishlab chiqarish sektori o'rtasidagi hamkorlik yetarlicha rivojlanmagan. Tadqiqot

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

natijalariga ko'ra, sanoat vakillari o'quv dasturlarining mehnat bozori talablariga mos kelmasligi va amaliyotga yo'naltirilmaganligi sababli bitiruvchilarning ishga tayyorgarligi yetarli emasligini ta'kidlagan. Innovatsion texnologiyalar yetarli darajada joriy etilmagan – Virtual reallik (VR/AR), sun'iy intellekt (AI) va raqamli ta'lim platformalarining o'quv jarayoniga integratsiyasi sekin kechmoqda. Ish beruvchilarning 72% i o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarida kamchilik borligini qayd etgan. Dual ta'lim tizimining yetarlicha rivojlanmagani – Germaniya va Shveysariya kabi mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan dual ta'lim tizimi aksariyat rivojlanayotgan davlatlarda hali keng joriy etilmagan. So'rovnomalar natijalariga ko'ra, talabalar va o'qituvchilarning 68% i nazariy bilim va amaliy tajriba o'rtasida nomutanosiblik mavjudligini bildirgan. STEAM ta'limining ijobiy ta'siri – Tajriba asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar shuni ko'rsatdiki, fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika (STEAM) yondashuvi asosida tashkil etilgan ta'lim klasterlari o'quvchilarning tahliliy fikrlash qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Startup inkubatorlari va texnoparklarning roli – Universitetlarda tashkil etilgan texnoparklar va startup inkubatorlari talabalarning ijodkorligi va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Startup loyihalarida qatnashgan talabalar o'z bilimlarini real loyihalarda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishgan.

MUHOKAMA

Ta'lim va amaliy faoliyat klasteri doirasida duch kelinayotgan muammolar va ularni hal qilish bo'yicha zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilish natijalari ta'lim jarayonining tub islohotlarni talab qilayotganini ko'rsatadi. Ushbu bo'limda natijalar asosida olib borilgan tahlillar, mavjud muammolarga yechim sifatida taklif etilgan yondashuvlarning samaradorligi va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari muhokama qilinadi. Bunda:

1. Ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi nomutanosiblik. O'tkazilgan tadqiqot natijalari ta'lim va sanoat o'rtasida hali ham sezilarli tafovut borligini ko'rsatdi. Ish beruvchilarning fikriga ko'ra, bitiruvchilar ko'pincha amaliy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmay, real ish sharoitlariga moslasha olmaydi. Bu muammo dual ta'lim tizimi orqali hal qilinishi mumkin. Germaniya va Shveysariya tajribasi shuni ko'rsatdiki, o'qish jarayonida talabalar korxonalarga jalb etilib, u yerda aniq kasbiy ko'nikmalarni shakllantiradi. Dual ta'lim tizimini keng joriy qilish uchun ishlab chiqarish korxonalari va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish zarur. Davlat tomonidan mehnat bozori ehtiyojlariga mos keladigan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va qonunchilik asoslarini mustahkamlash lozim[3].

2. Universitet, sanoat va davlat hamkorligining ahamiyati. "Triple Helix" modeli (universitet–sanoat–davlat hamkorligi) bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, universitetlar o'z ilmiy tadqiqotlarini sanoat ehtiyojlariga moslashtirganda innovatsion loyihalar samarali amalga oshiriladi. Texnoparklar va startup inkubatorlari ta'lim jarayoniga tadbirkorlik elementlarini kiritib,

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

o'quvchilarning biznes yuritish va innovatsiyalar yaratish qobiliyatlarini oshiradi. Universitet va sanoat o'rtasida uzviy hamkorlikni ta'minlash uchun davlat tomonidan maxsus rag'batlantiruvchi dasturlar ishlab chiqilishi lozim. Ish beruvchilar ta'lim jarayoniga jalb qilinsa, bitiruvchilar uchun ishga joylashish imkoniyatlari oshadi. Biroq, ayrim universitetlar sanoat bilan hamkorlik qilishga tayyor emas, bu esa tizimli o'zgarishlarni talab qiladi.

3. Kasbiy ta'limni rivojlantirish va mehnat bozoriga moslashtirish. Ko'plab rivojlanayotgan davlatlarda kasbiy ta'lim tizimi mehnat bozorining real ehtiyojlariga javob bera olmaydi. Natijada, bitiruvchilar o'z mutaxassisligi bo'yicha ish topa olmay, yangi sohalarga moslashishga majbur bo'lmoqda. Kasbiy ta'limni sanoat talablariga moslashtirish orqali bu muammo hal etilishi mumkin. Kasbiy ta'lim dasturlarini ishlab chiqarish sektori ehtiyojlariga muvofiqlashtirish uchun muntazam monitoring va so'rovnomalar o'tkazish zarur[4]. STEAM ta'limi kasbiy yo'nalishdagi dasturlarga integratsiya qilinishi kerak. O'qituvchilar ham zamonaviy kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishi uchun ularning malakasini oshirishga e'tibor qaratish kerak.

XULOSA

Ta'lim va amaliy faoliyat klasterlari muhitida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun tizimli va zamonaviy yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Dual ta'lim, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish va universitet-sanoat hamkorligini rivojlantirish orqali ta'lim sifatini oshirish, yosh mutaxassislarni mehnat bozoriga tayyorlash hamda ilmiy-texnologik taraqqiyotga hissa qo'shish mumkin. Shu boisdan, klaster modeli asosida ishlaydigan ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish sektori o'rtasida uzviy hamkorlikni rivojlantirish strategik ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Etzkowitz H., Leydesdorff L. The dynamics of innovation: From National Systems and "Mode 2" to a Triple Helix of university-industry-government relations. *Research Policy*, 29(2), 2000. – P. 109-123.
2. Schwab K. *The Fourth Industrial Revolution*. World Economic Forum. Geneva: Crown Business, 2016.
3. Gibson D. V., Heitor M. V. *Creating regional wealth in the innovation economy: Models, perspectives, and best practices*. Cambridge University Press, 1999.
4. Kolb D. A. *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. Prentice Hall, 1984.
5. Gibbons M., Limoges C., Nowotny H., Schwartzman S., Scott P., Trow M. *The new production of knowledge: The dynamics of science and research in contemporary societies*. Sage Publications, 1994.
6. Nation I. S. P. *Learning Vocabulary in Another Language*. Cambridge University Press, 2001. – P. 102-124.

7. Gee J. P. What video games have to teach us about learning and literacy. Palgrave Macmillan, 2003.
8. Philipps L. Definitions and Synonyms: A Guide to Effective Vocabulary Use. Oxford University Press, 2007.
9. Bransford J. D., Brown A. L., Cocking R. R. How People Learn: Brain, Mind, Experience, and School. National Academies Press, 2000.
10. Ibragimov A. G. The Development of Creativity in Primary School Students: Methods and Strategies. Tashkent State Pedagogical University Press, 2018.



4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

BOLALARDA VATANPARVARLIK TUYGULARINI SHAKLLANTIRISHNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

U. D. Turaxanov. Psixologiya kafedrasi mudiri, (PhD)

Annotatsiya: Psixologiya - insonning sub'ektiv dunyosiga tezkorlik bilan ta'sir etadi. Ushbu maqolada bolalarda vatanparvarlik tuygularini shakllantirishning individual psixologik xususiyatlarining omillari haqida fikr yuritiladi. Har bir o'quvchi psixologik jihatdan bir "shaxs"dir, shuning uchun har birining ta'lim tizimidagi muvaffaqiyatlari turlichadir. O'qituvchi psixolog bo'lishi kerak, o'quvchiga ta'lim berish barobarida ona- yurtga sodiqlik tushunchalarini ham singdirib borishi kerak.

Kalit so'zlar: shaxs, individuallik, psixologiya, individ, differensial, xulq-atvor, yondashuv.

Annotation: Psychology is a rapidly developing factor in the subjective world of a person. This article discusses the factors of individual psychological features of the formation of patriotic feelings in children. Each student is a psychological "person", therefore, each of them has different successes in the education system. The teacher must be a psychologist, and while teaching the student, he must also instill in him the concepts of loyalty to the Motherland.

Keywords: personality, individuality, psychology, individual, differential, behavior, approach.

Ma'lumki, psixologiya psixik faoliyatning u yoki bu sharoitda qanday ro'yobga chiqqanligini o'rganish bilangina shug'ullanib qolmasdan, bu jarayonlarni qanday boshqarib borish masalalarini ham ilmiy asosda o'rganadi. Shuning uchun ham ilmiy psixologiya boshqa barcha o'rganilayotgan predmetlar orasida eng asosiy fanlardan hisoblanadiki, uning jamiyat rivojlanishi bilan ahamiyati yanada ortib va takomillashib boraveradi. Turli mazmundagi taassurotlar tufayli paydo bo'ladigan hissiy holatlar hayotimizning turli-tuman ko'rinishlaridirki, bularning hammasini psixologiya fani o'rganadi. "Psixologiya" so'zi ikkita grek so'zlaridan —psychell — jon, ruh va —logosl — ta'limot, ilm so'zlaridan iborat bo'lib, an'anaviy ma'noda inson ruhiy dunyosiga aloqador barcha hodisalar va jarayonlar uning predmetini tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, psixologiyaning predmetini har birimizning tashqi olamni va o'z-o'zimizni bilishimizning asosida yotgan jarayonlar, hodisalar, holatlar va shakllangan xislatlar tashkil etadi.

Har bir insonga o'z ichki dunyosini idrok etish, emotsional va iroda shakllariga ajratish odatdir. Idrok- his etishdan boshlanadi, - psixologik jarayonning eng oddiysidan, bizning ongimizda voqea-hodisa va narsalarning hislatlarini yoritadi. Narsa va hodisalarni his etish ongda bir butun obraz yaratadi. Ma'lumotlarni qabul qilayotganimizda aql ham ishtirok etadi, kerakligini ajratib, bir-biri bilan taqqoslaydi, avval ko'rgani bilan solishtiradi. Inson individualligining etilishiga, rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ko'p qirraliligini hisobga olgan xolda V.Merlin bu tushunchani aniqroq ifodalash uchun «integral individuallik» atamasini kiritdi. Syu bilan birga u individuallik tushunchasida barcha tabiiy va ijtimoiy xususiyatlar integratsiyasini ko'rsatib o'tdi. Bunday yondoshishga ko'ra, inson individualligi bu uzluksiz tashqi va ichki O'zgarishlar sharoitida o'z yaxlitligi va o'z-oziga o'xshashlikni saqlab qoluvchi, yakka bita odamning aloxida turmush shakli (tarzi) bo'lib, u turmush tarzi doirasida muxtor sifatida, yakka va betakror biosistema (tabiiy-ijtimoiy tuzilma) tariqasida yashaydi va sa'yi-harakat qiladi. Bu borada V.M.Bexterevning bir fikrini eslab o'tish joizdir; «Shaxs har doim va har erda biosotsial sharoitlarning maxsulidir»deya ta'kidlaydi.[3]

Faoliyat davomida yoshlarning kasbiy his tuyg'ulari, ya'ni his- hayajoni va tayanch hislari rivojlanadi. Ijodiy faoliyat davrida o'qituvchi o'quvchining kuzatuvchanligini rivojlantirishi kerak. Diqqatni jamlash - ongga boshqa hech qanday narsaga ahamiyat berishlikka

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

yo'l bermaydi, faoliyatni muvaffaqiyatli bo'lishi garovidir. Diqqatni doim mashq qildirish kerak, shunda u doimo fikrni jamlay oladigan bo'ladi.

Bolalarda ma'naviyatni shakllantirish va rivoj topishida avvalo, o'z Vatanini dilida va tilida saqlovchi, unga kerak bo'lsa sajda etush lozimligini ta'kidlab boorish kerak. Vatan tushunchasi etnik birliklarga nisbatan qo'llanilganda muayyan ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Inson o'zining xalqining butun orzu-umidlarini ham Vatan istiqboli, uning tinchligi, barqarorligi, taraqqiyoti bilan bog'laydi. Vatan tinch bo'lsa, el tinch bo'lishini, boy bo'lsa boy bo'lishini, rivojlansa ezgu niyatga yetishini ta'lim fidoyilari bo'lmish ustozlarimiz talaba yoshlar ongiga singdirib kelmoqdalar.

“Vatan (arabcha-ona yurt) - kishilarning o'zi yashab turgan, avlod ajdodlari tug'ilib o'sgan, millati shakllangan joy, ijtimoiy muhit, mamlakat. Vatan bir-birini taqazo etuvchi (uy, mahalla, shahar, qishloq, mamlakat kabi) bir qator hududlarni o'zida ifodalaydigan, ijtimoiy muhit va inson, uning hayoti kabi ko'plab ma'naviy tushunchalarni o'z ichiga oladi, avlodlar tug'ilib o'sgan va kamol topgan joyi, zamin, o'lkani anglatadi.”^[1]

Vatanga bo'lgan munosabat ma'naviyat darajasiga qo'tarilib, inson faoliyatiga maqsad va yo'nalish berish-vatanparvarlik ekanini o'zlari ham chin dildan his etib, ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish yo'lida jonbozlik ko'rsatmoqdalar. Ularning eng asosiy maqsadi bilim, ko'nikmalar berish bilan birga yoshlarni oqilona tarbiyalaydilar ham.

Ota-bobolarimizdan meros qolgan an'analarning barchasi ta'lim-tarbiyaga rivojiga qaratilgan bo'lib, uni uqqan har bir kishining ma'naviy qobiliyati ortib boradi. Ammo hozirda bola tarbiyasi qiyin muammodek, nazarimizda. Bularga milliy tarbiya tizimining izdan chiqqani, ota-onalarning loqaydsizligi, oynai jahon orqali mazmunan sayoz turli seriallarning namoyish etilishi ham sabab bo'lmoqda. Ilgari o'zbek bolalari kattami-kichikmi, ota-onasi tugul kattalar gapini ikki qilolmasdi, lekin bunday holatlar hozirda adog'iga yetgandek. Xatto ba'zi bir farzandlar orasida ota-onasini behurmatlash hamda qariyalar uyiga olib borib qo'yish hollari ham uchramoqda. Shuning uchun bunday ko'ngilsizliklarning oldini olishda keng jamoatchilik faoliyatini jadallashtirishimiz, yangi istiqbol rejalar xususida bosh qotirishimiz lozim. Yoshlar ma'naviy kamol topib borib jamiyat rivoji uchun yetuk shaxs etib tarbiya topar ekan, o'zining bor imkoniyatlarini ishga solib, iste'dodini to'la namoyon etishi zarur. Zero, ma'naviyatga hurmat, uning o'ziga bo'lgan hurmatdir.

Vatan tuyg'usi jaranglaganda bizlarning hayolimizda yurtimiz faxri, iftixori, buyuk bobolarimizning siymolari, muqaddas zaminimiz, musaffo osmonimiz, tinch va osoyishta hayotimiz aks etadi, uning qadriga yetib yashash esa siz-bizlarning burchimizdir.

Yangi barkamol inson tarbiyasi xuddi shu ma'noda har qachongidan ham ahamiyatliroqdir. Sharq mutaffakirlari xalqimiz ma'naviyatini, joylarda yoshlar tarbiyasining yaratuvchilik rolini chuqur his qilgan holda o'zlarining fikrlarini asarlari orqali qoldirganlar. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda Davlat ta'lim standartining talablarida ham ta'lim-tarbiya yo'nalishlari oqilona ko'rsatib qo'yilgan.

Vatanparvarlik tuyg'usi kabi mas'uliyatli vazifa ota-onadan keyin ta'lim fidoyilarining zimmasiga tushadi. Demak, tarbiya degan tushunchalar, to'g'rirog'i tarbiya bilan shug'ullanish jamoatchilik ishiga aylandi. Ta'lim tizimida mehnat qilayotgan har bir pedagog tarbiyani ta'lim bilan birga barobar holda olib borish yo'lida zamonaviy usuldagi dars samaradorligiga erishishga haraka qilmoqdalar.

Chaqaloqlikdan bog'chagacha bo'lgan davrda rang-barang o'yinchoqlar, turli-tuman chiroyli shakldagi o'yinchoqlar, milliy ruhdagi allalar aytishni o'rgatish ham bugungi kun pedagog va tarbiyachilarning vazifasiga aylanmog'i kerak. O'zbek tiliga davlat maqomining berilishi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, xalqlarimizning milliy ongi, milliy g'ururining o'sishida, ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashni tiklanishida ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ulug' ajdodlarimizning ulkan ma'naviy merosini yangidan ijodiy

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

o'zlashtirishning boshlovchilanganligi mustaqil O'zbekistonning eng yorqin yutuqlari qatoridan joy oldi.

Mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni tarbiyalash, intellektual imkoniyatlarini kengaytirish, ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatga bo'lgan intilishlarini moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashda Ulug'bek nomidagi iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasining faoliyati e'tiborga sazovordir. Agarda bizlar kelajagimizni o'ylab qadam tashlamoqchi bo'lsak, kelgusida ishimizni davom ettiradigan bugungi yoshlarimizga sharoit yaratib berishimiz zarur.

Ona Vatanni sevish –vatanparvarlikning asosida ahloqiy tarbiya yoshi va o'quvchining to'g'ri yo'nalish olishi uchun hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan muhitni ham hisobga olganda, shaxsning butun hayotiy faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Ahloqiy bilim berish bir qancha tarbiyaviy vazifalarni bajaradi: Inson hayoti va madaniyatining ahloqiy qadriyatlari to'g'risida keng tasavvur beradi. Ahloqiy bilim asosan ahloq to'g'risidagi suhbatlar, ma'ruzalar mavzuiy kechalar, turli kasb namoyondalari bilan uchrashuvlar, o'quvchilar konferentsiyasi va boshqa vositalar bilan amalga oshiriladi.

Vatanparvarlik tuyg'usi insonda ijtimoiy burch orqali namoyon boladi. Ya'ni Vatan va xalq manfaatlarini himoya~qilish, mehnat faoliyati, ijtimoiy faoliyatda o'z fuqarolik burchini bajarishga undaydi. Har bir fuqaroning iste'dodi va salohiyati Vatan va xalq manfaatlarini uchun xizmat qilsa, haqiqiy vatanparvar bo'ladi. Vatanparvarlik tuyg'usi har bk bolaning, talabaning, fuqaroning ongiga ta'sir etib, uning faoliyatida ifodalanishi zarui, ya'ni har bir kishida vatanparvarlik tuyg'usi e'tiqodiga aylanishi uchun uning o'tmishi, hoziri, kelajagi haqidagi fikrlar bir butun tasavvurda maqsad va yo'nalish hosil qilishi zarur. Demak, ongi, tuyg'usi kelajakka ishonch, oz Vatani tarixiga, uning ma'naviy merosiga huimat va undan faxrlanish tuygusi, vming boyligiga boylik qo'shish uchun intilishi va fidoyi borish haqiqiy vatanparvarlik sanaladi.[2]

Bolalarga individual – psixologik yondoshuvda vatanparvarlikni tarkib toptirish o'zbek xalqining umuminsoniy qadriyatlari bilan uyg'un holda amalga oshiriladi. Ana shunday qadriyatlardan eng muhimi insonparvarlikdir." Insonparvarlik — bu shaxs erki, uning qadr-qimmatini hurmat qilish, insonga mehr va muruvvat ko'rsatish, unga yaxshilik qilish kabi qarashlar majmuidan iborat.

Milliy g'oyaning muhim tamoyillaridan biri xalqimizning tarixiy xotirasi, o'z ona yurti va xalqiga bo'lgan cheksiz xurmat va iftihoridan iboratdir. O'zbek xalqining milliy g'oyasida ushbu tamoyil hamisha ustivor bo'lib kelgan. Buning sababi, O'zbekiston bizning yagona tarixiy Vatanimiz ekanligidadir.

Yoshlarga ta'lim-tarbiya berar ekanmiz, o'zbek xalqining asriy boy me'rosiga egaligi, biz yashayotgan zamin tuprog'i tabarrukligi hamda kindik qonimizning to'kilganligini, shu zaminda bizlar va kelajak avlodimiz yashab, ijod etishini qayta-qayta uqtirib boramiz. Inson uchun ona bitta bo'lgani kabi Vatan ham yagonadir. Xalqimizning e'tiqodiga ko'ra, ona Vatanni sevish, ardoqlash milliy an'analarga sodiq bo'lish- vatanparvarlikdir.

Psixologiya va pedagogikani egallab olish o'qituvchining umumiy kasbiy- pedagogik tayyorgarligini ta'minlaydi. Psixologiya psixik jarayonlarni mohiyati va sodir bo'lish xususiyatlarini bilib olishga yordam beradi. Psixologiyaga doir bilimlar kishilarning xatti-harakatlarini, psixik xolatini, psixik jarayonlarning sodir bo'lish xususiyatlarini, shaxsning xususiyatlarini, bolalar guruxi va jamoasini tahlil qilish ko'nikmalarini tarkib toptirish asosini tashkil etadi. Pedagogika pedagogik jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi, pedagoglik mahorati asoslarini egallab olishga ko'maklashadi. Pedagoglik faoliyati uchun pedagogik vaziyatni to'g'ri baholashga, xatti- harakat rejasini ishlab chiqishga, zarur vositalarni

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

aniqlashga, asosiy - ularni amalda egallab olishga yordam beradigan shaxsning maxsus yo'nalganligi va tafakkur xususiyatlari zarurdir.

Yoshlarga ta'lim-tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etish o'qituvchining g'oyaviy e'tiqodi, kasb mahoratiga, iste'dodi va ma'naviyatiga hal qiluvchi darajada bog'liqdir. Xaqiqatdan o'qituvchisiz jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini tasavvur etish qiyin. Ta'lim-tarbiya jarayonini turg'i tashkil etish uchun barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish o'qituvchilarning birinchi navbatdagi vazifalaridan biridir. Har bir pedagog shuni doim esda tutishi kerakki, dars o'quv tarbiya jarayonining asosiy formasidir.[4] Hozirgi zamon tarbiyasining barcha jarayonlari o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va mustaqil ijod qilishga o'rgatishdan iboratdir. Biz o'qituvchilar dars jarayonida birinchi navbatda o'quvchilardan fanlardan chuqur va mustahkam bilim berish bilan birga, ularda bilimga qizikishni, mehnat qilishga extiyojni tarbiyalab borishni ko'zda tutamiz.

Ta'lim davlat ijtimoiy taraqqiyotining ustivor yo'nalishi deb belgilangan ekan, bugungi zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi kerak degan savolga javob berishimiz zarur. Yangilanayotgan jamiyat talablaridan kelib chiqib, shuningdek, barkamol avlod, komil inson shaxsini tarbiyalashdek oliy maqsad sari rivojlanib borayotgan bir davrda o'qituvchilik kasbi eng asosiy markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Chunki o'qituvchi o'quvchini shaxs sifatida shakllantiradi, katta harflar bilan yoziladigan INSON degan so'zga loyiq qilib tarbiyalashdek nozik, murakkab mas'uliyatli vazifani amalga oshiradi. Ota-onalar o'zlari uchun eng qadrli bo'lgan yuksak orzu umidlar bilan bog'liq farzandlarini ishonib topshiradilar. O'qituvchi ularning taqdirini belgilab kelajak hayotga tayyorlaydi.

Hozirgi zamon o'qituvchisi zamonaviy ta'lim-tarbiyaning bosh g'oyasi bo'lgan barkamol avlod, komil inson shaxsini tarbiyalash vazifasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ekan, unda shakllantirish lozim bo'lgan hislatlarni yaxshi bilishi va faoliyati davomida o'quvchi shaxsiga singdira borishi kerak. Istiqlol davri tarbiyashunosligi amaliyoti uchun o'z sohasini yaxshi biladigan, sinfdagi har bir o'quvchini har xil yo'l, usul va vositalar ko'magida mehnat qildirib bilim olishga o'zini-o'zi tarbiyalashga yo'naltira oladigan bilimlarni o'quvchisining xotirasiga emas, ruhiyatiga singdirishni biladigan o'qituvchi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: O'zbekiston.. 2017-
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O'zbekiston. 2017-
3. Abu Nasr Al- Farobiy musiqaning shaxs kamoloti shakllanishiga ijobiy ta'siri
4. Saydaxmedov N., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. Toshkent, 1999.-
5. Holiqov.A, Pedagogik mahorat,T.,2011yil.
6. Avliyaqulov.N.X,Musaeva.N.N, Pedagogik texnologiya . – T.: Cho'lpon NMIU,2012-
7. Ochilova G. Pedagogika. T.: 2005-
8. G'oziev E.G_. Umumiy psixologiya. Toshkent 2010-
9. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat. O'quv Qo'llanma. - T.:O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti, 2006-

**MUSIQA DARSLARINI O'QITISHDA MILLIY QADRIYAT
KO'NIKMALARINING TARKIB TOPTIRISH OMILLARI**

M. Boltayeva. NamDU pfn. Dotsent

muhayyo_boltayeva_2@gmail.com

ANNOTATSIYA

Milliy qadriyat va an'analarimizni yanada rivojlantirish, folklor san'atimizni boyitish, dunyo bo'ylab keng tarannum qilish borasida olib borilayotgan bunday ezgu ishlarni xalqimiz katta mamnuniyat bilan kutib olyapti. Bu barchaga faxr-iftixor, g'urur bag'ishlamoqda. San'at, madaniyat, adabiyot sohasi ijodkorlaridan ayrimlarining quyidagi fikrlaridan ham buni anglash mumkin. O'zbekiston Respublikasi yangi O'zbekiston- yangicha dunyoqarash shiori ostida rivoj topib borar ekan, milliy qadriyatlarni tiklash, shular asosida yaratilgan milliy bayramlar, ommaviy marosimlarni qayta bunyod etish ishlariga alohida jiddiy tus berildi.

Kalit so'zlar: *milliy qadriyat, madaniyat, an'ana, tarbiya, barkamollik, tafakkur, uslubiyot*

ANNOTATION

Our people are very pleased with such noble work carried out to further develop our national values and traditions, enrich our folklore art, and widely glorify it throughout the world. This gives everyone pride and honor. This can be understood from the following thoughts of some of the creators of art, culture, and literature. As the Republic of Uzbekistan develops under the slogan of a new Uzbekistan - a new worldview, a particularly serious focus has been given to the restoration of national values, the reconstruction of national holidays and mass ceremonies created on their basis.

Keywords: national values, culture, tradition, education, perfection, thinking, style

Yoshlarni kasb hunarga o'rgatish, dunyoviy ilmlar bilan puxta qurollantirish bilan bir qatorda baodob va xushahloq, kamtarin va shirinso'z, didli va farosatli, madaniyatli va har tomonlama barkamol kishilar qilib tarbiyalash bugungi kunda davlat ahamiyatiga molik masala darajasiga ko'tarildi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek: - Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qoldirishlari lozim.

Yuksak ma'naviyat va barkamollik sari yetaklashda tarbiyaning ko'plab omil va vositalari qatorida musiqa alohida o'rin egallaydi. Musiqa o'z tabiati bilan o'zgacha bir olam. Mo'jizakor tovushlar, maftunkor kuylar, ajib tuyg'ular, g'aroyib hissiy kechinmalar ana shu musiqaga xos. Musiqa va qo'shiq jo'shqin hissiyotlar va rang-barang hayot taassurotlarining kuchli tug'yoni bilan tug'iladi. U dillardan - tillarga, tillardan yana dillarga orombahsh harorat bo'lib quyiladi.

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

So'z va kuyning bunday g'aroyib ta'siri qalblarda yuksaklik, poklik va ezgulik hislarini uyg'otadi, ijod rivojiga turtki beradi, ong va tafakkur o'sishiga ko'maklashadi, o'zini chuqurroq anglashga, hayotni kengroq tushunishga yordam beradi. Bu holat o'z navbatida har bir ustoz murabbiy uchun katta tarbiyaviy ishlarini amalga oshirish imkonini yaratadi.

Madaniyat— jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi.»Madaniyat» tushunchasi muayyan tarixiy davr (antik Madaniyat), konkret jamiyat, elat va millat (o'zbek Madaniyati), shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o'ziga xos sohalarini izoxlash uchun qo'llaniladi. Tor ma'noda»Madaniyat» atamasi kishilarning faqat ma'naviy hayoti sohasiga nisbatan ishlatiladi.«Madaniyat» arabcha madina (shahar) so'zidan kelib chiqqan. Arablar kishilar hayotini ikki turga: birini badaviy yoki sahroi turmush; ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar. Badaviylik — ko'chmanchi holda dashtu sahrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik — shaharda o'troq holda yashab, o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lgan xalqlarga nisbatan ishlatilgan.Tadbir- biron-bir ishni maqsadli amalga oshirish choras. Mahorat-o'zlashtirilgan bilimlar va hayotiy tajribalar asosida barcha amaliy harakatlarni (shu jumladan tadbir berishni) kam kuch va kam vaqt sarflab bajarish. Metodika so'zi grekcha so'z bo'lib, "tadqiqot yo'li", "bilish usuli" degan ma'noni anglatadi, demak u qaysi soha bo'lishidan qat'iy nazar, nazariyot va amaliyotning alohida qismlari bo'lib hisoblanadi, ularning yig'indisi tadbirlarning tashkil etish va o'tkazish metodlari deyiladi.

Qadriyat — voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiyaxloqiy, madaniyma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, mas, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalar Qadriyat hisoblanadi. Ijtimoiy fanlarning qaysi sohasida Qadriyatga doir tadqiqot olib borilgan bo'lsa, bu tushunchaga shu jihatdan ta'rif berishga intilishgan. Mustaqil O'zbekiston san'ati rivojlanishi milliy madaniyat an'analari bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekistonda milliy an'ana o'zining qaytarilmas dastlabki qiyofasini saqlab qolgan ko'plab noyob joylar mavjud. Qadimgi madaniyat markazlaridan, o'ziga xos taqdir va o'ziga yarasha tarixiy rivojlanishiga ega bo'lgan Surxondaryo shular qatoriga kiradi. Surxondaryo san'ati o'lka tabiatining chiroyi, uning hayot tarzi, urf-odatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Zamonaviy kiyim dizaynini folklor-etnografik yo'nalishsiz tasavvur etish qiyin. Unda minglab yillar mobaynida kundalik va bayramlarda kiyiladigan kiyim haqida ma'lumotlar berilgan. Dizaynerlarning boshqalarga o'xshamas qaytarilmas uslub izlanishlarida, aynan Surxondaryo uslubi milliy urf-odatlar, betakror an'analari namoyon bo'lgan.

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

Surxondaryo viloyati ichida Boysun o'zining an'anaviy madaniyatiga sadoqatini xozirgi zamon bilan uyg'unlashtirishi bilan ajralib turadi.

Yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishda yetuk kadrlarni tayyorlash ham asosiy vazifalardan biridir. Maktablarda o'quvchilarga darslarni sifatli olib borishda eng ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanib olib borilsa, oldimizga qo'yilgan buyuk vazifalardan birini bajargan bo'lardik. Musiqa o'qituvchisi har bir darsga mustaqil va ijodiy yondoshmog'i kerak bo'ladi. Uning ijodkorligi shundaki, u bir soatlik darsga ssenari muallifi, uning ijrochisi va rejissori sifatida ham ish tutadi. Shu bois musiqa darsi san'at darsi ham deb ataladi.

Maktab hayotida musiqa o'qituvchisining faoliyat mavqei keng va ko'p qirralidir. Sinfidan tashqari musiqa darslarini tashkil etish va boshqarish, maktabda musiqa tarbiyasining ommaviy shakllarini (uchrashuvlar, bayramlar, ma'ruza konsertlar, ko'rik-tanlovlarga tayyorgarlik va qatnashish, "Alifbe" bayramlarini o'tkazish, musiqa haftaliklari va hakazo) uyushtirish bevosita musiqa o'qituvchisining zimmasidagi vazifalardir. Shu bilan birga maktabdan tashqari ta'lim muassasalari (bolalar musiqa maktablari, o'quvchilar ijodiyot markazlari, bolalar teatrlari, xor etyudlari kabilar) bilan doimiy aloqadorlikda bo'lib, iqtidorli, musiqiy qobiliyatli o'quvchilarni ularga jalb qilish va ularning faoliyatidan maktab hayotida o'z o'rnini bilan foydalanish ishlari ham musiqa o'qituvchisi zimmasiga mas'uliyatli vazifalarni qo'yadi.

Musiqa fani bo'yicha o'quv dasturlarining yana bir o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, umumta'lim maktablarining "musiqa madaniyati" fanining asosi bo'lgan musiqa savodxonligini tarkib toptirish lozim bo'lgan, qator musiqiy qonuniyatlar, jumladan, musiqa nutqi, musiqaning ifoda vositalari, musiqa shakllari, musiqaning tuzilishi va rivojlanishi, musiqaning zamonaviyligi kabilar chuqur, mukammal o'rganilishi kerak. Demak, musiqa fani dasturlari mazmunida dars o'tish uchun musiqa o'qituvchisi o'zining musiqiy-nazariy bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishi kerak bo'ladi. Chunki, mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni ona vatanimizga, millatimizga va milliy qadriyatlarimizga, barqaror qiziqish va mehr-muhabbatli qilib tarbiyalashning muhim tarkibiy qismi bo'lgan badiiy-estetik tarbiya masalalarini, ya'ni insonni ma'naviy, ma'rifiy jihatdan barkamol shaxs qilib tarbiyalash masalalarini hal qilishda jamiyat va davlatimiz tamonidan qo'yilgan katta mas'uliyatni musiqa o'qituvchisining oldiga dolzarb vazifa qilib qo'ymoqda. Musiqa ta'limi va tarbiyasini samaradorligini ta'minlashda o'quvchi-yoshlarning musiqa san'atiga va u orqali hayotga bo'lgan qiziqishini uyg'otishda musiqa ta'limi va o'qituvchilarning mavqeyi juda yuqori va g'oyat mas'uliyatlidir. Shu aytilganlarga asoslanib musiqa o'qituvchilarni yangi milliy asoslarda ishlab chiqilgan dasturlar bo'yicha ish faoliyati mazmunini quyidagicha izohlash to'g'ri bo'ladi: O'qituvchi umumta'lim maktablarida musiqa bo'yicha ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil qilishi va uning samaradorligini ta'minlash uchun o'quvchi-yoshlarni musiqa madaniyatini har tamonlama tugal shakllantirishi, ularni musiqa san'atining turli sohalaridan

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

xabardor qilib borishi, musiqani ongli idrok qilishi, o'z tushunchalarini ifodalay olishi, eng oddiy musiqa qonuniyatlarini tushinib, unga baho bera oladigan qilib tarbiyalashi, o'quvchilarni musiqa bo'yicha bilimlarini mustahkamlab borishlari uchun o'z ustlarida ishlash ko'nikmalarini o'stirishlariga erishishi va shu asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etmog'i lozim. Musiqa o'qituvchisining pedagogik mahorati. O'quvchilarning aqliy va axloqiy kamolotida musiqa o'qituvchisi shaxsi alohida o'rin tutadi. Uning dunyoqarashi keng, qalbi pok, shirinso'z, bolajon bo'lmog'i lozim. Bunday fazilatlarni har qanday shaxsda ham tarbiyalab bo'lmaydi. Pedagogik mahorat yoki san'at - bu qandaydir qo'l bilan tutib bo'lmaydigan, fahm-farosat bilan amalga oshiriladigan jarayon, izlanishlar, kechinmalar, ko'pdan-ko'p kundalik ishlar, bolalar bilan olib boriladigan daqiqalar demakdir. Bu - bilimlarning ilmiyligi, tarbiyadagi muammolarni yechishga qodirlik, bola shaxsiga e'tibor bilan yondashish, rivojlangan tasavvur va hokazolar yig'indisidir.

Insonning ma'naviy kamoloti, qobiliyati, iqtidori, salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun milliy qadriyatlar asos bo'la oladi. Ayniqsa "Musiqiy ta'lim" yo'nalishida bilim olayotgan talabalar bilan milliy qadriyatlar asosida ish olib borish birmuncha qulayliklar keltiradi. Sababi, bu yerda taxsil olayotgan ko'plab talabalarning betakror iqtidorlari ta'lim-tarbiya jarayonida hamda universitet miqyosida o'tkazib kelinayotgan barcha tadbirlarda o'z aksini topmoqda. SHu tadbirlar orqali talaba- yoshlarning ma'naviyati ortib boradi hamda milliy-azaliy qadriyatlarga munosabat, Vatan tarannumi hamda eng muhimi O'zbekistonda taxsil olayotgan iqtidorli talaba yoshlarning betakror qobiliyatlari baholanar edi. Bugungi kunda ham O'zbekistonda o'tkazilayotgan bir qator ijobiy ahamiyat kasb etuvchi "Yangi avlod", "Kelajak ovozi", "Yoshlar forum san'ati" kabi tadbirlarda yoshlar o'rtasidan eng iqtidorli talantli iste'dod sohiblari o'z qobiliyatlarini namoyish etmoqdalar. Insonlar ilm-fandan qanchalik bahramand bo'lsalar musiqa san'atidan ham shunchalik ozuqa oladilar. Milliy musiqa orqali insonlarda har tomonlama mukammallik, shu birga halollik, kamtarlik, eng asosiysi yaxshilik va ezgulik hukmron bo'ladi. Xalqimiz merosining noyob namunalaridan foydalanish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, targ'ib etish, xalqimiz, ayniqsa yoshlarimizda mustaqillik tuyg'usini shakllantirish- milliy an'analarimiz va urf-odatlarimiz davomiyligini, ularning umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashib borishini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ota-bobolarimizdan meros qolgan an'analarning barchasi ta'lim-tarbiyaga rivojiga qaratilgan. Ammo hozirda bola tarbiyasi qiyin muammodek, nazarimizda. Bularga milliy tarbiya tizimining izdan chiqqani, ota-onalarning loqaydsizligi, oynai jahon orqali mazmunan sayoz turli seriallarning namoyish etilishi ham sabab bo'lmoqda. Ilgari o'zbek bolalari kattami-kichikmi, ota-onasi tugul kattalar gapini ikki qilolmasdi, lekin bunday holatlar hozirda adog'iga yetgandek. Xatto ba'zi bir farzandlar orasida ota-onasini behurmatlash hamda qariyalar uyiga olib borib qo'yish hollari ham uchramoqda. SHuning uchun bunday ko'ngilsizliklarning oldini olishda keng jamoatchilik faoliyatini jadallashtirishimiz, yangi istiqbol

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

rejalar xususida bosh qotirishimiz lozim. Yoshlar ma'naviy kamol topib borib jamiyat rivoji uchun yetuk shaxs etib tarbiya topar ekan, o'zining bor imkoniyatlarini ishga solib, iste'dodini to'la namoyon etishi zarur. Zero, ma'naviyatga hurmat, uning o'ziga bo'lgan hurmatdir.

Musika mashg'ulotlarini o'tishda ma'naviy tarbiyani amalga oshirishning zamonaviy shakllari to'g'risida fikr yuritilar ekan, hususan, o'zbek qo'shiqchiligini rivojlantirish chora- tadbirlari davlat ahamiyati darajasiga yuksaldi va shu bilan birga har bir san'at mutaxassislari bunga yaqindan yondoshdilar. "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun va DTS talablarida ham milliy o'zbek qo'shiqchiligini o'rganishning yangi dastur va rejaları ishlab chiqildi

Ulug' ajdodlarimizning ulkan ma'naviy merosini o'rganish, ular qoldirgan boy merosni yosh avlod ongiga singdirish ishlari jadal suratlar bilan amalga oshirildi. Bu esa yangidan ijodiy o'zlashtirishning boshlanganligidan hamda mustaqil O'zbekistonning eng yorqin yutuqlari qatoridan joy oldi. Faxrimiz, g'ururimiz hisoblangan buyuk ajdodlarimizning ibratli hikmatlaridan biz musika madaniyati o'qituvchilari ham oqilona foydalanmoqdamiz. Buyuk mutaffakkirlarning insoniyatga qoldirib ketgan bebaho meroslari ma'naviyat va ma'ripifatga oid ta'limotlari hamisha boshimizni baland, qaddimizni tik qiladi. Kuchimizga kuch, ishonchimizga – ishonch qo'shadi. Bunday an'analar bilan bir qatorda milliy qadriyatlarimiz asosidagi turli bayramlar, tantanalar xalqimizning dam olishlari ni ko'ngilli tashkil etishga omil bo'lmoqda. Aynan, musika san'atini oladigan bo'lsak, yoshlar o'rtasidagi musiqiy festivallarning muntazam o'tkazilishi O'zbekiston degan bir mamlakatni butun jahonga tanitishga erishmoqda. jajji o'g'il-qizlar ijro etayotgan katta partiyalar xorijlik san'at ixlosmandlarini lol qoldirmoqda.

Musika darslarida milliy an'analardan foydalanish, o'quvchilarni ma'naviy-estetik tarbiyalash maqsadi va vazifalarini ijobiy xal etishda dars va mashg'ulotlarning xarakteriga mos ma'naviy muxit yaratish, barcha omillarga tayanish zarur bo'ladi. O'qituvchi ijodkorligining o'quvchilar talabiga mosligi, o'qituvchi uslubiyatidagi rang – baranglik, maktabning moddiy va ma'naviy bazasi, ko'rgazmali qurollar, o'quvchilar oilasining ma'naviy muxiti va xalq xofizlarining ijod yo'li bilan tanishib borish o'quvchilarni ma'naviy – estetik tarbiyalash uchun zarrur muxitni yaratishga bevosita xizmat qiladi. Bir so'z bilan aytganda, musika - madaniy xayotimizda keng o'rinni tutgan, inson shaxsiyatini shakllantirishda muxim ahamiyat kasb etadigan san'at turidir. Musika tarbiyasi esa, nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biridir, u atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. –
2. 3. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari / O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilarining

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. – T.: TDPU, 2004.

3. 4.Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004.
4. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 2003;
5. Tojiev Yo., Hasanova N., Tojimatov H., Yo'ldosheva O. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyati asoslari. - Toshkent, 1994;
6. Raxmatullaeva B. X. Etiketniq formq obrasheniya i privlecheniya vnimaniya v sovremennom russkom yazqke (v sopostavlenii s uzbekskim). - Avtoref. dis. kand. filol. nauk. - Toshkent, 1992;
7. Iskandarova SH. O'zbek nutq odatining muloqot shakllari. filol. fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dis. avtoref. - Samarqand, 1993.
8. Abdulla Qa'or. O'tmishdan ertaklar // Asarlar, besh jildlik, uchinchi jild. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va sanoat nashriyoti, 1988,
9. Madelin Berkli-Alen. Zabytoe iskusstvo slushat', s. 16.
10. Abdulla Qahhor hikmatlari. - Toshkent: O'zbekiston, 1990,



TALABALARNING IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Akramov X.M.

NamDU, San'atshunoslik kafedrası professori

Abdullayev M.A.

NamDU, 2 kurs PRT-AU- guruh talabasi

Annotasiya: Mazkur maqolada Talabalarning mustaqil, ijodiy fikrlash, qobiliyatini rivojlantirish Zamon talablariga javob bera oladigan, har tomonlama yetuk, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda mustaqil ta'lim alohida o'rin tutadi, chunki axborot va bilimlar doirasi jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan, mustaqil fikrlash ko'nikmasi mustaqil ijodiy ishlash jarayonida shakllanadi va mustahkamlanib borish tug'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Talabalar bilimini baholash, bilimini baholash shakllari, portfolio komponentlari, mustaqil o'qish, o'zini tarbiyalash, mustaqil ta'lim.

Annotation: This article discusses the development of students' independent, creative thinking, abilities. Independent education plays a special role in the preparation of comprehensively mature, competitive specialists who can meet the requirements of the time, because the sphere of information and knowledge is developing rapidly, and the ability to think independently is formed and strengthened in the process of independent creative work.

Keywords: Assessment of students' knowledge, forms of assessment of knowledge, portfolio components, independent learning, self-education, independent education.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: «**Agar bolalar erkin fikrlashga o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta bilim ham kerak. Ammo u o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir**».

Talabalarning mustaqil, ijodiy fikrlash, qobiliyatini rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining diqqat markazida bo'lib kelayotganligi ibratlidir.

Zamon talablariga javob bera oladigan, har tomonlama yetuk, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda mustaqil ta'lim alohida o'rin tutadi, chunki axborot va bilimlar doirasi jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan hozirgi kunda hamma ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlarida berib bo'lmaydi. Qo'yilgan muammo va vazifalar bo'yicha ma'lum yechimga kelish hamda uning optimal variantini tanlash uchun kerak bo'lgan mustaqil fikrlash ko'nikmasi mustaqil ijodiy ishlash jarayonida shakllanadi va mustahkamlanib boradi.

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

“Pedagogika fanidan izohli lug'at”da “mustaqil ta'lim” tushunchasi olingan bilim, ko'nikma va malakani mustahkamlash, qo'shimcha materialni o'rganish maqsadidagi o'quv shakli deb qaraladi. Ayni vaqtda ilmiy va o'quv adabiyotlarda “Mustaqil ta'lim olish”, “O'zini tarbiyalash”, “Mustaqil o'qish” tushunchalaridan sinonimlar sifatida foydalanilmoqda.

An'anaviy ta'lim bilan talabaning mustaqilligini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim o'rtasidagi farqni quyidagicha ko'rsatish mumkin.

An'anaviy ta'lim	Mustaqil ta'lim
Talabalar o'qituvchining ko'rsat-malarini sustlik bilan bajaradilar.	Talabalar o'qish jarayonida faol ishtirok etadilar.
O'qituvchi talabalar nima o'rga-nishi zarurligi borasida qaror qabul qiladi.	Talabalar o'zlari nima o'rga-nishlari borasida qaror qabul qiladilar.
Talabalar o'qituvchiga “qaram”, o'qish jarayonida qanday axborot man-balaridan foydalanish haqida qaror qabul qila olmaydilar.	Talabalar tadqiqot ko'nikmalari-rini rivojlantiradilar, kerakli adabiyotlarni mustaqil tanlaydi-lar va ma'lumolarni qayta ishlay-dilar.
Darsdagi mashqlar talabalarni xayotiy masalalarni yechishga tayyorla-maydi.	Talabalar nafaqat o'qish uchun, balki hayot uchun ham zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni shakllantira-dilar.
Talabalar o'qishga haqqoniy qiziqmaydilar.	Talabalarning darsga qiziqishi ortadi.

Talabalar bilimini baholash shakllari.

Baholash shakli. Ushbu shakl yordamida baholash mumkin bo'lgan bilim va ko'nikmalar:

Odatiy yozma ishlar – talaba bir nechta majburiy savollarga javob beradi va qo'shimcha bir nechta savollardan tanlash huquqi beriladi:

- ma'lumotni esda olib holish qobiliyati;
- tig'iz vaqt sharoitida ishlash qobiliyati;
- o'z fikrlarini yozma shaklda ravon ifodalash mahorati;
- ma'lumotni yozma shaklda to'g'ri tashkillashtirish va taqdim qilish mahorati;
- isbotlash mahorati;
- tez qaror qabul qilish mahorati.

Oldindan e'lon qilingan savollar yordamidagi yozma ish – savollar imtihondan bir qancha muddat avval tarqatiladi:

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

- tadqiqot ko'nikmalari;
- manbalardan foydalanish mahorati;
- tahliliy (analitik) fikrlash qobiliyati;
- ma'lumotni esda olib qolish qobiliyati;
- qisqa muddat ichida ishlash qobiliyati;
- o'z fikrlarini yozma shaklda ravon ifodalash mahorati;
- ma'lumotni yozma shaklda to'g'ri tashkillashtirish va taqdim qilish mahorati;
- isbotlash mahorati;
- tez qaror qabul qilish mahorati.

Kitoblar ochiq bo'lgan holda yozma ish – imtihon paytida darslik va boshqa materiallardan foydalanishga ruxsat beriladi.

- tig'iz vaqt sharoitida ishlash qobiliyati;
- o'z fikrlarini yozma shaklda ravon ifodalash mahorati;
- ma'lumotni yozma shaklda to'g'ri tashkillashtirish va taqdim qilish mahorati;
- isbotlash mahorati;
- tez qaror qabul qilish mahorati;
- kitob bilan ishlash ko'nikmasi.

Testlar:

- ma'lumotni esda olib qolish qobiliyati;
- tig'iz vaqt sharoitida ishlash qobiliyati;
- bilimlarni tadbiq qila olish qobiliyati;
- bilimlarni sintezlash mahorati;
- bilimlarni to'g'ri talhin qilish qobiliyati;
- tez qaror qabul qilish mahorati.

Laboratoriya hisobotlari, qaydlari:

- kuzatish ko'nikmalari;
- sinovlar o'tkazish ko'nikmalari;
- tahliliy (analitik) fikrlash qobiliyati;
- natijalarni talhin qilish va baholash mahorati.

Kuzatuv o'quv kundalik daftarini yuritish:

- yozma ma'lumotni taqdim qilish mahorati;
- ma'lumotni yozma shaklda to'g'ri tashkillashtirish va taqdim qilish mahorati;
- isbotlash mahorati;
- tashkiliy va rejalashtirish mahorat

Referatlar:

- ma'lumotni tadqiq etish, tanlash va taqdim etish ko'nikmasi;
- tanqidiy baholash;
- o'z fikrlarini yozma shaklda ravon ifodalash mahorati;
- tanqidiy muhokama qilish mahorati.

Hisobotlar:

- ma'lumotni tadqiq etish, tanlash va taqdim etish ko'nik-masi;
- tanqidiy baholash;
- o'z fikrlarini yozma shaklda ravon ifodalash mahorati;
- tanqidiy muhokama qilish mahorati;
- bilimlarni amaliyotga tadbiq eta olish qobiliyati.

Dissertatsiyalar:

- tadqiq qilish malakasi;
- tanlash ko'nikmasi;
- rejalashtirish qobiliyati;
- loyihani boshqarish mahorati;
- tanqidiy fikrlash;
- prezentatsiya qilish mahorati.

Adabiyotlar/ matbuotni sharhlash:

- adabiyotlarni (maqola va b.) tanqidiy o'rganish ko'nikmalari;
- baho berish;
- xulosalar chiqarish;
- o'z nuhtai nazarini ifodalash mahorati.

Prezentatsiyalar (yakka/guruh tartibida):

- notiqlik mahorati;
- imo-ishoralar tili;
- ko'rgazmali qurollardan foydalanish ko'nikmalari;
- ma'lumotni taqdim qilish va strukturalashtirish ko'nikmalari;
- odamlar bilan to'g'ri muomalada bo'lish mahorati;
- jamoa (komanda) da ishlash ko'nikmalari;
- ishni to'g'ri taqsimlash;

Plakatlar (yakka/guruh tartibida):

- ijodiy mahorat;
- ko'rgazmali hurollar tayyorlash mahorati;
- grafika taqdimoti ko'nikmalari;
- xulosalash ko'nikmalari;
- tanlash ko'nikmalari;

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

- fanga tegishli bilimlari;
- jamoa (komanda)da ishlash ko'nikmalari ;

Muayyan holatlar (Case studies):

- muammolarni yechish qobiliyati;
- nazariy kontseptsionalarni konkret hollarda tadbiq etish qobiliyati;
- qaror qabul qilish qobiliyati;

Og'zaki imtihonlar:

- to'g'ri va ishonchli so'zlash; talaffuz;
- fikrni qisqa muddat ichida kengaytirmoq;
- fanga tegishli bilimlar;
- odamlar bilan to'g'ri muomalada bo'lish ko'nikmalari;

Guruh loyihalari:

- rejalashtirish mahorati;
- ishni to'g'ri tashkil qilish va uni yuoshqarish qobiliyati;
- jamoa (komanda) da ishlash ko'nikmalari;
- masalalarni yechish qobiliyati;
- ijodiy mahorat;
- nazariy kontseptsionalarni konkret hollarda tadbiq etish qobiliyati;
- tahlil qila olish qobiliyati;
- hisobotlar yozish ko'nikmalari;

Portfolio:

- portfolio komponentlari va o'tgan vaqtga qarab o'zining o'sish darajasini ko'ra olish ko'nikmalari;
- vaqtni to'g'ri rejalashtirish mahorati;
- jamoa (komanda)da ishlash ko'nikmalari;

Ko'rgazmalar:

- ijodiy mahorat;
- tuzilma (struktura)ni tushunish;
- ko'rgazmali qurollardan foydalanish ko'nikmalari;
- ma'lumotni taqdim qilish va strukturalashtirish ko'nikmalari;
- odamlar bilan to'g'ri muomalada bo'lish ko'nikmalari;

Talabalar bilimni baholashning ba'zi shakllari, masalan loyihaviy topshiriq haqida avvalgi bo'limlarda ham qayd etilgan edi. Yuqorida kelti-rilgan jadvaldagi har bir baholash shakli o'ziga xos maqsadlarga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov G'. Kasb ta'limi praktikumi . O'quv qo'llanma. T.: 2012.- 260 b.

2. Akramov, K., & Mukhitdinova, J. (2020). The importance of obtaining natural dyes. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(5), 424-435.

3. Акрамов, Х. М., & Хамидов, В. С. (2017). Использование открытых on-line курсов в процессе организации самостоятельного образования студентов. (pp. 247-249).



**“C++ DASTURLASH TILI” FANIDA QIZIQARLI DARS MASHG‘ULOTINI
TASHKIL ETISH**

BOLTAYEVA MUXAYYOXON LUTFULLAYEVNA

Namangan davlat universiteti, dotsent

OTABAYEVA SEVARAXON SHAXOBBIDINOVNA

Andijon davlat universiteti, “Axborot texnologiyalari” kafedrasi o‘qituvchisi

otabayevasevara75@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada “C++ dasturlash tili” fanida qiziqarli dars mashg‘ulotlarini tashkil etishning samarali usullari va yondashuvlari tahlil qilinadi. Ushbu maqolada talabalarning dasturlashni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning ijodiy va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan samarali dars mashg‘ulotlari tashkil etishning asosiy tamoyillarini taqdim etadi. Bu yondashuvlar talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy va tajribalarni ham o‘zlashtirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: C++ dasturlash tili, dastur, gamifikatsiya, ijod, ko‘nikma, malaka, ijodiy fikrlash, mantiqiy fikrlash.

Аннотация: В статье анализируются эффективные методы и подходы для организации интересных занятий по предмету «Программирование на языке C++». В статье представлены основные принципы организации эффективных уроков, направленных на повышение интереса учащихся к изучению программирования и развитие их творческих и практических навыков. Эти подходы помогают студентам приобретать не только теоретические знания, но и практический опыт.


Ключевые слова: программирование на C++, программное обеспечение, геймификация, креативность, навыки, компетентность, творческое мышление, логическое мышление.

O‘yinli texnologiyalar – bu o‘yin va o‘yin elementlarini ta’lim jarayoniga qo‘shish orqali talabalarga o‘rgatishning innovatsion usuli. Bu texnologiyalar talabalarga o‘yin orqali bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi va ularni amaliyotda qo‘llashni o‘rgatadi. O‘yinli texnologiyalarning asosiy maqsadi

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

talabalarni ta'lim jarayoniga jalb qilish va ular uchun yanada qiziqarli, samarali o'rgatish usullarini taklif qilishdir.

O'yinli texnologiyalarni afzalliklari quyidagilar:



Motivatsiya-ta'lim jarayonida motivatsiya talabaning o'qish, o'rganish va bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi. Motivatsiya talabalarga o'z maqsadlariga erishish, qiyinchiliklarga qarshi kurashish va doimiy ravishda o'zlarini takomillashtirish uchun zarurdir.

Qiziqish-bu motivatsiyaning muhim tarkibiy qismi bo'lib, talabalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi va ularda faoliyatga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytiradi.

Rivojlanish-o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchining ortishi, kreativ fikrlash, tanqidiy tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

Hamkorlikda ishlash -Ko'plab o'yinlar guruhda o'ynashni talab qiladi, bu esa talabalarni hamkorlikda ishlashga va guruhda fikr almashishga o'rgatadi.

Interaktiv o'qitish-o'yinli texnologiyalar o'qitish jarayonini ko'proq interaktiv va qiziqarli qilishga imkon beradi. Bu esa talabalarga passiv emas, balki faol o'rganishga yordam beradi.

C++ dasturlash tili dars jarayonida o'yinli texnologiyalarni qanday qo'llash mumkin. Biz dasturlash tili fanlarida quyidagi o'yinlardan foydalanganmiz.

Anagramma

Sharada

Rebus

Bingo

So'zni top

So 'zni top va h.k.

Shulardan bittasini yoritib bermoqchimiz. "Xatoni top" o'yini quyidagi o'yinda c++ dasturlash tilida yozilgan xatolarni topadilar.

```
#include <iostream>
using namespace std;
int main() {
    Int a, b;
    count << "Birinci sonni kiriting: ";
    cin << a;
    count >> "Ikkinchi sonni kiriting: ";
    cin >> b;
    yigindi = a + b
    cout << "Sonlar yig'indisi: " << yig'indi << endl;
    return O;
}
```

Talabalar dasturlash tilidagi xatolarni aniqlash va tuzatish orqali o'zlarining kodlash malakalarini yaxshilaydilar. Xatolarni topish va ularga tahlil berish muammoni hal qilishning yaxshi usulini o'rganishga yordam beradi. Dasturdagi xatolarni aniqlash diqqatni va tahliliy fikrlashni rivojlantiradi. Xatolarni topish orqali talabalar o'z kodlarini samaraliroq va to'g'ri yozish bo'yicha tajriba orttiradilar. Umuman olganda, "xatoni top" o'yini talabalarni dasturlash va muammoni hal qilish bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltiradi.

Foydalanilgan adaabiyotlar ro'yxati.

1. Papert, S. (1980). *Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas*. Basic Books.
2. Shaxobdinovna, O. S. (2024). Matematika va informatika fanini o'qitishda "interaktiv o'yin"lardan foydalanish. *pedagog*, 7(3), 294-296.
3. Ahmadaliyev, b. B., & Eraliyev, h. M. (2024). Importance of student image recognition program in learning management. *International journal of education, social science & humanities*, 12(4), 1325-1328.
4. Shaxobidinovna, O. S. (2024). "Algoritm ijrochisi" mavzusi uchun qiziqarli dars mashg'ulotini tashkil etish. *american journal of multidisciplinary bulletin*, 2(5), 38-41.



ISHLAB CHIQUARISHDA MIKRO IQLIM SHAROITLARI AHAMIYATI

Nabiyev Akramjon Botirjonovich

NamDU San'atshunoslik kafedrası dotsenti (PhD)

Isroilova Muxlisa Oybek qizi

NamDU Hayot faoliyati xavfsizligi ta'lim yo'nalishi II-bosqich talabasi

muxlisaaisroilovaoybekqizi1575@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada ishlab chiqarish muhitida mikroiklim sharoitlarining ahamiyati, uning ishchi salomatligi, mehnat unumdorligi va xavfsizlik darajasiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, sanoat korxonalarida mikroiklimni me'yorlashtirish usullari va sanitariya-gigiyena talablari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Mikroiklim, ishlab chiqarish muhiti, harorat, namlik, havo harakati, sog'liqni saqlash, mehnat muhofazasi.

Annotation: This article analyzes the importance of microclimate conditions in the production environment and their impact on workers' health, labor productivity, and safety levels. It also examines methods of regulating the microclimate in industrial enterprises and the related sanitary and hygienic requirements.

Keywords: Microclimate, production environment, temperature, humidity, air movement, health protection, labor safety.

Inson salomatligi va mehnat faoliyati uchun qulay sharoitlarni yaratish har qanday ishlab chiqarish jarayonining muhim omillaridan biridir. Ishchilar faoliyat olib boradigan muhit – ya'ni mikroiklim sharoitlari – ularning jismoniy va ruhiy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mikroiklim – bu ish joyida havo harorati, namligi, harakati, yorug'lik va ba'zan tovush darajasi kabi omillarning yig'indisidir. Ushbu omillar mehnat samaradorligiga, ishchilarning kasbiy kasalliklariga chalinish xavfiga va umuman ishlab chiqarish xavfsizligiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Mikroiklim sharoitlarining nazorat qilinishi O'zbekiston Respublikasining bir qator normativ hujjatlari, xususan Mehnat kodeksi, "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun va SanPiN me'yorlariga asoslangan. Ishlab chiqarish jarayonida mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilinmasligi salbiy oqibatlarga olib keladi, jumladan: mehnatga layoqatsizlik, ishlab chiqarish jarayonining sekinlashuvi, jarohatlar sonining ortishi.

Mikroiklim quyidagi asosiy omillarni o'z ichiga oladi:

1. Havo harorati – mehnat jarayonida insonning tana harorati bilan tashqi muhit o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi omil. Optimal harorat 18–24°C oralig'ida bo'lishi kerak (SanPiN me'yorlariga ko'ra).

2. Nisbiy namlik – 40–60% oralig'i optimal sanaladi. Juda quruq yoki nam havo nafas olish jarayonini qiyinlashtiradi va allergik reaksiyalarni keltirib chiqaradi.

3. Havo harakati (tezligi) – havoning harakati 0.1–0.5 m/s bo'lishi tavsiya etiladi. Harakatlanuvchi havo issiqlik almashinuvini tartibga soladi.

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

4. Issiqlik nurlanishi – sanoat korxonalarida ayniqsa metallurgiya va kimyo sanoatida yuqori darajadagi issiqlik chiqishi kuzatiladi.

Ishlab chiqarishdagi mikroiklim sharoitlarining salomatlikka ta'siri. Tadqiqotlarga ko'ra, mikroiklim sharoitlarining me'yordan chetlanishi quyidagi holatlarga olib keladi:

- Tez charchash, loqaydlik, diqqatning pasayishi
- Yurak-qon tomir tizimi va nafas olish tizimiga yuklama
- Termoregulyatsiya buzilishi (issiqlik urishi yoki sovuq urishi)
- Mehnat samaradorligining 20-30% gacha pasayishi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan 2022-yilda o'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra, mikroiklim sharoitlari yomon bo'lgan korxonalarda mehnatga layoqatsizlik holatlari 1.8 barobar ko'p aniqlangan.

Mikroiklimni me'yorlashtirish va texnik vositalar. Mikroiklimni optimal darajada ushlab turish uchun quyidagi texnik vositalar va chora-tadbirlar qo'llaniladi:

- ✧ Shamollatish tizimlari (ventilyatsiya)
- ✧ Konditsionerlar va isitish tizimlari
- ✧ Namlagichlar va havo tozalagichlar
- ✧ Sanoat texnologiyalarida avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari.

Shuningdek, ISO 7730 xalqaro standarti asosida mikroiklim holatini baholashda PMV (Predicted Mean Vote) va PPD (Predicted Percentage of Dissatisfied) ko'rsatkichlari qo'llaniladi.

Ishlab chiqarish jarayonida mikroiklim sharoitlarining to'g'ri tashkil etilishi mehnat samaradorligini oshirish, ishchilarning sog'lig'ini saqlash va ishlab chiqarishdagi xavfsizlik darajasini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Harorat, namlik, havo harakati va boshqa iqlimiy ko'rsatkichlar ishchi faoliyatiga bevosita ta'sir qiladi. Ular me'yoriy chegaralardan chetga chiqsa, bu holat ishchilarning charchashi, kasbiy kasalliklarning rivojlanishi, mehnatga layoqatsizlikning ortishi, hatto baxtsiz hodisalarning ko'payishiga olib kelishi mumkin.

Shu bois ishlab chiqarish korxonalarida zamonaviy ventilyatsiya va iqlimni boshqaruvchi texnologiyalarni joriy etish, muntazam ravishda mikroiklim monitoringini olib borish, ish joylarida sanitariya-gigiyena talablari va mehnat muhofazasi me'yorlariga qat'iy amal qilish zarur. Bu nafaqat inson salomatligi, balki butun ishlab chiqarish tizimining barqarorligi va iqtisodiy samaradorligi uchun ham muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, xususan "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun va SanPiN me'yorlari bu yo'nalishda aniq talablar va standartlarni belgilab bergan. Korxonalar ushbu me'yorlarga amal qilgan holda, nafaqat qonuniy talablarni bajargan bo'ladi, balki o'z mehnatkashlarining salomatligini asrash, ularning ishga bo'lgan munosabatini yaxshilash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

Shuningdek, ilm-fan va texnologiyalarning rivojlanishi natijasida mikroiklimni avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida nazorat qilish imkoniyati mavjud. Bu esa inson omilidan mustaqil ravishda aniq va samarali boshqaruvni ta'minlaydi. Shu bois kelajakda sanoat korxonalarida mikroiklim sharoitlarini tahlil qilish, nazorat qilish va takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy ishlarni kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqarishda mikroiklim sharoitlariga e'tibor qaratish – bu nafaqat mehnat muhofazasining bir bo'lagi, balki umumiy sog'lom va barqaror ishlab chiqarish muhitining kafolatidir. Mikroiklim sharoitlari ishlab chiqarishning ajralmas qismi hisoblanadi. U ishchilarning salomatligi, mehnat unumdorligi va xavfsiz ish sharoitlarini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Har bir sanoat korxonasi zamonaviy texnologiyalar yordamida mikroiklimni nazorat qilishi va qonunlarda belgilangan gigiyena me'yorlariga amal qilishi zarur. Bu nafaqat mehnat samaradorligini oshiradi, balki inson salomatligini muhofaza qilishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi – Toshkent: "Adolat" nashriyoti, 2022.
3. "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni – 2016-yil 22-sentabr, Oliy Majlis qarori.
4. Yo'ldoshev B., Karimova D. "Mehnat huquqi asoslari" – Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2021.
5. Matyoqubov U., Qodirov B. "Mehnat gigiyenasi va xavfsizlik muammolari" – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2021.
6. Hasanov R., Xolmatov N. "Ishlab chiqarishda ekologik xavfsizlik va mikroiklim" – Samarqand: "Zarafshon", 2020.
7. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. "Mehnat gigiyenasi va sanitariya normalari" – Toshkent: "O'qituvchi", 2019.
8. Muxamedov D. "Ishlab chiqarish binolarida ventilyatsiya va mikroiklimni boshqarish" – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2022.
9. ISO 9241-6: "Ergonomika va ish joyida optimal mikroiklim yaratish standartlari" – Xalqaro Standartlashtirish Tashkiloti, 2021.

UO'K: 614.4

**LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI MOBAYNIDA
TALABALAR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

A.A. Egamberdiyev

Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD

egamberdiyevazizbek206@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalar sabablari, ularning salbiy oqibatlari va oldini olish chora-tadbirlari muhokama qilinadi. Shuningdek, laboratoriya mashg'ulotlari mobaynida talabalar xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Baxtsiz hodisa, jarohatlanish, xavf, xavfsizlik, laboratoriya mashg'ulotlari, laborant.

Abstract. This article discusses the possible causes of accidents that may occur among students of higher education institutions, their negative consequences, and preventive measures. It also provides practical recommendations for improving the system of ensuring student safety during laboratory sessions.

Key words. Accident, injury, risk, safety, laboratory sessions, laboratory assistant.

Kirish. Oliy ta'lim muassasalari talabalari nafaqat akademik bilimlarni o'rganish, balki ilmiy va amaliy faoliyatlarni ham amalga oshiradilar. Ayniqsa, laboratoriya mashg'ulotlari, talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Lekin, laboratoriya mashg'ulotlari davomida talabalar turli xil xavf-xatarlar bilan yuzlashish ehtimoli mavjud. Jumladan, kimyoviy moddalar, yuqori kuchlanishli elektr qurilmalari, laboratoriya jihozlari va boshqa tajriba jarayonlarida yuzaga keladigan baxtsiz hodisalar talabalarning hayoti, sog'ligi va xavfsizligiga tahdid solishi mumkin. Shu sababli ham, laboratoriya mashg'ulotlarida talabalar xavfsizligini ta'minlash har bir oliy ta'lim muassasasi uchun ustuvor vazifalardan biridir.

Bunday baxtsiz hodisalarni oldini olish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish, faqatgina muassasa ichidagi xavfsizlik me'yorlarini yangilash emas, balki umumiy xavfsizlik madaniyatini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Har bir talabaga, laboratoriyada ishlash jarayonida qanday xavflardan ehtiyot bo'lish, nima qilish kerakligi va shoshilinch vaziyatlarda qanday harakat

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

qilish zarurligi to'g'risida aniq bilimlar berilishi lozim. Bu esa o'z navbatida, nafaqat baxtsiz hodisalarni kamaytirishga, balki talabalar orasida xavfsizlik bo'yicha ongli munosabatni shakllantirishga ham yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili. Wiegand (2018) tomonidan olib borilgan tadqiqotda laboratoriya mashg'ulotlarida xavfsizlikni ta'minlash uchun talabalar va o'qituvchilar o'rtasida xavfsizlik madaniyatini rivojlantirishning ahamiyati ko'rsatilgan. Tadqiqotda, xavfsizlikka oid yondashuvlarni yaxshilash uchun laboratoriya mashg'ulotlari boshida xavfsizlik protokollarini o'rgatish zarurligi ta'kidlanadi. Smith va Jones (2015) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda, kimyoviy moddalar bilan ishlashda yuzaga keladigan xavflar va bu xavflarni oldini olish uchun laboratoriyada maxsus xavfsizlik vositalarining mavjudligi zarurligi ko'rsatilgan. Elektr xavfsizligi bo'yicha tadqiqotlar ham keng tarqalgan. Johnson va Roberts (2017) laboratoriya mashg'ulotlarida elektr jihozlaridan foydalanishning xavf-xatarlarini va bu xavf-xatarlarni kamaytirish uchun texnik xizmat ko'rsatishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Elektr xavfsizligi bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar laboratoriyalarda ehtiyotkorlik va muvofiqlikning yuqori darajada bo'lishini talab qiladi. Taylor (2016) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, laboratoriya mashg'ulotlarida talabalar uchun himoya vositalarining taqdim etilishi va bu vositalar bilan ishlash qoidalari o'rgatilishi zarurligi ta'kidlanadi. Tadqiqotda laboratoriya xavfsizligini ta'minlashda eng yaxshi yondashuv sifatida himoya vositalarini ishlab chiqish va talabalar bilan bu vositalarning qanday ishlatilishini doimiy ravishda mashq qilish tavsiya etiladi. Roberts (2019) o'zining ishida, talabalarning xavfsizlikni ta'minlashda taqdim etiladigan himoya vositalarining samaradorligi haqidagi fikrlarini taqdim etgan. U o'z tadqiqotida, himoya vositalarining etishmasligi yoki noto'g'ri ishlatilishi ko'plab baxtsiz hodisalarga sabab bo'lishini ko'rsatgan. Bu, ayniqsa, kimyo va biologiya laboratoriyalarida ko'plab jarohatlar va zararlar olib kelishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot mobaynida adabiyotlarni tahlil qilish, so'rovnoma o'tkazish, tahliliy metod, eksperimental metod, kompyuter simulyatsiyasi va modellash metodlaridan foydalanildi.

Muhokama va natijalar. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2010-yil 23-dekabrdagi 202-B-son buyrug'iga binoan "Ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilar va talabalar bilan yuz bergan baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish tartibi to'g'risida" gi Nizom ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur Nizom ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilar va talabalar bilan yuz bergan baxtsiz hodisalarni

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

tekshirish va hisobga olish tartibini belgilaydi hamda oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun taalluqlidir.

Nizomga muvofiq, quyidagi baxtsiz hodisalar maxsus tekshiriladi:

- 1) bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq ta'lim oluvchilar bilan yuz bergan guruhiiy baxtsiz hodisalar;
- 2) o'lim bilan tugagan baxtsiz hodisalar;
- 3) oqibati og'ir baxtsiz hodisalar.

Baxtsiz hodisa natijasida ta'lim oluvchilarning sog'lig'iga yetkazilgan zararning og'irlik darajasi to'g'risidagi xulosa davolash-profilaktika muassasasi tomonidan beriladi.

Tadqiqot mobaynida oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida, jumladan laboratoriya mashg'ulotlari mobaynida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalar sabablari va ularning salbiy oqibatlari tahlil qilindi hamda ularni oldini olish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Laboratoriya mashg'ulotlari mobaynida talabalar xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari:

- laboratoriya mashg'uloti uchun tutgan daftarlaringizga mashg'ulotning mavzusi, ishning maqsadi, ishni bajarish tartibi va ishning qisqacha mazmunini to'liq va aniq yozishga odat qiling;
- o'qituvchi yoki laborant tomonidan xavfsiz ishlash qoidalari tushuntirilgandan so'ng guruhingiz, familiyangiz va ismingizni qayd etish jurnaliga yozib imzo qo'ying;
- laboratoriya mashg'uloti boshlanishdan avval qo'l telefoningiz o'chirilganini tekshiring. Baxtsiz hodisalarni oldini oling va xavfli vaziyatlarni oldindan ko'ra biling;
- o'qituvchi yoki laborant ruxsatisiz ishni boshlamang;
- ishni bajarish vaqtida tinchlik, ozodalik va tartibni saqlang hamda ishni ustki kiyimlar kiygan holda bajarmang;
- har biringiz shu ishni bajarish uchun ajratilgan joyda o'tiring. Xona bo'ylab yurish, boshqa ishlar bilan shug'ullanish ma'n etiladi;
- ish stollarini portfel, sumka va boshqa jihozlardan holi saqlang;
- laboratoriya xonasida chekish va ochiq olovdan foydalanish ta'qiqlanadi;
- ish boshlashdan avval yoki bajarish vaqtida asboblarning zarracha shikastlanganligini va ixotasi buzilganligini payqab qolsangiz, darhol o'qituvchi yoki laborantga xabar qiling;

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

- mabodo biror uchqun yoki yong'in chiqqanini ko'rsangiz, sarosima va vahimaga tushmasdan, o'qituvchi yoki laborantni ogohlantirib, birlamchi o't o'chirish vositalari yordamida yong'inni o'chirish choralari ko'ring.

Xulosa. Tadqiqot ishi mobaynida mavzuga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, soha bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini o'rganib chiqdim, shuningdek laboratoriya mashg'ulotlarida talabalar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha milliy va xorijiy tajribalarni o'zaro solishtirma tahlil qilgan holda quyidagi xulosaga keldim. Laboratoriya mashg'ulotlari talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan boyitishda muhim o'rin tutadi, ammo bu jarayon, ayniqsa, xavfli moddalardan yoki murakkab texnik qurilmalardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan hollarda, baxtsiz hodisalarga olib kelishi mumkin.

Talabalar xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oldi:

Talabalarning xavfsizligini ta'minlashga oid quyidagi asosiy tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. *Bilim va ko'nikmalarni oshirish.* Talabalarga texnik xavfsizlikning ahamiyati haqida doimiy ravishda ma'lumot berib borish lozim. Yangi laboratoriya jihozlari joriy etilganida, mashg'ulotlar mobaynida baxtsiz hodisalar yuzaga kelgann taqdirda ularni xavfsiz ishlatish bo'yicha maxsus yo'riqnomalar o'tkazilishi zarur.

2. *Zarur xavfsizlik jihozlarini taqdim etish.* Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mobaynida talabalar uchun zaruriy xavfsizlik jihozlari, jumladan, himoya ko'zoynaklari, quloqni himoya qiluvchi vositalar, maxsus kiyimlar taqdim etilishi lozim.

3. *Texnik vositalarning muntazam tekshiruvi.* Laboratoriya jihozlari va asbob-uskunalarining ishlash holati muntazam ravishda tekshirilishi lozim. Shuningdek, elektr quvvatiga bo'lgan ehtiyotkorlik ham zarur. Elektr tarmog'i yoki boshqa texnik vositalarda muammo bo'lsa, ularga ishlashga ruxsat berishdan oldin ta'mirlash ishlari amalga oshirilishi kerak.

4. *Laboratoriya va amaliyot maydonlarini xavfsiz holatda saqlash.* Talabalar uchun laboratoriya va amaliyot maydonlarida xavfsizlikni ta'minlash uchun tartibni o'rnatish, uskunalar va materiallarning xavfsiz saqlanishini ta'minlash kerak. Shuningdek, xavfsizlikni oshirish uchun maydonlarda yong'inga qarshi vositalar va favqulodda vaziyatlar uchun zarur uskunalar mavjud bo'lishi lozim.

Bundan tashqari, baxtsiz hodisalarning statistik tahlili va amaliy holatlar asosida xavfsizlikni ta'minlashning samarali tizimlarini joriy etish bo'yicha takliflar berildi. Mavjud xavfsizlik tizimlarining samaradorligini baholash va ularni doimiy

ravishda takomillashtirish, talabalar xavfsizligini ta'minlashda zarurdir. Shuningdek, laboratoriya mashg'ulotlari davomida yuzaga kelgan baxtsiz hodisalar va ularga olib kelgan omillarni o'rganish va tahlil qilish talabalar xavfsizligini yanada yaxshilashga imkon beradi. Xulosa qilib aytganda, talabalar xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish faqatgina ilmiy faoliyatning samarali tashkil etilishi emas, balki butun bir xavfsizlik madaniyatining shakllanishini talab etadi. Bunda, oliy ta'lim muassasalarining rahbariyati, pedagogik xodimlar va talabalarning o'zlari hammasi birgalikda faol ishtirok etishi lozim. Talabalar xavfsizligini ta'minlashga doir qo'yilgan barcha chora-tadbirlar, nafaqat baxtsiz hodisalarni oldini olish, balki ta'lim sifatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni, yangi tahriri. 2022-yil 17-avgust
2. S.M. Isamov. Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi. Darslik. -Andijon: "Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti", 2022. – 270 b.
3. O.R. Yuldashev, Sh.G. Jabborova. Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik. -T: "Barkamol fayz media", 2018 y. – 208 b.
4. Sh.A.Mutalov, T.T.Tursunov, M.M. Niyazova, K.M. Adilova, B.Z. Zaynitdinova, A.A. Maksudova. Sanoat ekologiyasi (Atrof muhit muhofazasi). Darslik. «O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi» nashriyot-matbaa birlashmasi. 2020 - y. - 360 b.
5. Turobjonov S.M., Niyazova M.M.,Tursunov T.T., Po'latov X.L. Sanoat chiqindilarni rekuperatsiya qilish texnologiyasi. Darslik - T.: "Faylasuflar jamiyati nashriyoti", 2011-y. - 180 b.

**Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish fanini o'qitishda pedagogik
texnologiyalarning o'rni**

Boltayeva Muhayyo Lutfullayevna

Namangan davlat universiteti dotsenti

Zohidjonov Oqilmirzo Obidjon o'g'li

Mustaqil tadqiqotchi

oqilmirzozohidjonov@gmail.com ,

Annotatsiya: Mazkur maqolada avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha o'quvchilarni tayyorlashda pedagogik metodikaning o'rni, an'anaviy va zamonaviy o'qitish yondashuvlari muhokama qilinadi. Texnik ta'lim tizimida interaktiv, proyektga asoslangan, masofaviy hamda problemaga asoslangan ta'lim uslublari orqali o'quvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni o'rgatishda simulyatsiya, virtual laboratoriyalar, master-klasslar va amaliy mashg'ulotlarning ahamiyati yoritilgan. Maqola texnik xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarni takomillashtirishga oid tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Texnik ta'lim, pedagogik metodika, avtomobillarga texnik xizmat, interaktiv ta'lim, masofaviy ta'lim, simulyatsiya, innovatsion metodlar, amaliy ko'nikmalar, proyektga asoslangan ta'lim, problemaga asoslangan ta'lim (PBL)

Kirish: Avtomobillarni texnik xizmat qilish jarayonida pedagogik metodika, ayniqsa, texnik ta'lim tizimida o'quvchilarni tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarini samarali o'rgatish uchun an'anaviy o'qitish usullari bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik yondashuvlar ham qo'llaniladi. Bu yondashuvlar o'quvchilarga avtomobillarning texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarini samarali tushunish va amaliyotda qo'llay olish imkoniyatini beradi.

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

Tadqiqot metodologiyasi: Pedagogik metodika avtomobillarni texnik xizmat qilishda o'quvchilarga zarur bilimlar, ko'nikmalar va amaliy tajribalarni o'rgatishda muhim rol o'ynaydi. U quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

Bilimlarni tizimli shaklda taqdim etish: Pedagogik metodika yordamida o'quvchilarga avtomobillarni tekshirish, diagnostika qilish, ta'mir qilish va xizmat ko'rsatishning asosiy prinsiplari tizimli ravishda o'rgatiladi.

Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish: O'quvchilarga texnik xizmatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni o'rgatish muhimdir. Masalan, dvigatelni tekshirish, tormoz tizimlarini diagnostika qilish yoki batareya tizimlarini sozlash kabi amaliyotlar.

Kreativ yondashuvni rivojlantirish: Texnik xizmat ko'rsatish sohasidagi innovatsiyalarni o'rgatishda o'quvchilarni yangi texnologiyalar va metodlar bilan tanishtirish, ularni yaratishda va qo'llashda ijodiy yondashuvni rivojlantirish kerak.

Natijalar va ularning tahlili. Talabalarni texnik xizmatlarga tayyorlashda yangi yondashuvlar. Texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha talabalarni tayyorlashda yangi pedagogik yondashuvlar va metodlar qo'llanilishi kerak. Bu yondashuvlar o'quvchilarga zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni o'rgatishda samarali bo'ladi:

Interaktiv ta'lim: O'quvchilarga avtomobillarni texnik xizmat ko'rsatishda interaktiv metodlar yordamida ko'proq amaliyot qilish imkoniyatini yaratish zarur. Masalan, simulyatorlar, laboratoriyalar yoki real hayotdagi mashinalarda ishlash imkoniyatlari orqali o'quvchilarga amaliy mashqlar berish.

Proyektga asoslangan ta'lim: Talabalar real hayotdagi muammolarni hal qilishga qaratilgan loyihalar ustida ishlash orqali avtomobil texnik xizmatlarini o'rganishadi. Bu yondashuv o'quvchilarga muammolarni hal qilishda kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Masofaviy ta'lim: Bugungi kunda masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, ayniqsa, internet va onlayn platformalar orqali talabalar uchun onlayn

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

kurslar va video darsliklar taqdim etish samarali bo'lishi mumkin. Bu o'quvchilarga o'z vaqtida va o'ziga mos ravishda ta'lim olish imkoniyatini beradi.

Innovatsiyalarni o'rgatishda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

Simulyatsiya va virtual ta'lim: Innovatsion texnologiyalarni o'rgatishda simulyatsiya tizimlari, virtual laboratoriyalar va o'yinlarga asoslangan ta'lim metodlari samarali bo'lishi mumkin. Masalan, avtomobilni virtual ravishda diagnostika qilish, nosozliklarni aniqlash va ularni hal qilishni o'rgatish.

Amaliyotlar va tajribalar: O'quvchilarga texnik xizmat ko'rsatishda innovatsion usullarni amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratish zarur. Yangi texnologiyalar va avtomobil tizimlarini ishlatishda amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarga konkret tajriba berish muhimdir.

Master-klasslar va seminarlar: Avtomobil sanoatidagi yangiliklar va innovatsiyalarni o'rgatishda mutaxassislar va tajribali ustalar tomonidan o'qitiladigan master-klasslar va seminarlar samarali bo'lishi mumkin. Bu seminarlar o'quvchilarga amaliy bilimlarni olishda yordam beradi.

Problemaga asoslangan ta'lim (PBL): O'quvchilarga avtomobillarni texnik xizmat ko'rsatishdagi real hayotdagi muammolarni hal qilish vazifalarini berish, ularni innovatsion usullar bilan yechimlar topishga undaydi.

Xulosa: Pedagogik metodika avtomobillarni texnik xizmat qilishda talabalarni tayyorlashda katta rol o'ynaydi. Yangi yondashuvlar va metodlar, masalan, interaktiv ta'lim, simulyatsiyalar, amaliyotlar va masofaviy ta'lim, o'quvchilarga zamonaviy texnologiyalarni o'rgatishda samarali bo'ladi. Innovatsiyalarni o'rgatish uchun esa simulyatsiya, master-klasslar va problemaga asoslangan ta'lim metodlari qo'llanilishi mumkin. Bu metodlar o'quvchilarga texnik xizmatlarni yanada samarali va ilg'or usullar bilan amalga oshirishni o'rgatadi.

Foydalingan adabiyotlar:

1. Azizxo'jayev A.A. "Kasb-hunar ta'limi pedagogikasi", Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Norqulov B.T. "Texnik xizmat ko'rsatish asoslari", Toshkent: Texnika, 2020.
3. Zunnunov B. va boshqalar. "Avtomobil ta'miri va texnik xizmat ko'rsatish", Toshkent: "Fan va texnologiya", 2021.
4. Jonbekov I., Abdurahmonov A. "Kasbiy ta'lim metodikasi", Toshkent: Ilm Ziyo, 2018.
5. Salov A.V. "Innovatsion pedagogik texnologiyalar", Moskva: Akademiya, 2017.
6. Kolosov V.P. "Podgotovka kadrov dlya avtomobil'noy otrasli: pedagogicheskiy aspekt", Sankt-Peterburg: Politehnika, 2016.
7. UNESCO. "Technical and Vocational Education and Training (TVET) and Skills Development." [Online report], 2022.
8. OECD. "Innovative Teaching for Effective Learning", OECD Publishing, 2021.

**PROFESSIONAL TA'LIM JARAYONLARIDA MIKRO IQLIM
SHAROITLARI BO'YICHA O'QITISH TIZIMINI TASHKIL ETISH**

Nabiyev Akramjon Botirjonovich¹,

**¹Namangan davlat universiteti San'atshunoslik kafedrası dotsenti,
Sharipov Abdulvahob Muhibjon o'g'li²**

²Namangan davlat universiteti

Hayot faoliyati xavfsizligi yo'nalishi talabasi,

Annotatsiya: Ushbu maqolada ishlab chiqarish jarayonida mikroiklim sharoitlarining ahamiyati tahlil qilinadi. Mikro iqlimning asosiy omillari – harorat, namlik, havo tezligi va bosim – ishchilarning samaradorligi, mahsulot sifati hamda texnologik jarayonlarning barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Optimal mikroiklim sharoitlari inson salomatligini saqlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va energiya tejamkorligini ta'minlashga yordam beradi. Shuningdek, maqolada mikroiklimni boshqarish usullari, jumladan, ventilyatsiya tizimlari, maxsus himoya vositalari va muvofiq texnologik yechimlar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Mikroiklim, ishlab chiqarish, harorat, namlik, havo tezligi, bosim, ishchilar salomatligi, mahsulot sifati, texnologik jarayonlar, ventilyatsiya, energiya samaradorligi, konditsioner tizimi, shamollatish, korroziya, himoya vositalari.

Annotation: This article analyzes the importance of microclimate conditions in the production process. The main factors of microclimate - temperature, humidity, air velocity and pressure - directly affect the efficiency of workers, product quality and the stability of technological processes. Optimal microclimate conditions help to maintain human health, increase production efficiency and ensure energy efficiency. The article also discusses methods of microclimate control, including ventilation systems, special protective equipment and appropriate technological solutions.

Key words: Microclimate, production, temperature, humidity, air velocity, pressure, worker health, product quality, technological processes, ventilation, energy efficiency, air conditioning system, ventilation, corrosion, protective equipment.

Kirish: Zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarida samaradorlik va mahsulot sifati nafaqat texnologik jihozlar, balki ish muhitining qulayligiga ham bog'liq. Ish joylarida mikroiklim sharoitlari – harorat, namlik, havo tezligi va bosim – ishchilarning mehnat unumdorligi va salomatligiga bevosita ta'sir qiladi. Noqulay mikroiklim ishchilarning charchashi, kasalliklarning ko'payishi va ishlab chiqarish jarayonlarining izdan chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli, optimal mikroiklimni ta'minlash ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va energiya tejamkorligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada ishlab chiqarishda mikroiklim sharoitlarining ahamiyati, uning asosiy omillari hamda uni boshqarish usullari tahlil qilinadi.

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

Ishlab chiqarishda mikroiklim sharoitlarining ahamiyati. Mikroiklim – bu ishlab chiqarish muhitidagi fizikaviy omillar majmuasi bo'lib, u ishchilarning sog'lig'iga va mehnat samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Uning asosiy tarkibiy qismlari harorat, namlik, havo tezligi va bosim hisoblanadi. Harorat ish muhitining issiqlik darajasini belgilaydi va haddan tashqari issiqlik yoki sovuqlik inson organizmiga zarar yetkazishi mumkin. Namlik havo tarkibidagi suv bug'lari miqdorini bildiradi. Ortiqcha namlik yoki haddan tashqari quruqlik ish sharoitlarini og'irlashtiradi. Havo tezligi ishlab chiqarish binosidagi shamollatish darajasini ifodalaydi. Yetarlicha shamollatish bo'lmasa, zararli gazlar to'planib, ishchilarning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bosim esa ishlab chiqarish muhitidagi atmosfera bosimini bildiradi va ayrim sanoat sohalarida uning o'zgarishi inson salomatligiga ta'sir etishi mumkin. Mikroiklim sharoitlari ishchilarning mehnat samaradorligi, sog'lig'i va texnologik jarayonlarning sifatiga ta'sir qiladi. Optimal sharoitlar mehnat unumdorligini oshiradi, noqulay sharoitlar esa kasallik va charchoqni kuchaytiradi. Ishlab chiqarish samaradorligi bevosita mikroiklim bilan bog'liq bo'lib, qulay ish sharoitlarida ishchilar faolroq va aniqroq ishlaydi, nosozliklar kamroq uchraydi. Bundan tashqari, mahsulot sifati ham mikroiklimga bog'liq. Masalan, elektronika, farmatsevtika va oziq-ovqat ishlab chiqarishda harorat va namlik qat'iy nazorat qilinishi kerak. Mikro iqlim texnologik jarayonlarning barqarorligiga ham ta'sir qiladi. Haddan tashqari issiqlik yoki namlik ishlab chiqarish uskunalarning tez eskirishiga yoki noto'g'ri ishlashiga sabab bo'lishi mumkin. Mikroiklimni nazorat qilish va yaxshilash uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak. Ishlab chiqarish binolarida ventilyatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish, tabiiy va sun'iy shamollatish tizimlaridan foydalanish muhimdir. Optimal haroratni saqlash uchun konditsioner va isitish tizimlarini o'rnatish lozim. Namlik darajasini tartibga solish uchun esa havoni namlantiruvchi yoki qurituvchi qurilmalardan foydalanish mumkin. Bundan tashqari, ishchilarni maxsus himoya vositalari, jumladan, maxsus kiyim-kechak va niqoblar bilan ta'minlash orqali ularning sog'lig'ini saqlash mumkin. Ishlab chiqarishda mikroiklim sharoitlarini nazorat qilish ishchilarning sog'lom va samarali ishlashiga, mahsulot sifatining yuqori bo'lishiga hamda energiya samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun har bir ishlab chiqarish korxonasi ushbu omillarga e'tibor qaratishi va qulay ish muhitini yaratishi zarur.

Ishlab chiqarishda mikroiklim omillarining mehnat unumdorligiga ta'siri. Ishlab chiqarish jarayonlarida mikroiklim omillari ishchilarning mehnat unumdorligiga bevosita ta'sir qiladi. Mikro iqlim tushunchasi ishlab chiqarish sexlari va binolarida harorat, namlik, havo tezligi, bosim va havoning kimyoviy tarkibi kabi omillarni o'z ichiga oladi. Ushbu omillar ishchilarning umumiy jismoniy holati, charchash darajasi, kasallanish ehtimoli va mehnat samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Optimal harorat ishchilar faoliyatining uzluksiz va samarali davom etishini ta'minlaydi. Juda issiq yoki sovuq muhitda ishlash inson organizmida ortiqcha yuklanishga olib keladi, bu esa ish sifatini

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

pasaytiradi. Misol uchun, 18-22°C oralig'idagi harorat eng qulay mehnat sharoitini ta'minlaydi. Namlik darajasi ham muhim ahamiyatga ega. Juda past namlik havo quruqligiga sabab bo'lib, nafas olish tizimiga salbiy ta'sir qiladi, yuqori namlik esa issiqlik almashinuv jarayonini buzadi va ishchilarda charchoqni oshiradi.

Havo tezligi va shamollatish tizimlari yetarlicha tartibga solinmagan bo'lsa, zararli gazlar va chang zarralari yig'ilib, ishchilarning salomatligiga zarar yetkazadi. Xususan, sanoat korxonalarida uglerod oksidi, chang va kimyoviy aerozollar yuqori darajada bo'lishi mumkin. Agar havo almashinuvi yetarli bo'lmasa, bu nafaqat sog'liqqa, balki ish samaradorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish jarayonlarida optimal mikroiklimni ta'minlash uchun maxsus ventilyatsiya tizimlaridan foydalanish, ishlab chiqarish sexlarida konditsioner va namlikni tartibga soluvchi qurilmalar o'rnatish, shuningdek, ishchilarni shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlash talab etiladi. Shuningdek, issiqlik chiqaruvchi uskunalarni to'g'ri joylashtirish va issiqlik izolyatsiyasini samarali tashkil qilish ham muhimdir.

Shunday qilib, ishlab chiqarish korxonalarida mikroiklim sharoitlarini tartibga solish nafaqat ishchilarning sog'lig'ini himoya qilish, balki ularning mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash uchun ham zarur hisoblanadi. Shu sababli, mikroiklimni nazorat qilish va yaxshilash bo'yicha doimiy choralar ko'rish har bir ishlab chiqarish subyekti uchun muhim vazifalardan biridir.

Ishlab chiqarishda mikroiklim sharoitlarini boshqarish usullari.

Mikroiklim sharoitlarini to'g'ri boshqarish ishlab chiqarish samaradorligi va ishchilar sog'lig'ini saqlash uchun muhim hisoblanadi. Har bir korxona o'zining ishlab chiqarish jarayonlariga mos ravishda mikroiklimni tartibga soluvchi choralarni amalga oshirishi lozim. Buning uchun quyidagi asosiy boshqaruv usullari qo'llaniladi.

Birinchi navbatda, ventilyatsiya tizimlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Sanoat korxonalarida havo almashinuvi doimiy ravishda ta'minlanishi kerak. Agar shamollatish tizimi yetarli darajada samarali bo'lmasa, zararli gazlar va chang zarralari yig'ilib, ishchilarning sog'lig'iga zarar yetkazishi mumkin. Mexanik ventilyatsiya tizimlari yordamida binolardagi havo doimiy ravishda yangilanib turadi va mikroiklim barqarorligi ta'minlanadi.

Ikkinchidan, harorat va namlik darajasini tartibga solish lozim. Ishlab chiqarish binolarida qulay haroratni saqlab qolish uchun konditsioner va isitish tizimlaridan foydalanish muhimdir. Ayniqsa, issiqlik ajratadigan uskunalar mavjud bo'lsa, haroratni muvozanatlash uchun qo'shimcha sovutish tizimlari zarur bo'ladi. Namlikni tartibga solish ham mehnat sharoitlariga sezilarli ta'sir qiladi. Agar namlik juda past bo'lsa, havo quruqligi nafas olish tizimiga zarar yetkazadi, aksincha, ortiqcha namlik esa mog'or va boshqa zararli mikroorganizmlarning

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

ko'payishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun maxsus namlantiruvchi yoki qurituvchi tizimlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Uchinchidan, ish joylarini ergonomik joylashtirish va izolyatsiya qilish orqali mikroiklimning noqulay ta'sirlarini kamaytirish mumkin. Issiqlik chiqaruvchi uskunalar bilan ishlovchi sexlar yoki sex ichidagi alohida joylar izolyatsiya qilinishi kerak. Shuningdek, yoritish tizimlari ham hisobga olinishi lozim, chunki noto'g'ri yoritish mehnat unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

To'rtinchidan, ishchilarning shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishi muhimdir. Mikro iqlim sharoitlari noqulay bo'lgan korxonalarda ishchilar uchun maxsus kiyim-kechak, nafas olish niqoblari, qo'lqoplar va boshqa himoya vositalari taqdim etilishi kerak. Ishlab chiqarish jarayonlarida mikroiklimni samarali boshqarish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ventilyatsiya tizimlarini rivojlantirish, harorat va namlikni muvozanatlash hamda ishchilarni himoya vositalari bilan ta'minlash zarur. Ushbu chora-tadbirlar nafaqat ishchilarning salomatligini himoya qiladi, balki ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksiz va samarali bo'lishini ham ta'minlaydi.

Xulosa: Ishlab chiqarish jarayonlarida mikroiklim sharoitlarini to'g'ri tashkil etish ishchilar salomatligi, mehnat unumdorligi va mahsulot sifati uchun juda muhimdir. Harorat, namlik, havo tezligi va bosim kabi omillar nazorat qilinmasa, bu ishlab chiqarish jarayonlarining izdan chiqishiga, energiya sarfining oshishiga va mehnat sharoitlarining yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, ishlab chiqarish korxonalarida zamonaviy ventilyatsiya tizimlaridan foydalanish, havoni filtrlash, ish joylarini to'g'ri shamollatish hamda ishchilarni himoya vositalari bilan ta'minlash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Mikro iqlimni optimallashtirish nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki uzoq muddatda energiya tejamliligini ham ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov A. "Ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi." – Toshkent: Fan, 2020.
2. Ismoilov B. "Sanoat muhitining ekologik jihatlari." – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2018.
3. Xolmatov Sh. "Zamonaviy ishlab chiqarishda energiya samaradorligi." – Samarqand, 2019.
4. ISO 9241-6: Ergonomika va ish joyidagi mikroiklim sharoitlari.
5. O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi – rasmiy hujjatlar portali (<https://lex.uz/>).

**O'QUV DIDAKTIK TA'MINOT ORQALI BO'LAJAK PROFESSIONAL TA'LIM
MUTAXASSISLARINI KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

Xusayinova Go'zal Abdurasulovna¹¹

NamDPI o'qituvchisi

Mahmudjonova O'giloy Muzaffar qizi²

**² NamDPI Intellektual fanlar va axborot texnologiyalari
kafedrasi 1-kurs talabasi**

ANNOTATSIYA. Maqolada professional ta'limda mustaqil ta'lim olishida zarur bo'lgan tashkiliy, kommunikativ va didaktik kompetensiyalar haqida, xususan didaktik kompetensiyalarini takomillashtirish to'g'risida fikrlar, ma'lumotlar va takliflar berilgan. Talabalarning mustaqil ta'limdagi interfaol metodlarni qo'llashlaridagi kerakli ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: interfaol, didaktika, kompetensiya, kommunikativ, refleksiya, diagnostik, loyiha, metod, integratsiya.

ABSTRACT. In the state presented ideas, information and propositions on organizational, communicative and didactic competencies, neobhodymim for self-education in professional education, in the frequency of sovershenstvovaniyu didactic competencies. Described non-employee information on the use of interactive methods in self-study of students.

Keywords: interactive, didactics, competence, communicative, reflection, diagnostics, project, method, integration.

KIRISH. Yurtimizda zamonaviy talablar asosida ta'lim tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan tub islohotlar natijasida professional ta'lim tizimini joriy etish asosida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyat yo'nalishlari qamrovi kengaytirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan "mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" ustuvor vazifasining ijrosini ta'minlash maqsadida texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning didaktik kompetensiyalarini shakllantirishni interfaol o'qitish metodlari asosida yanada jadallashtirish zaruriyati yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bu esa texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida mustaqil ishlash jarayonida didaktik kompetensiyalarni shakllantirishning amaldagi metodik tizimini va o'quv-uslubiy ta'minotini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda.[1]

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

MUHOKAMA VA NATIJALAR. O'quv didaktik ta'minot orqali bo'layotgan kasbiy tayyorgarlik o'quvchilarning ilmiy va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon, bo'ladigan mutaxassislarning o'z kasbiy faoliyatiga tayyorlanishida ularning ma'lumot va ko'nikmalarini yanada chuqurlashtirish, bilimni samarali o'rgatish va amaliyotga asoslangan o'qitish metodlarini qo'llashni o'z ichiga oladi. Keling, bu jarayonning ba'zi asosiy jihatlarini ko'rib chiqaylik:

Didaktik ta'minotning mohiyati: Didaktik ta'minot, o'qitishning samarali o'tkazilishi uchun kerakli vositalar, metodlar va materiallar majmuasini anglatadi. Bu, o'quvchilarga to'g'ri bilim berish, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun zarur bo'lgan barcha pedagogik vositalar va resurslarni o'z ichiga oladi. O'quv metodlarini takomillashtirish: Kasbiy tayyorgarlikni samarali amalga oshirish uchun innovatsion va amaliy o'quv metodlaridan foydalanish kerak. Masalan, kasbiy o'quvchilarga real ish muhitini yaratish, treninglar, simulyatsiyalar, loyiha asosida o'qitish va guruhli ishlarni amalga oshirish orqali ularning o'rganish jarayonini yanada samarali qilish mumkin.

Tezkor va sifatli javob berish: O'quvchilarning savollariga tezkor va aniq javoblar berish, ular bilan samarali aloqa o'rnatish o'qitish sifatini oshiradi. Bu esa, kelajakdagi mutaxassislarning o'z sohasida yuqori darajadagi malakaga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Amaliyotga yo'naltirish: Kasbiy tayyorgarlik jarayonida o'quvchilarni faqat nazariy bilimlar bilan cheklash emas, balki ularni amaliy faoliyatga ham jalb qilish muhimdir. Amaliyotlar, o'quvchilarga real ish sharoitlarini taqlid qilgan muhitda bilim va ko'nikmalarni qo'llash imkonini beradi.[2]

Pedagogik texnologiyalarni qo'llash: O'quvchilarni kasbiy tayyorgarlikda eng yangi pedagogik texnologiyalar, masalan, interaktiv darslar, multimedia va onlayn platformalarni qo'llash orqali ularning o'qish motivatsiyasini oshirish mumkin. Shuningdek, virtual va qo'llaniladigan amaliyotlar orqali o'quvchilarga yangi bilimlarni o'zlashtirishda yordam beriladi.

O'quv didaktik materiallar va resurslar: Kasbiy tayyorgarlikda didaktik materiallar, darsliklar, qo'llanmalar, video va audio materiallar, ilmiy maqolalar, onlayn kurslar va boshqalar muhim resurslardir. Ularning to'g'ri tanlanishi va samarali qo'llanilishi o'quvchilarning ta'lim jarayonini yaxshilaydi.

Har qanday o'quv fani bo'yicha darsliklarning asosiy didaktik ashyosi matnlar, savoltopshiriqlar, mashqlar yoki misol-masalalar hisoblanadi. Ta'lim oluvchini mustaqil fikrlashga o'rgatishda darslik, o'quv qo'llanmalar va ta'lim beruvchining alohida-alohida ahamiyatini ta'kidlash shart emas, balki uni mavzudagi ilg'or fikrlar, ilmiy xulosalar, amaliy haqiqatlar, voqea-hodisa yoki

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

inson shaxsiga o'z munosabatini bildirishga yo'naltirish kerak bo'ladi. Muayyan fanlar bo'yicha ta'lim oluvchini mustaqil fikrlashga o'rgatishga darsliklardan o'rin olgan, ilm ahliga, darslik muallifi va ta'lim beruvchiga avval ma'lum bo'lgan ilmiy va hayotiy haqiqatlarni har bir ta'lim oluvchi o'zining imkoniyati doirasida o'z yo'li bilan anglatiladi. Darslik yoki o'quv qo'llanmalardagi yoki ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan savol- topshiriqlar ta'lim oluvchini matn mazmunini hikoya qilishga (ayrim hollarda yodlab olishga) majburlamasligi kerak. Demak, mustaqil ta'lim – bu olingan bilim ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materiallarni mustaqil o'rganish maqsadidagi o'quv shakli. Albatta, talabalarning mustaqil bilim olishini yo'lga qo'yish natijasida dars jarayoni samaradorligini oshirish va ta'lim sifatini ko'tarish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanib, uning ta'lim berish jarayonini to'g'ri tashkil eta olishiga bog'liqdir. Agar talaba uchun barcha yetarli sharoitlar – o'quv materiallari, kompyuter texnikasi, avtomatlashtirilgan dastur - kabilar bo'lsa-yu, undan foydalanish yaxshi yo'lga qo'yilmagan, o'quv jarayoni to'g'ri tashkil etilmagan bo'lsa, yuqori natijaga erishib bo'lmaydi. Har qanday holatda ham o'qituvchi va talabaning o'zaro munosabatlari muhim o'rin egallaydi. Mustaqil ishni bajarish uchun fanlar bo'yicha talabalarga zaruriy uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar hamda turli shakldagi mustaqil ish topshiriqlari ishlab chiqildi.[3,4]

Og'zaki mustaqil topshiriqlar: – darslik bo'yicha materialni o'rganish va takrorlash, chizmalar va sxemalarni o'qish, turli texnik adabiyotlar, hujjatlar va materiallarni o'rganish asosida o'qituvchi savollariga javob tayyorlash, ishlab chiqarish faoliyati tahlili kabilar kiradi. Didaktik kompetensiyani shakllantiruvchi mustaqil topshiriqlar: o'quv material mazmuni va mohiyatini yorituvchi o'quv axborotlari majmuasini hamda didaktik materiallarini ishlab chiqishga qaratilgan. Yozma mustaqil topshiriqlar: hisoblash uchun berilgan vazifalarni bajarish, umumlashtiruvchi va takrorlanuvchi jadvallarni to'ldirish, texnologik xaritalarni ishlab chiqish, laboratoriya, amaliy ishlar to'g'risida hisobotlar tuzish va shunga o'xshash vazifalarni o'z ichiga oladi. Grafik mustaqil topshiriqlar: ularga turli chizmachilik ishlarini eskizlashtirish, kesmalar va kesishmalarni tasvirlash, ayrim detal va tugunlarni chizib ko'rsatish, sxemalar, grafiklar, diagrammalarni tuzish, kuzatish natijalarini tasvirlash va shunga o'xshash vazifalarni o'z ichiga oladi. Amaliy xarakterdagi mustaqil topshiriqlar: talabalar o'qituvchi topshirig'i asosida mustaqil ishni bajarish jarayonida ma'lum detal tayyorlash, tugun va mexanizmlarni yig'ish, texnik jarayonlarni ishlab chiqadilar. Ushbu ishlarni bajarganda talabalar asbob-uskunalarni tanlash, ishlov berish rejasini aniqlash va hisoblash, yangi moslamalarni loyihalash, maket va modellar, namunalar kabi ishlarni amalga oshiradilar.[5,6]

Shu bilan bir qatorda Darslik barqaror, puxta asoslangan tarkibiy tuzilmaga ega bo'lishi lozim. Darsliklarga qo'yiladigan talablar turlicha bo'lsa-da, ular orasida umumiy xususiyatga ega talablar ko'p. Yetakchi xorijiy mamlakatlarda muqobil darsliklarning nashr etilishiga alohida e'tibor qaratiladi. Buning boisi,

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

pedagog va o'quvchilarga ular orasidan o'zlari uchun eng maqbul, amaliy ahamiyatga ega bo'lganlarini tanlab olishga imkoniyat yaratishdir. Respublikamizda muqobil darsliklarni yaratishda faollik bir qadar sust bo'lgani holda muqobil yordamchi adabiyotlar (o'quv, metodik va o'quvmetodik qo'llanmalar)ni yaratish borasida pedagoglar faollik ko'rsatishmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Shu tarzda, o'quv didaktik ta'minot yordamida bo'layotgan kasbiy tayyorgarlik, o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham mukammal tarzda o'zlashtirishlariga imkon yaratadi. Bu esa, ularning kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo'lishlarini ta'minlaydi.

Pedagoglarning o'quv mashg'ulotlari uchun didaktik materiallarni tayyorlashda quyidagi zamonaviy talablarga muvofiq ish ko'rishlari kutilgan ta'limiy natijaning qo'lga kiritilishi uchun zarur sharoitni vujudga keltiradi:

- aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi;
- o'quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlariga muvofiq tayyorlanishi;
- o'quv axborotlarining asoslanganligi;
- faollashtirish imkoniyatiga egalik;
- o'quvchilarni juftlikda, kichik guruhlarda faol ishlariga uchun sharoit yaratish;
- o'quvchilarda mustaqil, ijodiy, tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;
- zamonaviy ahamiyat kasb etishi;
- estetik jihatdan sifatli bo'lishi;
- noaniq tushuncha va iboralardan holi bo'lishi;
- aniq natijani kafolatlay olishi;
- turli vaziyatlarda qo'llay olish imkoniyatiga egalik;
- mavjud bilim, ko'nikma, malakani mustahkamlashga xizmat qilishi.
- didaktik materiallarni tayyorlashda o'quv axborotlarining ishonchli ekanligiga e'tiborni qaratishlarini;
- o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor berishi va dars jarayonda «o'qituvchi sinfda kreativlik muhitini yaratilishini;
- o'quv dasturlari va o'quv manbalarini yaratishga nisbatan kreativ yondashuvlar o'quvchilarning intellektual rivojlanishiga oid savol topshiriqlarni tuzishni.
- didaktik o'quv materiallarini samarali shakllantirishda g'oyaviylik, ilmiylik, vizuallik, tizimlilik, o'quv axborotlarining izchil bayon etilishi, o'quv axborotlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni inobatga olishni;[7]

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

2.Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Usmonboyeva M., Inog'omova D. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Metodik qo'llanma. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012.

3.Mavlonova R. va boshqalar. Umumiy pedagogika. Darslik. - T.: «Navro'z» nashriyoti, 2016.


4.Pedagogik atamalar lug'ati. – T.: «Fan», 2008.

5.Toxtaxodjayeva M.X. va boshqalar. Pedagogika nazariyasi. OTM uchun darslik. – T.: «Iqtisod-moliya», 2010.

6.Ziyomuhammadov B. Pedagogika. Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. - T.:

«TuronIqbol». 2006.

7. Abdullayeva O. S., Muhammadjonov A. O., Xusayinova G. A. Modeling the Development of Department Activities in Higher Education Institutions: Enhancing the Management System with Quantum Communication and Cryptography% //2023 International Conference on Sustainable Emerging Innovations in Engineering and Technology (ICSEIET). – IEEE, 2023. – C. 588-591.



4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

PEDAGOGNING DARSGA TAYYORGARLIK KO'RISHI VA ZAMONAVIY YONDOSHUVI

Abdurasul Maxmudov,

Pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi

abdurasulmahmudov397@gmail.com

ANNOTATSIYA

Hozirgi pedagogika nuqtai-nazari avvalgilaridan farqli o'laroq, o'qituvchidan ko'p vazifalarni talab etadi. U bolalarni rivojlantirishda tarbiyaning, demak, tarbiya jarayonini amalga oshiruvchi pedagogning yetakchilik o'rnini ta'kidlaydi. Bu o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash ahvoli ko'p jihatdan tarbiyachilarning ilmiy va metodikadan malakasi, ularning g'oyaviyligi, madaniyati, shuningdek, shaxs sifatleri va tarbiyachilik qobiliyatlari, o'z mehnatiga vijdonan yondashishiga bog'liqdir. Ushbu maqolada zamon talabiga mos keladigan bilim tizimini talabaga yetkazish, bilim olishga ularni qiziqitirish, bilimlarni o'zlashtirishda talabaning faolligiga erishish hozirgi kundagi ta'lim jarayonida talab etilmoqda

Kalit so'zlar: *pedagogika, zamonaviy pedagog, interfaol , innovatsiya, bilim, yetakchi, omillar, kasb, dars ishlanmalari*

ANNOTATION

The current pedagogical perspective, unlike the previous ones, requires many tasks from the teacher. It emphasizes the leading role of upbringing in the development of children, that is, the educator who carries out the educational process. The state of upbringing of this growing generation largely depends on the scientific and methodological qualifications of educators, their ideology, culture, as well as personal qualities and educational abilities, and a conscientious approach to their work. This article discusses the need to convey to students a knowledge system that meets the requirements of the time, to interest them in learning, and to achieve student activity in mastering knowledge in the current educational process

Keywords: *pedagogy, modern pedagogue, interactive, innovation, knowledge, leader, factors, profession, lesson development*

Har qanday kasb murakkab va serqirra jarayondir, Shuning uchun kasb qaysi sohaga tegishli bo'lmasin, musiqa rahbari oldiga ko'pgina talablarni qo'yadi. Ta'lim – tarbiyaning barcha sohalarining maqsadi barkamol shaxs tarbiyalashdir.

O'qitish jarayonida talaba-yoshlarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshish, ma'suliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga; eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogika va o'zi tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlarni kuchaytiradi. Buning uchun esa har bir o'qituvchi-pedagoglari o'zlarining fanlariga astoydil tayyorgarlik ko'rishlar, darsning maqsad va vazifalarini aniq belgilashlari, eng muhimi, zamonaviy g'oyalar bilan boyitishlari shart.

Bunday natijaga erishi amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llashni taqazo etadi. Ular juda xilma-xildir. Biz ulardan ba'zilar haqida to'xtalib o'tamiz va ularni o'tkazish tartibi haqida qo'llanma beramiz. Ushbu metodik qo'llanmada keltirilgan zamonaviy metodlar, yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar talaba- yoshlar– talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardor, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi.

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

Talaba- yoshlar faollik bilan bilimlarni o'zlashtirishi zarur. Bu jarayonga talabaning hayotiy tajribasi, mavjud bilimlari, bayon etilayotgan bilimlar tizimiga, fanga o'qishga munosabati ta'sir etadi. Bu sohada talabalarining imkoniyati bir xil bo'lmaydi. Keng bilimga, boy hayotiy tajribaga ega, o'qish ko'nikmalarini o'zlashtirgan talabalar o'qishda muvaffaqiyat bilan ishlaydi. Bilim – o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berishdir. Ko'nikma – o'rganilgan bilimlarni qo'llay olish, malaka – o'rganilgan bilimni notanish vaziyatda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilishdan iborat. Bilimlarni o'zlashtirishga talabaning avval o'zlashtirgan ta'limiy ko'nikma va malakalari ta'sir etadi. Psixologlarning ko'rsatishicha bilimlarni o'zlashtirish, bu yangi qabul etilayotgan informatsiyani talabada avval mavjud bo'lgan informatsiyalar tizimiga kiritishdir. Talabada bilimlar qanchalik keng bo'lsa, yangi informatsiyani qabul etishi oson bo'ladi.

Darsga tayyorlanish algoritmi, [barcha omillar](#), holatlarni hisobga olish va kafolatlaydigan izchil tadbir bo'lishi zarur. Shuning uchun har bir darsga tayyorlanishda quyidagi tavsiyalarga rioya qilishi lozim: Darsda o'quvchi shaxsini rivojlantirish uchun avvalo, uning idrokini, xotirasini kuchaytirish asosida o'quv materialining xotirada saqlanishini ta'minlash zarur. Darsning maqsadiga erishish uchun o'quv materiallarini to'g'ri tanlash, bunda - o'quvchilarning bilim saviyasini [hisobga olish va darsni](#) jihozlashga jiddiy e'tibor berish, o'quv materiallar o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun ta'limning metod va usullarini o'rinli qo'llash ham muhimdir. Dars o'qituvchiga juda katta mas'uliyat yuklaydi. Shunga ko'ra, atroflicha tayyorlanish tajribali o'qituvchi uchun ham yosh o'qituvchi uchun ham zarur. O'qituvchi o'z vazifasini sifatli bajara olishi uchun o'quvchilar shaxsini har tomonlama o'rganishi shart.[2]

Pedagogning dars va mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish muammolari va dars muloqatni tashkil etishda interfaol usullarini qo'llash texnologiyasini o'rganish.

1. Talabalarga fan bo'yicha tushuncha berish va muloqotni tashkil etishda interfaol usullarini qo'llash to'g'risida ma'lumot berish.

2. Talabalarni interfaol usullarining didaktik imkoniyatlaridan xabardor qilish.

3. Talabalarni ta'lim jarayonida o'zaro hamkorlik usullaridan foydalanishga o'rgatish.

4. Talabalarda ta'lim jarayonida adabiyotdan foydalanish yuzasidan ko'nikma, malakalarini shakllantirish.

Pedagogning dars va mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish muammolari va dars muloqatni tashkil etishda interfaol usullarini qo'llashning nazariy va amaliy masalalari xususida so'z borganda, yana shunga e'tibor berish kerakki, o'qituvchi talabadagi yangi o'rganilayotgan mavzuga oid informatsiyalarni tiklashi, mavzuni o'zlashtirishi uchun asos hosil qilishi zarur. Ayniqsa, yangi mavzuni boshlaganda talabalarni qiziqtiradigan savol qo'yilishi, muammoli vaziyatlar yaratilishi qiziqishni kuchaytiradi. O'qituvchi talabaga ta'lim berishda maksimal foyda keltiradigan ish usullarini qo'llashi kerak.

O'qituvchi bilan bir qatorda o'qitish jarayoni oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonida o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitini, TSO ni, eng asosiysi, o'quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoldiyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafotlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o'quvchi – talabani ta'limning markaziga olib chiqish kerak.[3]

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit, holatda ko'ra bili shva uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchi – talabalarining imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Bunday texnologik xaritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogika va axborot texnologiyalardan xabardor bo'lishi,

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

shuningdek, juda ko'p metodlar. Usullarni bilishi kerak bo'ladi. Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyixalashtirilgan texnologik xaritasiga bogliq.

Darsning texnologik xaritasini qay ko'rinishda yoki shaklda tuzish, bu o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsadi va ixtiyoriga bog'liq. Texnologik karta qanday tuzilgan bo'lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo'lishi hamda anik belgilangan maqsad, vazifa va kafotlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to'liq o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak. Texnologik kartani tuzilishi o'qituvchini darsni kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday kartada dars jarayonining barcha qirralari o'z aksini topadi.

Blum savollari. O'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning muhim omili – o'qituvchining ularga va o'quvchilarning o'zaro bir – biriga beradigan savollari ekan. Ta'kidlanishicha, o'qituvchilarni o'quvchilarga berishgan savollarining 80 – 85 foizi, faqat daliiliy bilimlarnigina talab qilib, ular javob berishda xotirada qolganlarini takroran so'zlash (bashorat) bilangina cheklanar ekanlar.

To'g'ri javobi o'quv adabiyotlarida yaqqol bayon etilmagan yoki o'qituvchi tomonidan aytib berilmagan savolgina o'quvchilarni fikrlashga majbur qiladi. Bunday savollarga jahon pedagogikasida "Blum savollari" nomi bilan mashhur va o'zlashtirishning oltita; bilish, tushinish, qo'llash, tahlil, sintez va baholash darajalariga muvofiq bo'lgan savollar misol bo'lishi mumkin. Masalan: "nima uchun?", "taqqoslang?", "tarkibiy qismlarga ajrating?", "eng muhim xususiyatlari nima?", "buni siz qanday hal qilgan bo'ladingiz?", "bunga munosabatingiz qanday?", kabi savollar o'quvchilarga yuqori intellektual amallar (tahlil, sintez, baholash) darajasida fikrlashga undaydi. Yoki, matndan parcha o'qib bo'lgandan so'ng, o'quvchilarni fikrlashga undovchi quyidagi savollarni berish ham maqsadga muvofiqdir: "bu parchaga qanday savolar qo'yish mumkin?", "siz muallifga qanday savol bergan bo'ladingiz?".[4]

Berilgan savollar mazmunida mavzuga yoki matnga oid tayanch so'z va iboralardan foydalanish ham muhimdir.

Sinkveyn (axborotni yig'ish).O'rganilayotgan materialni to'laqon va puxta anglash uchun qo'llaniladigan interfaol usullaridan biri bo'lib hisoblanadi. Sinkveyn – frantsuzcha besh qator o'ziga xos, qofiyasiz she'r bo'lib, unda o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea, mavzu) to'g'risidagi axborot yoyilgan va yig'ilgan holda, o'quvchilar so'zi bilan, turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish – murakkab g'oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so'zlar bilan ifodalash uchun muhim bo'lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni puxtarok anglashga yordam berish bilan birga, o'quvchilarning kritik fikrlash qobiliyatini yuqori darajada rivojlantiradi.

Tarbiya- yosh avlodlar qalbidan joy olar ekan, ularni ona yurtga, xalqiga sadoqatli va mehr-muruvvatli bo'lishga, azaliy qadriyatlarimiz va o'ziga xos betakror an'analarimizni e'zozlashga, ona Vatanning bugungi kundagi haqqoniy vorislari bo'lishiga va albatta, milliy itstiqloliyat zaruratini teran his etishga da'vat etadi.

Ta'lim muassasalarida o'tilayotgan fanlar ichida o'zining qiziqarliligi, badiiy va estetik tarbiya berishi, o'quvchilarga zavq va orom bag'ishlashi bilan farqlanib turadigan fanlar juda ko'pdir. Har bir fanning mavqei albatta o'qituvchiga bog'liqdir. O'qituvchi darsni zamon talablariga mos ravishda olib borishi uchun pedagogika, psixologiya, fiziologiya, odam salomatligi fanlarini, shuningdek, o'z kasbiy yo'nalishi bo'yicha fanlarni ham mukammal bilishi maqsadga muvofiqdir.

Barkamol va sog'lom avlodni tarbiyalashda ijtimoiy fanlar muhim rol o'ynaydi. Demak, har bir pedagog kelajak avlodni yuksak darajadagi bilimga ega bo'lishlariga zamin yaratishi, ularning ta'lim- tarbiya olishlariga e'tibor qaratishimiz zarur. Buning uchun "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilanganidek, o'qituvchi va

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

o'quvchi shaxsini, uning ma'naviy – madaniy qiyofasini shakllantirishimiz, milliy qadriyatlarimiz, an'analarimizga va urf-odatlarimizga amal qilgan holda o'z darslarini so'nggi fan yutuqlaridan foydalanib, innovatsion usullarni qo'llagan holda tashkil etish oldimizda turgan zarur vazifalardandir.

Pedagogning dars va mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish muammolari va dars muloqatni tashkil etishda interfaol usullarini qo'llash jarayoni. O'qituvchi va o'quvchi-talabani maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda o'tkazilishi mumkin bo'lgan dars jarayoni metodikasini har bir o'qituvchi o'z fani (o'quv fani) sharoitidan hamda o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda o'zgartirishi yoki shular asosida o'qitish jarayonida o'zining mualliflik texnologiyalarini yaratishi mumkin.

Tavsiya etilgan qator yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishda o'qituvchi dastlab bu texnologiyalarning maqsadi, mazmuni, qo'llashning yo'llari, sharoitlari bilan atroflicha tanishib chiqishi, o'z fani xususiyatlaridan kelib chiqib, to'liq, qisman yoki faqat tamoyillaridan foydalanishni o'ylab rejalashtirishi zarur. Aks holda, dars samaradorligini oshirishda deyarli biror natijaga erisha olmasligi mumkin.

Zamonaviy pedagogik ta'lim tizimining maqsadi, yangi toifaga mansub bo'lgan musiqa o'qituvchisining umumiy va kasb kamolotiga erishishdan iborat. Chunki, bilim dargohi musiqa rahbari oldiga uning kasb malakasiga va shaxsiy hislatlariga nisbatan yuqori talablar qo'yimoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.
2. Pedagogika. M. Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida (Darslik). – T., 2010. –
3. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi (o'quv qo'llanma). – T., 2008. –
4. Vohidov R., Mahmudov M. Ma'naviyat komillik saodati. - T.: "Ma'naviyat", 1997 y
5. Mahmudov M. Komil inson ajdodlar orzusi. - T.: "Yozuvchi", 2002 y
6. Safarov O., Mahmudov M. Oila ma'naviyati. - T.: "Ma'naviyat", 1998 y.

STANDARTLASHTIRISH TURLARI VA TOIFALARI .

Namangan davlat universiteti
San'atshunoslik kafedrasi dotsenti
Nabiyev Akramjon Botirjonovich
Namangan davlat universiteti
Hayot faoliyati xavfsizligi yo'nalishi talabasi
Tursunboyev Abduhalil Abdug'ani o'g'li

Annotatsiya: Standartlashtirish - bu mahsulot, xizmat yoki jarayonlar uchun yagona talablarni belgilash va ularni tartibga solish jarayonidir. Bu jarayon xavfsizlikni ta'minlash, sifatni yaxshilash va xalqaro savdoni soddalashtirish maqsadida amalga oshiriladi. Standartlashtirish turlari mahalliy, milliy, xalqaro, soha va korporativ yo'nalishlarga bo'linadi, bu esa uning qo'llanilish doirasini belgilaydi. Shuningdek, u majburiy va ixtiyoriy toifalarga ega bo'lib, mahsulot yoki xizmatlarning texnik va boshqaruv talablarini tartibga solishda qo'llaniladi. Standartlashtirish jarayonlari samaradorlikni oshirish va global iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: standart, standartlashtirish, xalqaro standartlashtirish, mintaqaviy standartlashtirish, milliy standartlashtirish, xalqaro standart, mintaqaviy standart, davlatlararo standart, milliy standart, korxona standarti.

Abstract: Standardization is the process of establishing and regulating uniform requirements for products, services, or processes. This process is done to ensure security, improve quality and simplify international trade. Types of standardization are divided into local, national, international, industry and corporate directions, which determines the scope of its application. It also has mandatory and optional categories and is used to regulate the technical and management requirements of products or services. Standardization processes serve to increase efficiency and develop global economic relations.

Key words: standard, standardization, international standardization, regional standardization, national standardization, international standard, regional standard, interstate standard, national standard, enterprise standard.

Kirish. Mamlakatimizda qabul qilingan moderizatsiyalash dasturlarining asosiy va umumiy yo'nalishlari sifatida eskirgan uskuna va dastgohlarni tugatish, mahsulot assortimentini kengaytirish, ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni jalb etish, mahalliy xom-ashyo va imkoniyatlarimizga asoslangan innovatsion, chiqindisiz va ekologik toza texnologiyalarni jalb etish, mahsulot sifatini va sertifikatni boshqarish tizimini ishlab chiqish, ishlab chiqarish xarajatlari va xom ashyo sarfini kamaytirish kabilarni ko'rsatish mumkin. Sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda yuqori texnologiyaga asoslangan zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

tomonidan ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalar joriy etilish kerakligi ta'kidlandi.

Mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashda va iqtisodiyotni yuksaltirishda barcha tarmoqlarida ishlab chiqarishni rivojlantirish har bir soha mutaxassislarining oldiga qo'yilgan vazifalari alohida ahamiyatga egadir. Iqtisodiy islohatlarning yangi bosqichidatarkibiy tuzilish strategiyasini ishlab chiqarishda ixtiyorimizdagi g'oyat boy tabiiy xom-ashyo, mehnat [resurslariga mustahkam tayanib](#), ulardan samarali foydalanish natijasida ishlab chiqarish jarayonini jadallashtirib eksport imkoniyatlarini kengaytirish, jahon bozoriga kirib borish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Tayyor mahsulotlarning eksport salohiyatini oshirib borish natijasida uning ishlab chiqarish darajasining yaxshilanishiga olib keladi. Mahsulot sifatidan davlatning texnik takomillashgani va rivojlanganligiga baho bersa bo'ladi. Shu bilan bir qatorda iqtisodni rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri, mahsulot sifatini sistematik ravishda oshirib borishdir. Mahsulot sifatini oshirish, assortimentlarini kengaytirish va iste'molchilar talabini qondirish hozirgi bozor iqtisodiyotining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Mahsulot sifat darajasini ta'minlash uchun standartlar va texnik shartlarning me'yoriy talablariga bog'liq holda sistematik nazorat ishlarini olib borish lozimdir. Mahsulot sifat darajasini yaxshilashda standartlarning ilmiy-texnik darajasini oshirish, standartlar va texnik shartlarni muntazam yangilab borish, mahsulot sifati va yuqori texnik darajasini kafolatlash lozim.

Standartlashtirish deganda mavjud yoki bo'lajak aniq masalalarga nisbatan umumiy va ko'p marta tatbiq etiladigan talablarni belgilash orqali ma'lum sohada eng maqbul darajada tartiblashtirishga yo'naltirilgan ilmiy – texnikaviy faoliyat tushuniladi. Bu faoliyat standartlarni va texnikaviy talablarni ishlab chiqishda, nashr etishda va tatbiq qilishda namoyon bo'ladi. Standartlashtirishning muhim natijalari odatda mahsulot, jarayon va xizmatlarning belgilangan vazifaga mos kelishi, savdodagi g'ovlarni bartaraf qilish hamda ilmiy – texnikaviy hamkorlikka ko'maklashishda namoyon bo'ladi.

Xalqaro standartlashtirish faoliyatida barcha mamlakatlarning tegishli idoralari erkin holda ishtirok etishi mumkin.

Mintaqaviy standartlashtirish deganda dunyo miqyosida birgina jug'rofiy yoki iqtisodiy mintaqasiga qarashli mamlakatlarning tegishli idoralari uchun erkin holda ishtirok etishlari mumkin bo'lgan standartlashtirish tushuniladi.

Milliy standartlashtirish – bu muayyan bir mamlakat doirasida o'tkaziladigan standartlashtirish faoliyatidir.

Standartlashtirish har xil faoliyat turlari va uning natijalariga daxldor qoidalar, umumiy qonun – qoidalar yoki tavsiflarni o'zida qamrab olgan me'yoriy hujjat hisoblanadi.

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

“Me'yoriy hujjat” atamasi standartlar, texnikaviy shartlar, shuningdek, umumiy ko'rsatmalar, yo'riqnomalar va qoidalar tushunchasini ham o'z ichiga qamrab oladi.

Standartlashtirishning maqsadlari ko'p qirrali bo'lib, ular asosan quyidagilardan iborat: birxillashtirish (har xillikni boshqarish), bir turga keltirish, moslashuvchanlik, o'zaroalmashuvchanlik, sog'liqni saqlash, xavfsizlikni ta'minlash, tashqi – muhitni asrash, mahsulotni himoyalash, savdodagi iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash va boshqalar. To'g'ri yondoshilgan standartlashtirish borasida bir maqsadning amalga oshishida bir vaqtda boshqa maqsadlarning ham amalga oshishi mumkin.

Standartlashtirishda mahsulotning vazifasiga muvofiqligi deganda belgilangan sharoitlarda muayyan vazifalarini buyum, jarayon yoki xizmatlar tomonidan bajarish qobiliyati tushuniladi.

Moslashuvchanlik esa, ma'um sharoitlarda belgilangan talablarni bajarish uchun nomaqbul ta'sir ko'rsatmasdan mahsulot, jarayon yoki xizmatlarni birgalikda qo'llanishiga yaroqliligi deb tushuniladi.

O'zaro almashuvchanlik – bir xil talablarni bajarish maqsadida bir buyum, jarayon, xizmatdan foydalanish o'rniga boshqa bir buyum, jarayon, xizmatning yaroqliligidir.

Harxillikni boshqarish (unifikatsiyalash yoki birxillashtirish) deb, muayyan ehtiyojini qondirish uchun zarur bo'lgan eng maqbul o'lchamlarni yoki mahsulot, jarayon va xizmat turlarini tanlashga aytiladi.

Standart turlari va toifalari - Xalqaro standart – bu standartlashtirish bilan (standartlashtirish bo'yicha) shug'ullanadigan xalqaro tashkilot tomonidan qabul qilingan va iste'molchilarning keng doirasiga yaroqli bo'lgan standartdir.

Mintaqaviy standart esa, standartlashtirish bilan shug'ullanadigan mintaqaviy tashkilot tomonidan qabul qilingan va iste'molchilarning keng doirasiga yaroqli bo'lgan hujjatdir.

Davlatlararo standart “GOST” – bu standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha davlatlararo kengash tomonidan qabul qilingan, bajarilishi shart bo'lgan hujjatdir.

Milliy standart – bu standartlashtirish bilan shug'ullanadigan milliy idora tomonidan qabul qilingan va iste'molchilarning keng doirasiga yaroqli bo'lgan standartdir.

Korxona standarti – bu mahsulotga, xizmatga yoki jarayonga korxonaning tashabbusi bilan ishlab chiqiladigan va uning tomonidan tasdiqlangan hujjatdir.

Standartlashtirishning maqsad va vazifalari

Standartlashtirish tub mohiyati bilan ishlab chiqarishni tashkil etishning eng samarador formalari haqidagi fandir.

Standartlashtirish iqtisod, texnologiya va fundamental fanlar singari asosiy yo'nalishlarni bir-biriga bog'lovchi vosita hamdir.

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

Ko'pgina texnika jihatidan ilg'or mamlakatlarda standartlashtirish masalalariga o'suvchi qiziqish qayd qilinmoqda, uning asosi bo'lgan standartlashtirishning nazariyasiga ham katta e'tibor berilmoqda.

Standartlashtirishni texnika taraqqiyotida, ishlab chiqarishda eng ratsional joriy qilish, mahsulot sifatini yaxshilash, mehnat harajatlarini va moddiy resurslarni ta'sirchan vositalaridan biri sifatida ko'rilmogda.

Xulosa: Standartlashtirish har qanday sohada sifatni oshirish, xavfsizlikni ta'minlash va samaradorlikni kuchaytirish uchun muhim jarayon hisoblanadi. U mahsulotlar, xizmatlar va jarayonlar uchun umumiy me'yorlar va qoidalarni belgilash orqali bozor raqobatbardoshligini oshiradi, texnologiyalarni uyg'unlashtiradi va xalqaro hamkorlikni yengillashtiradi. 1996 yilda GOST S 1.0-92 asosiy standarti o'zgartirildi. Tuzatishga muvofiq, Rossiya hududida qo'llaniladigan aktlar ro'yxatiga texnik reglament qo'shildi. Ayni paytda, standartlashtirishni tartibga soluvchi qonun hujjatlarida ko'plab bo'shliqlar mavjud. Shunga ko'ra, muayyan talablar, tavsiyalar, qoidalarni belgilovchi barcha aktlar xalqaro qoidalarga to'liq mos kelmaydi. Texnik reglamentlarning tabiatiga mahalliy yondashuv o'rtasidagi farq to'g'ridan-to'g'ri GOSTga kiritilgan o'zgartirishning matnida namoyon bo'ladi. U quyidagicha taqdim etiladi. Texnik reglamentlar hukumat qarorlari va texnik xarakterdagi qoidalar, talablar va normalarni, ularda belgilangan majburiy ko'rsatmalar bo'yicha davlat standartlarini, tegishli vakolatlarga ega federal ijroiya organlarining qoidalarini o'z ichiga olgan qonun hujjatlarini o'z ichiga olishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ismatullaev P.R. va boshq. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. и управления качеством» Ташкент, НИИСПС, 2007.
2. Абдувалиев А.А. и др. «Основы стандартизации, метрологии, сертификации Darslik. Toshkent, 2001, -360 b.
3. Гончаров А.А., Копылев В.Д. Метрология, стандартизация и сертификация. Учебное пособие. 2-е издание стереотип. М.: Изд. центр «Академия», 2005.
4. Лифитс Н.М. Стандартизация, метрология и сертификация. М.: 2002.
5. Метрология, стандартизация, сертификация и электроизмерительная техника: учебное пособие (Под редакцией К.К.Кима, учебное пособие) Москва. Санкт-Петербург, 2006. -338 с.
6. Назаров В.Н., Карабегов М.А., Мамедов Р.К. Основы метрологии и технического регулирования. Учебное пособие. – СПб: СПбГУ ИТМО, 2008. – 110 с.

7. Димов Ю.В. Метрология, стандартизация и сертификация: учебник. Изд-во «Питер», СПб, 2013. – 496 С.

8. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI STANDARTLASHTIRISH TO'G'RISIDA *Mazkur Qonun O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 3-noyabrdagi O'RQ-800-sonli "Standartlashtirish to'g'risida"gi Qonuniga asosan 2023-yil 5-noyabrdan o'z kuchini yo'qotadi.*



**AYOLLAR VA O'SMIRLAR MEHNATINI HIMOYALASH VA
ULARGA BELGILANGAN IMTIYOZLAR**

Nabiyev Akramjon Botirjonovich

Namangan davlat universiteti San'atshunoslik kafedrası dotsenti

Odiljonov Otaxon Muzaffar o'g'li

Namangan davlat universiteti

Hayot faoliyati xavfsizligi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ayollar va o'smirlar mehnatini huquqiy himoya qilish, shuningdek, ularga qonuniy ravishda belgilangan imtiyoz va kafolatlar tizimli ravishda o'rganilgan. Mehnat munosabatlarining muhim subyektlaridan biri bo'lgan ayollar va o'smirlarning ishga qabul qilinishi, ish sharoitlari, mehnat soatlari, og'ir va zararli mehnat turlaridan himoya qilinishi bilan bog'liq masalalar chuqur tahlil qilingan. Xususan, Mehnat kodeksida belgilangan normalar, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ayollar va erkaklar teng huquqliligi to'g'risida"gi qonun hamda xalqaro huquqiy hujjatlar, jumladan, Xalqaro mehnat tashkilotining (XMT) konvensiyalari asosida huquqiy asoslar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Ayollar mehnati, o'smirlar huquqi, mehnat qonunchiligi, imtiyozlar, huquqiy himoya, mehnat sharoitlari, gender tengligi, Xalqaro mehnat tashkiloti, bolalar mehnatini cheklash, ijtimoiy kafolatlar, mehnat huquqi.

Annotation: In this article, the legal protection of the labor of women and adolescents, as well as the privileges and guarantees legally established for them, are systematically studied. Issues related to employment, working conditions, working hours, and protection from heavy and harmful types of work of women and teenagers, who are one of the important subjects of labor relations, were analyzed in depth. In particular, the legal basis was studied based on the norms established in the Labor Code, the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the Law "On Equality of Women and Men" and international legal documents, including the conventions of the International Labor Organization (ILO).

Key words: Women's work, juvenile rights, labor law, benefits, legal protection, working conditions, gender equality, International Labor Organization, limitation of child labor, social guarantees, labor law.

Kirish: Jamiyatning taraqqiyoti va barqarorligi, eng avvalo, inson kapitalining har tomonlama rivojlanganiga bog'liq. Shu bois, har bir fuqaroning, xususan, ayollar va o'smirlarning mehnatga oid huquqlarini himoya qilish, ularga qulay va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Ayollar jamiyatda nafaqat onalik va tarbiyaviy vazifani, balki iqtisodiy faoliyatda ham faol ishtirok etadi. O'smirlar esa kelajak avlod sifatida alohida e'tibor va himoyaga muhtoj bo'lgan ijtimoiy guruh hisoblanadi. Shu sababli ham, ushbu ikki guruhga nisbatan mehnat sohasida alohida yondashuv, maxsus imtiyozlar va kafolatlar belgilanishi zarur. Bugungi globallashuv jarayonlarida mehnat migratsiyasi, ish o'rinlarining ko'pligi yoki

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

tanqisligi, ish beruvchilarning iqtisodiy manfaatdorligi kabi omillar ayrim hollarda ayollar va o'smirlarning mehnat huquqlarining buzilishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, o'smirlarni ruxsatsiz mehnatga jalb qilish, ayollarni mehnatda kamsitish yoki og'ir, salomatlikka zararli mehnat turlarida ishlatish holatlari hamon dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Shuningdek, gender tengligi, onalik huquqlari, mehnat ta'tili, qisqartirilgan ish vaqti, bolali ayollar uchun yaratiladigan sharoitlar kabi masalalar ham dolzarbligicha saqlanib qolmoqda.

Mazkur maqolada aynan shu masalalarning huquqiy asoslari, xalqaro va milliy qonunchilikdagi o'rni, amaliy muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari chuqur tahlil qilinadi. Mehnat qonunchiligi doirasida ayollar va o'smirlar uchun belgilangan imtiyozlar, kafolatlar va ularning amalga oshirilish mexanizmlari ilmiy yondashuv asosida ko'rib chiqiladi. Maqola orqali ushbu sohadagi mavjud muammolarga yechim topish, zamonaviy takliflar ishlab chiqish hamda huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish zarurligi asoslab beriladi.

Ayollar mehnatini huquqiy himoya qilish va ularga berilgan imtiyozlar: Ayollar mehnatini huquqiy himoya qilish va ularga belgilangan imtiyozlar mehnat qonunchiligining ajralmas qismi bo'lib, jamiyatda ayollarning teng huquqliligi va ijtimoiy himoyasini ta'minlashga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida ayollarga nisbatan maxsus normalar belgilangan bo'lib, bu normativ-huquqiy hujjatlar ayollarning mehnat huquqlarini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu qonunlarga muvofiq, ayollarning mehnat faoliyatini ijtimoiy himoya qilishga doir bir qator imtiyozlar hamda kafolatlar o'rnatilgan.

1. Homiladorlik va tug'ish ta'tili. Homiladorlik va tug'ish ta'tili ayollar uchun maxsus imtiyozlardan biridir. O'zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligiga ko'ra, ayollar homiladorlik va tug'ish ta'tilini olish huquqiga ega bo'lib, bu ta'til davomida ish haqi saqlanadi. Shuningdek, tug'ish ta'tili tugagach, ayollar ishlashga qaytishlari mumkin, lekin ish beruvchi ularni ishga qaytarishga majbur emas, faqat shartnoma bo'yicha qat'iy qo'llaniladigan me'yorlar mavjud. Bu ta'tilning davomiyligi homiladorlik davridan kelib chiqib, ikki oydan to'rt oygacha bo'lishi mumkin.

2. Ayollar uchun o'ziga xos ish sharoitlari. Mehnat qonunchiligida ayollar uchun noqulay sharoitlar yoki og'ir mehnat turlarida ishlashni taqiqlashga alohida e'tibor berilgan. Ayollarga er osti ishlari yoki og'ir va zararli sharoitlarda mehnat qilish man etilgan. Shuningdek, ish vaqti qisqartirilgan, ayniqsa, bolalari bor ayollar uchun maxsus ish vaqti va tanaffuslar berilgan. Ayollar, ayniqsa, onalik huquqiga ega bo'lishlari bilan, ularning mehnat faoliyatida sharoitlar yaxshilanadi, shuningdek, ayollarning o'z ijtimoiy himoyasini ta'minlash uchun davlat tomonidan turli xil kafolatlar taqdim etiladi.

3. Gender tengligi va mehnatda kamsitishning oldini olish. Ayollar uchun mehnat huquqlarini himoya qilishda gender tengligi ham katta ahamiyatga ega. Ayollarning mehnatda kamsitilishi, ularning mehnat haqi erkaklarga qaraganda

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

pastroq belgilanishi kabi muammolarni bartaraf etish uchun davlat tomonidan qat'iy choralar ko'riladi. Mehnat qonunchiligi, shuningdek, ish beruvchilarning gender tengligini ta'minlash, ayollarni diskriminatsiya qilmaslikka majbur qiladi. Ayollar mehnatini himoya qilishda asosiy maqsad, ularning ish joylarida teng sharoitlar, teng haqlar va xavfsiz ish muhitini yaratishdir.

4. Onalik imtiyozlari va bolali ayollarni qo'llab-quvvatlash. Ayollarni ijtimoiy himoya qilishda onalik huquqi alohida o'rin tutadi. Ayollar uchun yillik ta'til olish, shuningdek, birinchi yil davomida bolalari uchun qisqartirilgan ish vaqti va alohida tanaffuslar ko'rsatiladi. O'zbekiston qonunchiligida bolali ayollar uchun ish vaqtining 35 soatga qisqarishi, shuningdek, uch yoshgacha bolalari bor ayollarga maxsus ta'til huquqi berilishi belgilangan. Bu orqali ayollarning onalik majburiyatlarini bajarishi va ish faoliyatini davom ettirishi ta'minlanadi.

5. Xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash. Xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida, davlat tomonidan imtiyozli kreditlar ajratiladi, maxsus o'quv kurslari tashkil etiladi. Xotin-qizlar uchun iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash, ularni tadbirkorlikka jalb qilishga qaratilgan dasturlar ham mavjud. Ayollarni tadbirkorlikka rag'batlantirish maqsadida kreditlar, grantlar, va malaka oshirish kurslari taqdim etiladi, bu esa ayollarni iqtisodiy jihatdan mustahkam qilishga yordam beradi.

O'smirlar mehnatini cheklash va ularni himoya qilishga doir me'yorlar: O'smirlarning mehnat huquqlarini himoya qilish, ularning sog'ligi, xavfsizligi va ta'lim olishi uchun qulay sharoitlar yaratish jahonning barcha rivojlangan mamlakatlarida dolzarb masalalardan biridir. O'zbekistonda o'smirlar mehnati, ayniqsa, 16 yoshgacha bo'lgan bolalar mehnatiga qat'iy cheklovlar qo'yilgan. Mehnat qonunchiligida o'smirlar mehnatini himoya qilishga qaratilgan alohida normalar mavjud bo'lib, ularning asosiy maqsadi o'smirlarning mehnat faoliyatini faqat ular uchun xavfsiz va sog'liqni saqlashga zarar yetkazmasdan amalga oshirishdir.

1. O'smirlarning yoshi bo'yicha mehnat faoliyatiga qo'yiladigan cheklovlar. O'zbekistonda 16 yoshdan kichik o'smirlarning mehnat faoliyatiga ruxsat berilmaydi, faqat 16 yoshgacha bo'lgan o'smirlar, alohida, lekin qat'iy shartlar bilan ishlashlari mumkin. Bunday shartlarga asoslanib, mehnat shartnomasini faqatgina ishga ruxsat etilgan turlarida, ya'ni o'smirning jismoniy va ruhiy salomatligi uchun xavf tug'dirmaydigan ish turlari bilan tuzish mumkin. 16-18 yoshli o'smirlar esa mehnatni bajarishga ruxsat etilgan, lekin ular uchun qat'iy me'yorlar va cheklovlar mavjud.

2. Mehnat sharoitlari va ishlash soatlari. O'smirlarning mehnat sharoitlariga katta e'tibor qaratiladi. Mehnat qonunchiligida, 16-18 yoshli o'smirlarga haftasiga maksimal 36 soat ishlashga ruxsat beriladi. Bu esa ularga o'qish va boshqa ijtimoiy faoliyatlar bilan shug'ullanish imkoniyatini ham ta'minlaydi. Shuningdek, o'smirlarning ishlash soatlari 18 yoshga to'lmagan shaxslar uchun 12 soatdan oshmasligi kerak, va ular uchun tunda ishlash

taqiqlanadi. O'smirlar mehnatini og'ir yoki xavfli sharoitda amalga oshirishga ruxsat berilmaydi.

3. O'smirlar uchun taqiqlangan va ruxsat etilgan ish turlari. Mehnat qonunchiligida o'smirlar uchun ishlashga taqiqlangan, xavfli yoki jismoniy jihatdan og'ir ishlar alohida belgilangan. O'smirlar quyidagi ish turlarida ishlashga ruxsat berilmaydi:

Yer osti ishlar (mineral resurslarni qazib olish va boshqalar),

Og'ir jismoniy mehnat talab qiluvchi ishlar (masalan, yuk tashish, qurilish ishlarida ishlash),

Kimyoviy, biologik yoki radiatsion xavfga ega bo'lgan ishlar.

Shuningdek, o'smirlar uchun shaxsiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida mehnat shartnomasini tuzishdan avval ular uchun psixologik va sog'liqni saqlash tekshiruvlari o'tkazilishi zarur. Bu orqali o'smirlarning sog'lig'i va psixologik holati mehnatga tayyorligi baholanadi.

4. O'smirlarning ijtimoiy himoyasi va ta'til huquqlari. O'smirlar mehnat faoliyati bilan birga, ta'lim olishni davom ettirishi kerak. O'smirlar uchun ta'til olish huquqi ham alohida belgilanadi. Mehnat qonunchiligida o'smirlar uchun yillik ta'tilning minimal davomiyligi belgilangan, va ular uchun shuningdek, sog'liqni tiklash va dam olish uchun vaqt ajratish ham muhim ahamiyatga ega. Aytilganidek, o'smirlarning mehnat faoliyatini ta'minlashda ularning ta'lim olishi, sog'lig'iga zarar yetkazmaslik va umuman ijtimoiy rivojlanishlariga zarar yetkazmaslik asosiy tamoyil hisoblanadi.

5. Xalqaro hujjatlar va O'zbekistonning ularni amalga oshirishi. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) va BMT bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasiga ko'ra, 18 yoshga to'lmagan shaxslar mehnatga jalb qilinmasligi kerak bo'lib, ayniqsa ularning ta'lim olish, sog'lig'ini saqlash va o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashish huquqlari himoya qilinadi. O'zbekiston Respublikasi bu xalqaro me'yorlarga amal qilib, o'smirlar mehnatini himoya qilishda izchil siyosat yuritmoqda. Ular uchun maxsus mehnat qonunlari va normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan va bu qonunlar o'smirlar uchun eng qulay mehnat sharoitlarini yaratishga qaratilgan.

Ayollar va o'smirlar mehnatini himoya qilishda davlat va ijtimoiy tashkilotlarning roli. Ayollar va o'smirlar mehnatini himoya qilish, ularning ijtimoiy himoyasini ta'minlash va ishlash sharoitlarini yaxshilash masalalari faqatgina mehnat qonunchiligi doirasida emas, balki davlat va ijtimoiy tashkilotlarning faoliyati orqali ham amalga oshiriladi. Davlat va ijtimoiy tashkilotlar o'zlarining har tomonlama faoliyati orqali ayollar va o'smirlarning huquqlarini himoya qilishga doir muhim chora-tadbirlarni amalga oshiradilar.

1. Davlatning roli: Mehnat qonunchiligi va nazorat

O'zbekiston Respublikasi hukumati ayollar va o'smirlarning mehnat huquqlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratmoqda. Buning uchun quyidagi asosiy mexanizmlar joriy etilgan:

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

a) Mehnat kodeksi va qonunlar. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, Xotin-qizlar va bolalar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan boshqa qonunlar orqali davlat mehnat sharoitlarini yaxshilash, gender tengligini ta'minlash va ayollar hamda o'smirlar uchun xavfsiz ish sharoitlarini yaratishga harakat qiladi. O'zbekiston Mehnat kodeksi ayollarning mehnat huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bir qator maxsus normalarni o'z ichiga oladi. Jumladan, ayollarga homiladorlik va tug'ish ta'tili, yillik ta'til, tibbiy tekshiruvlardan o'tkazish kabi kafolatlar beriladi.

b) Ijtimoiy himoya va ta'minot tizimi. Davlat, shuningdek, ayollar va o'smirlar uchun ijtimoiy ta'minotni amalga oshirishda ishtirok etadi. Ayollar va o'smirlar, ayniqsa, onalar uchun bevosita ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimi orqali ta'minlanadi. Bunda, homilador ayollarni vaqtincha mehnatga jalb qilmaslik, ularni ijtimoiy va mehnat huquqlarini himoya qilish muhimdir. Shuningdek, davlat tomonidan o'smirlar uchun ishlashni cheklash va o'smirlarning xavfsizligi uchun maxsus shartlar joriy etiladi.

c) Mehnat nazorati va monitoring. Davlat o'z nazorati ostida ayollar va o'smirlarning mehnat sharoitlarini monitoring qilib boradi. Ish beruvchilar, ayniqsa ayollar va o'smirlar mehnatini qabul qilayotgan tashkilotlar, davlat tomonidan tekshiriladi va ularning faoliyati doimiy nazorat ostida bo'ladi. Ishga qabul qilishda gender tengligini va yoshga oid cheklovlarni buzish holatlari aniqlanganida, hukumat tegishli chora-tadbirlar ko'radi.

2. Ijtimoiy tashkilotlarning roli: Himoya va ta'lim-tarbiyaviy dasturlar

Ijtimoiy tashkilotlar, jumladan, xotin-qizlar va bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi notijorat tashkilotlar hamda davlat idoralari ayollar va o'smirlarning mehnatini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Ular quyidagi sohalarida faoliyat ko'rsatadilar:

a) Ma'rifat va ta'lim berish. Ijtimoiy tashkilotlar mehnat huquqlari bo'yicha ma'rifiy dasturlarni tashkil etadilar. Bu dasturlar ayollar va o'smirlarni o'z huquqlari va imkoniyatlari haqida xabardor qilishga qaratilgan. Tashkilotlar o'smirlar va ayollarga gender tengligi, mehnat huquqlari, kamsitishning oldini olish va ish joylaridagi xavfsizlik kabi masalalar bo'yicha ta'lim beradi. Xususan, ayollarga va o'smirlar uchun xavfsiz ish sharoitlari yaratishga doir normativ hujjatlar, mehnat shartnomasi tuzish bo'yicha ko'rsatmalar va yuridik maslahatlar taqdim etiladi.

b) Yuridik yordam va himoya. O'smirlar va ayollar mehnat huquqlari buzilgan taqdirda, ijtimoiy tashkilotlar tomonidan yuridik yordam ko'rsatiladi. Bu tashkilotlar fuqarolarga yuridik maslahatlar berib, ularni ish joylarida kamsitish, suiiste'mol qilish holatlariga qarshi huquqiy himoya qiladi. Ayollar va o'smirlar uchun advokatlar tomonidan himoya xizmatlari ham taqdim etiladi, bu esa ular o'z huquqlarini amalga oshirishda muammolarga duch kelmasliklarini ta'minlaydi.

c) Reabilitatsiya va ijtimoiy reabilitatsiya dasturlari. Mehnat huquqlari buzilgan yoki diskriminatsiyaga uchragan ayollar va o'smirlar uchun reabilitatsiya

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

va ijtimoiy rehabilitatsiya dasturlari tashkil etiladi. Bu dasturlar yordamida, ayollar va o'smirlar jismoniy va ruhiy zararlarni tiklash, yangi kasblar va imkoniyatlar haqida ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Shu bilan birga, ijtimoiy tashkilotlar tomonidan bu kabi shaxslar uchun psixologik yordam, o'qish va kasb-hunar o'rganish imkoniyatlari taqdim etiladi.

d) Mehnat huquqlarini himoya qilish bo'yicha kampaniyalar. Ijtimoiy tashkilotlar turli kampaniyalar orqali ayollar va o'smirlarning huquqlarini himoya qilishga chaqiradilar. Bunday kampaniyalar, mediya va ommaviy axborot vositalari orqali odamlar orasida huquqiy xabardorlikni oshirishga qaratilgan. Tashkilotlar davlat organlari bilan hamkorlikda mehnat qonunlarining buzilishiga qarshi kurashadi va mehnat qonunchiligiga oid yangiliklarni ommaga yetkazadilar.

3. Xalqaro tashkilotlar va O'zbekistonning ularga amal qilishi. O'zbekiston Respublikasi xalqaro tashkilotlar, jumladan, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) va BMT bolalar huquqlari konvensiyasiga imzo chekkan. Ushbu tashkilotlarning mehnat huquqlariga oid normalariga rioya qilish davlat va ijtimoiy tashkilotlar uchun majburiydir. XMTning ko'rsatmalariga asosan, ayollar va o'smirlar mehnatini himoya qilishda eng zamonaviy va xalqaro talablarga mos keladigan qonunlar ishlab chiqilmoqda. O'zbekistonning xalqaro mehnat huquqlariga mos keladigan qonunlarni qabul qilish va amalda qo'llashdagi roli ayniqsa muhim.

Xulosa: Ayollar va o'smirlarning mehnatini himoya qilish, ularning ijtimoiy huquqlarini ta'minlash va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish zamonaviy jamiyatning asosiy qadriyatlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi bu borada muhim qadamlar qo'yib, o'zining mehnat qonunchiligida ayollar va o'smirlarning huquqlarini himoya qilishga katta e'tibor qaratmoqda. Mehnat kodeksi, shuningdek, turli xalqaro me'yorlar va hujjatlar asosida, o'smirlar va ayollar uchun xavfsiz va teng sharoitlar yaratish uchun zarur huquqiy normalar ishlab chiqilgan. Davlat va ijtimoiy tashkilotlar o'zlarining faoliyatlari orqali mehnat huquqlarining buzilishi holatlarining oldini olishga, mehnat sharoitlarini yaxshilashga va ayollar hamda o'smirlarning huquqlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratmoqda. Davlat tomonidan amalga oshirilgan nazorat, mehnat qonunlari va me'yorlarini amalda qo'llash orqali ish beruvchilarni ayollar va o'smirlar uchun xavfsiz va sog'lom ish sharoitlari yaratishga majbur qilishga qaratilgan. Ijtimoiy tashkilotlar esa ma'rifat va ta'lim berish, yuridik yordam ko'rsatish, rehabilitatsiya dasturlarini amalga oshirish orqali jamiyatda ayollar va o'smirlarning mehnat huquqlarini himoya qilishda katta rol o'ynaydi. Ular orqali fuqarolar o'z huquqlaridan xabardor bo'lib, huquqiy himoyaga ega bo'lishlari mumkin.

Bundan tashqari, o'smirlar va ayollar uchun mehnat faoliyatida yoshga va jinsga nisbatan kamsitishni oldini olish, ularning sog'ligi va ta'lim olish huquqlarini himoya qilish jamiyatda adolatni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, XMT va BMT tomonidan belgilangan talablar ham mamlakatda o'smirlar va ayollar mehnatini himoya qilishni mustahkamlashga

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

xizmat qiladi. Umuman olganda, ayollar va o'smirlar mehnatini himoya qilishda davlatning qonunlar va me'yoriy hujjatlar ishlab chiqishdagi roli, ijtimoiy tashkilotlarning huquqiy yordam ko'rsatishdagi ishtiroki va xalqaro me'yorlarga rioya qilish jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, 2020 y.
2. "Xotin-qizlar va bolalar huquqlarini himoya qilish" (O'zbekiston Respublikasi qonunlari).
3. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) - Mehnat huquqlari va gender tengligi, 2019 y.
4. BMT bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi, 1989 y.
5. J. J. Hamilton, "Gender va mehnat huquqlari: Jamiyatda tenglikka erishish", 2018 y.
6. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, "Ayollar va o'smirlarning sog'ligi va mehnat huquqlari", 2021 y.
7. Sh. Abdurahmanov, "Ayollar va o'smirlar mehnatini himoya qilish: Qonunchilik va amaliyot", Toshkent, 2020 y.



**PROFESSIONAL TA'LIM YO'NALISHIDA LABORATORIYA
MASHG'ULOTLARIDA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN
YONG'INLARNI OLDINI OLISHNING ZAMONAVIY USULLARI**

Nasriddinov Jasurbek Muxammadjon o'g'li

Jasurbek3786@gmail.com

Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Professional ta'lim yo'nalishlarida olib boriladigan laboratoriya mashg'ulotlari davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yong'in xavfini kamaytirish va uni oldini olishning zamonaviy usullarini o'rganishga bag'ishlangan. Unda yong'in xavfsizligini ta'minlashda avtomatlashtirilgan yong'in aniqlash va o'chirish tizimlari, xavfli moddalarni to'g'ri saqlash, xodimlar va o'quvchilarning yong'in xavfsizligi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish, shuningdek, yong'inga chidamli materiallardan foydalanish kabi chora-tadbirlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Kimyoviy moddalar, laboratoriya, yong'in, xavf, kimyoviy moddalarni saqlash, avtomatik yong'inga qarshi tizim.

Annotation. It is dedicated to studying modern methods of reducing and preventing fire hazards that may arise during laboratory training in vocational education. It analyzes measures to ensure fire safety, such as automated fire detection and extinguishing systems, proper storage of hazardous substances, improving the knowledge and skills of employees and students on fire safety, as well as the use of fire-resistant materials.

Key words: Chemicals, laboratory, fire, danger, chemical storage, automatic fire suppression system.

Zamonaviy ilm-fan taraqqiyotida laboratoriyalar muhim o'rin egallaydi. Turli ilmiy tadqiqotlar, tajribalar va tahlillar aynan shu joylarda olib boriladi. Biroq, laboratoriya muhitida xavfsizlikni ta'minlash, ayniqsa yong'in xavfini oldini olish, har doim dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Kimyoviy moddalar, elektr jihozlari va boshqa omillar laboratoriyalarda yong'in chiqish xavfini oshiradi. Shu sababli, yong'inning oldini olish bo'yicha choralarni bilish va ularga qat'iy amal qilish har bir xodim va talabaning uchun muhim vazifadir.

Ilmiy-tadqiqot ishlari, tibbiyot, kimyo, biologiya va boshqa sohalarda laboratoriya xonalari muhim rol o'ynaydi. Biroq bu xonalarda turli kimyoviy moddalar, elektr asbob-uskunalar, yonuvchi materiallarning mavjudligi yong'in xavfini oshiradi. Shuning uchun laboratoriyalarda yong'in xavfsizligini ta'minlash eng ustuvor vazifalardan biridir.

Bugungi kunda laboratoriya xonalarida ishlash mobaynida yong'in xavfsizligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki yong'in bog'liq baxtsiz hodisalarning talofatlari achinarli va keng ko'lamli hisoblanadi

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

Insonlar yer kurrasidagi barcha turlar (jonzo'tlar) orasida, olovni boshqarish, undan foydalana olish buyicha noyob qobiliyatga ega. Ushbu qobiliyatdan kelib chiqqan holda, olov insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishida juda katta rol o'ynadi. Insonlarning ilmiy va texnologik yutuqlari, shuningdek, ularning kundalik hayoti olovning boshqarilishiga, ishlatilishiga bog'liq. Olov ovqatni pishirish, uylarni isitish, dvigatellarni ishga tushirish, metallarni eritib yuborish, elektr energiyasini ishlab chiqarish va har qanday ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish uchun ishlatiladi. Yong'in tabiatda inson hayot faoliyatida muhim o'rin egallaydi. Yong'in moddaning o'zi emas, balki issiqlik va yorug'lik shaklida energiya ishlab chiqarish uchun turli xil moddaning reaksiyasini o'z ichiga oladi. Ayniqsa, nazoratsiz bo'lsa, halokatli bo'lishi xar xildagi katta yong'inlarni keltirib chiqarishi mumkin, ammo u ko'p foydali ishlarga ham xizmat qiladi.

Yong'in - bu nazorat qilib, bo'lmaydigan hodisa bo'lib, bebaho moddiy va madaniy boyliklarni bir daqiqada yo'q qiluvchi, atrof-muhitni izdan chiqaruvchi ofat ayniqsa, u fuqarolarning joniga kulfat keltiruvchi favquloddagi vaziyatdir. Yong'inning kelib chiqishi uch omilning bir vaqtda, bir joyda duch kelishining oqibatidir, ya'ni:

- yonuvchan moddani (neft, qog'oz, yog'och va boshqalar):
- havo harorati (issiqlik),
- uchqun-alanga (gugurt, uchqun, elektr simining qisqa tutashuvi)[3].

Laboratoriya xonalarda yong'in xavfsizligini ta'minlash uchun quyidagi zamonaviy usullarni qo'llash maqsadga muvofiq.

1. Avtomatlashtirilgan yong'in aniqlash va ogohlantirish tizimlari.

Bugungi kunda ko'plab zamonaviy laboratoriyalarda yong'inni dastlabki bosqichida aniqlashga qodir detektorlar va sensorlar o'rnatiladi. Ular tutun, harorat yoki gaz chiqindilarini aniqlab, markaziy boshqaruv tizimiga signal yuboradi. Bu esa yong'in tarqalishidan oldin chora ko'rishga imkon yaratadi.

2. Yong'inga qarshi avtomatik o'chirish tizimlari.

Zamonaviy laboratoriyalarda suv purkagich tizimlari (sprinkler), ko'pik va inert gaz asosidagi avtomatik yong'in o'chirish tizimlari keng qo'llanilmoqda. Xususan, elektr asboblari ko'p ishlatiladigan laboratoriyalarda suv emas, balki CO₂ yoki inert gazlardan foydalaniladi, bu asbob-uskunalarga zarar yetkazmaydi.

3. Kimyoviy moddalarning xavfsiz saqlanishi.

Zaharli, portlovchi va tez yonuvchi kimyoviy moddalar maxsus xavfsiz konteynerlarda, belgilangan haroratda va alohida ventilyatsiya tizimi bilan ta'minlangan joylarda saqlanishi kerak. Shuningdek, ularni belgilangan miqdordan oshirmay saqlash ham muhimdir.

4. Xodimlar xavfsizlik bo'yicha doimiy o'qitilishi.

Yong'in xavfsizligini ta'minlashda inson omili muhim rol o'ynaydi. Laboratoriya xodimlari yong'in yuzaga kelganda qanday harakat qilish, yong'in o'chirish moslamalaridan qanday foydalanish, evakuatsiya tartibi haqida doimiy ravishda malaka oshirishlari lozim.

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

5. Videokuzatuv va aqlli monitoring tizimlari.

Zamonaviy videokuzatuv kameralar va aqlli monitoring tizimlari orqali laboratoriya ichidagi harakatlar real vaqt rejimida kuzatilib, xavfli vaziyatlar oldindan aniqlanishi mumkin. Bu esa yong'in xavfining oldini olishda samarali vosita hisoblanadi.

6. Materiallar va jihozlar tanlovida yong'inbardoshlikka e'tibor.

Laboratoriyada ishlatiladigan mebellar, qurilmalar, kabel va boshqa materiallar yong'inga chidamli bo'lishi zarur. Bu yong'in tarqalish tezligini kamaytiradi va o'chirishni osonlashtiradi.

O'quv laboratoriya xonalarda kimyoviy moddalarni saqlash bo'yicha quyidagi talablar qo'yiladi:

1.1-jadval. Kimyoviy moddalarni saqlash bo'yicha jadval

Modda turi	Saqlash sharoiti	Saqlash idishi	Maxsus belgilanish
Yonuvchan suyuqliklar	Sovuq, shamollatilgan, olovdan yiroq joyda	Yopiq metall yoki maxsus shisha idish	Qizil rangli belgilar bilan
Kislotali moddalar	Metall bilan aloqasiz, salqin va quruq joyda	Plastmassa yoki maxsus shisha idish	Ehtiyot belgisi ("Zaharli")
Ishqorli moddalar	Namlikdan himoyalangan, salqin joyda	Plastmassa yoki seramika idish	Sariq rangli belgilar bilan
Oksidlovchi moddalar	Yonuvchan moddalar va metallardan alohida	Shisha idish, yaxshi yopilgan	Oq rangli belgilar bilan
Zaharli gazlar	Maxsus gaz ballonlarida, ventilyatsiyali joyda	Metall ballon (rangli belgili)	"Zaharli gaz" belgisi
Portlovchi moddalar	To'liq xavfsiz sharoitda, faqat maxsus joyda	Mustahkam yopiladigan konteyner	"Portlash xavfi" belgisi
Suv bilan reaksiyaga kirishuvchilar	Quruq va havo namligidan himoyalangan joyda	Yopiq idishda, gel paketlar bilan	"Suv bilan reaksiya" belgisi

Zamonaviy avtomatik yong'inga qarshi tizim - bu korxonada kerakli yong'in xavfsizligini ta'minlashga yordam beradigan uskunalar majmuasi. Zamonaviy avtomatlashtirilgan vositalar dastlabki bosqichda olovni aniqlash va

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

olovni katta hududga tarqatishdan oldin uni yo'q qilish kerakligini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Avtomatlashtirilgan yong'inga qarshi tizimlar keng va turli ob'ektlarda qo'llaniladi.

Ularni o'rnatish va ulardan foydalanish zaruriyati va tartibi maxsus normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yong'in xavfsizligi qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2020-yil 20-oktabrdagi 649-sonli qarorining 16-bobida "Avtomatik yong'inni o'chirish qurilmalariga qo'yiladigan talablar" ko'rsatib o'tilgan. Avtomatik yong'inga qarshi vositalar boshqa yong'inga qarshi vositalarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega:

- yong'in boshlanishiga tezkor javob berish imkoniyati;
- yong'inni o'chirish uchun turli moddalar ishlatilishi mumkin;
- yong'in o'chirish tizimini ishga tushirish uchun insonning mavjudligi majburiy emas;
- turli darajadagi murakkablikning yong'in o'choqlariga qarshi kurashning yuqori samaradorligi;
- yong'in signallari bilan yaxshi ishlashligi

Ushbu avtomatik tizimni keng o'rgangan holda ilmiy tadqiqotlarni olib borish orqali yurtimizda yong'inni oldini olishning zamonaviy usullarini tadbiq etish zamon talabi bo'lib, qolmoqda.

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalarni amalda joriy etish har bir soxada muhim ahamiyat kasb etmoqda, shuni chuqur anglagan holda respublikamizdagi korxonalar, tashkilotlarda, omborlarda, turar joy binolarida zamonaviy yong'inga qarshi tizimlarni keng qo'llash orqali o'z hayotimizni yaqinlarimizni mol-mulkimizni asrashning maqbul yo'lidani yurgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. A.Qudratov va boshqalar "Hayotiy faoliyat xavfsizligi" ma'ruza kursi Toshkent "Alochi" 2005 174-185 b
2. A.Qurbonov "Binoning o'tga chidamliligi" kurs loyihasi Namangan 2018
3. I.Nigmatov, M.Tojiyev "Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi" Toshkent «Iqtisodmoliya» 2011 102-105 b
4. Russ Botting "The Impact of Post-Earthquake Fire on the Urban Environment" Fire Engineering Research Report June 1998 14-25 b
5. <https://pnsn.org/outreach/earthquakehazards/fire>
6. [https://topex.ucsd.edu/es10/es10.1997/lectures/lecture20/secs.with.pics/no de10.html](https://topex.ucsd.edu/es10/es10.1997/lectures/lecture20/secs.with.pics/no%20de10.html)
7. <http://www.faymakine.com.tr/Default.asp?P=0&L=7&K=0&K1=19>
8. Masharipov R.R. "Hayotiy faoliyat xavfsizligi (Yong'in xavfsizligi)" Uslubiy qo'llanma Toshkent 2011 37-42 b
9. Turagalov , T. D. ., & Nasriddinov , N. J. M. o'g'li. (2022). ZAMONAVIY YONG'IN O'CHIRISH AVTOMATIK TIZIMLARNING

АНАМИЯТИ ВА МУАММОЛАРИ. Евразийский журнал академических исследований, 2(6), 705–709. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/2306>

10. Nasriddinov Jasurbek Muxammadjon o'g'li. (2022). SANOAT KORXONA3.LARIDAN CHIQUYOTGAN ZARARLI MODDALARNI SABABLARI VA YECHIMLARI. Zamonaviy fan va ilmiy tadqiqotlar bo'yicha xalqaro konferentsiya materiallari , 1 (3), 144 149. <https://econferenceseries.com/index.php/icmsss/article/view/597> dan olindi

11. Nasriddinov Jasurbek Muxammadjon o'g'li, Qodirov Diyorbek Bo'ltak o'g'li, MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH “Hodimlarni shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish tartibi” jild. 3-son 29 (2023-yil) <https://interonconf.org/index.php/ger/article/view/9270>



PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA YONG'IN O'CHIRGICHLAR O'QITISH METODLARI

Nuraliyev Abdulhamid Oybek o'g'li
Namangan davlat universiteti
Sharipov Abdulvahob Muhibjon o'g'li
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yong'in o'chirgichlarning tuzilishi, ishlash prinsipi va ularni ekspluatatsiya qilish qoidalari batafsil yoritilgan. Yong'in o'chirgichlar turli xil yong'in turlariga qarab farqlanadi va har bir turining o'ziga xos tarkibiy tuzilishi hamda ishlash mexanizmi mavjud. Maqolada yong'in o'chirgichlarning asosiy turlari – ko'pikli, changli, uglerod angidridli va boshqa modellari haqida ma'lumot berilib, ularning qaysi turdagi yong'inlarni o'chirish uchun samarali ekani tushuntiriladi. Shuningdek, maqolada yong'in o'chirgichlarning tarkibiy qismlari, ularning ishlash tamoyillari va har bir modelning afzallik hamda kamchiliklari tahlil qilinadi. Ushbu qurilmalarni samarali ishlatish uchun ularni to'g'ri saqlash, o'z vaqtida texnik xizmat ko'rsatish va favqulodda holatlarda qanday qo'llash kerakligi bo'yicha muhim tavsiyalar beriladi. Bundan tashqari, maqolada yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xalqaro va mahalliy me'yoriy hujjatlar, yong'in o'chirgichlardan foydalanish bo'yicha amaliy yo'riqnomalar ham bayon etilgan. Ushbu maqola yong'in xavfsizligi bo'yicha mutaxassislar, sanoat va qurilish sohasi vakillari hamda keng jamoatchilik uchun foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

Annotation: This article describes in detail the structure, operating principle and rules for their operation of fire extinguishers. Fire extinguishers differ depending on the type of fire, and each type has its own structural structure and operating mechanism. The article provides information about the main types of fire extinguishers - foam, powder, carbon dioxide and other models, and explains which types of fires they are effective for extinguishing. The article also analyzes the components of fire extinguishers, their operating principles and the advantages and disadvantages of each model. In order to use these devices effectively, important recommendations are given on their proper storage, timely maintenance and use in emergency situations. In addition, the article describes international and local regulatory documents on ensuring fire safety, as well as practical instructions for using fire extinguishers. This article will serve as a useful resource for fire safety professionals, industry and construction professionals, and the general public.

Kalit so'zlar: Yong'in o'chirgich, yong'in xavfsizligi, o't o'chirish vositalari, ekspluatatsiya qoidalari, texnik xizmat, ko'pikli o'chirgich, changli o'chirgich, uglerod angidridli o'chirgich, yong'inga qarshi choralar, xavfsizlik me'yorlari.

Key words: Fire extinguisher, fire safety, fire extinguishing agents, operating rules, maintenance, foam extinguisher, powder extinguisher, carbon dioxide extinguisher, fire prevention measures, safety standards.

Ключевые слова: Огнетушитель, пожарная безопасность, огнетушители, правила эксплуатации, техническое обслуживание, пенный огнетушитель, пылеутушитель, углекислотный огнетушитель, меры пожарной безопасности, нормы безопасности.

Kirish: Yong'in xavfsizligi inson hayoti, mulki va atrof-muhitni muhofaza qilishda muhim o'rin tutadi. Yong'inlarning oldini olish va ularni samarali bartaraf etish maqsadida turli xavfsizlik choralarini ko'rish talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan, yong'in o'chirgichlar eng asosiy himoya vositalaridan biri hisoblanadi. Ular turli xil yong'in turlarini o'chirish uchun mo'ljallangan bo'lib, o'z tuzilishi, ishlash prinsipi va qo'llash sohalariga ko'ra farqlanadi.

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

Bugungi kunda yong'in o'chirgichlarning turli modifikatsiyalari mavjud bo'lib, ular har xil yonish jarayonlarini bostirishga mo'ljallangan. Masalan, ko'pikli yong'in o'chirgichlar suyuq yonuvchi moddalarni o'chirishda samarali bo'lsa, changli yong'in o'chirgichlar elektr qurilmalardagi yong'inlarni bartaraf etishda keng qo'llaniladi. Shuningdek, uglerod angidridli o'chirgichlar kimyoviy reaktiv moddalar mavjud bo'lgan muhitlarda xavfsiz ishlatilishi bilan ajralib turadi. Yong'in o'chirgichlardan to'g'ri foydalanish va ularni texnik jihatdan soz holda saqlash – xavfsizlikni ta'minlashning muhim omillaridan biridir. Shu bois, yong'in o'chirgichlarning tuzilishini tushunish, ularni ekspluatatsiya qilish qoidalarini bilish va o'z vaqtida texnik xizmat ko'rsatish har qanday tashkilot va xonadon uchun dolzarb masalalardan sanaladi. Ushbu maqolada yong'in o'chirgichlarning asosiy turlari, ularning ishlash mexanizmi, texnik xizmat ko'rsatish talablari hamda xavfsiz foydalanish qoidalari batafsil yoritiladi.

Yong'in o'chirgichlarning tuzilishi va ishlash prinsipi. Yong'in o'chirgichlar bosim ostida saqlanadigan maxsus moddalar yordamida yong'inni bostirishga mo'ljallangan qurilmalardir. Ularning ishlash mexanizmi o't o'chirish moddasi va chiqarish tizimiga bog'liq. Ko'pchilik yong'in o'chirgichlar tarkibida siqilgan gaz bo'lib, bu bosim hosil qiladi va faollashtirilganda o't o'chirish moddasini tashqariga chiqaradi. Ishlatilgan modda turiga qarab, u kislorod bilan aloqani to'xtatishi, yonish haroratini pasaytirishi yoki kimyoviy reaksiyalar orqali olovni bostirishi mumkin. Ko'pikli yong'in o'chirgichlar yonuvchi suyuqliklar va qattiq materiallarni o'chirishda samarali bo'lib, ularning ko'pigi yong'in ustini yopib, kislorod kirishini oldini oladi. Uglerod dioksidli yong'in o'chirgichlar esa elektr jihozlari va yog'och mahsulotlari yong'inini o'chirish uchun ishlatiladi, chunki CO₂ kislorod miqdorini kamaytirib, yonishni to'xtatadi. Changli yong'in o'chirgichlar deyarli barcha turdagi yong'inlar uchun mos bo'lib, yonish reaksiyasini kimyoviy yo'l bilan bostiradi. Yong'in o'chirgichlarning samaradorligi ularning to'g'ri ishlatilishiga bog'liq. Noto'g'ri foydalanish yoki texnik xizmat ko'rsatmaslik oqibatida ular ishdan chiqishi mumkin. Doimiy nazorat va muddatli sinovlar orqali ularning har doim ishga yaroqli holatda bo'lishi ta'minlanishi kerak.

Yong'in o'chirgichlarning turlari va ularning qo'llanishi. Yong'in o'chirgichlar turli xil yong'inlarni o'chirish uchun mo'ljallangan va har biri o'zining maxsus ishlash prinsipiga ega. Har bir tur o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uning qo'llanilishida muayyan sharoitlar va ehtiyot choralari rioya qilish talab etiladi.

Ko'pikli yong'in o'chirgichlar suyuqliklar va qattiq moddalar yong'inini o'chirishda samarali. Ular ko'pik hosil qiladi, bu ko'pik yonayotgan material ustini qoplaydi va kislorod bilan aloqani uzadi, shunday qilib olovning yo'qolishiga olib keladi. Bu turdagi o't o'chirgichlar, asosan, yog'och, mato, qog'oz va boshqa suyuq moddalar yong'inlari uchun ishlatiladi. Ammo, elektr jihozlar yong'inida foydalanish xavfli bo'lishi mumkin, chunki ko'pik elektr tizimlarini ishdan chiqarishi yoki elektr shokkini keltirib chiqarishi mumkin.

Uglerod dioksidli (CO₂) yong'in o'chirgichlar elektr uskunalari va gazlar yong'inlarini o'chirish uchun idealdir. CO₂ gaz sifatida ishlatiladi va kislorodni siqib chiqaradi, shuningdek, olovning yuqori haroratini pasaytiradi. Bu turdagi yong'in o'chirgichlar elektr jihozlari, kompyuterlar, telefonlar va boshqa muhim uskunalar uchun xavfsizdir. Biroq, CO₂ gazining ishlatilishi yopiq va havo etishmovchiligi bo'lgan joylarda xavfli bo'lishi mumkin, chunki u nafas olish tizimiga zarar etkazishi mumkin.

Chang (poroshokli) yong'in o'chirgichlar turli xil yong'inlarga qarshi samarali vosita hisoblanadi. Ular qattiq moddalar, suyuqliklar va gaz yong'inlarini o'chirish uchun ishlatiladi. Poroshok moddalari yonish reaksiyasini kimyoviy yo'l bilan to'xtatadi va qayta alanga olish ehtimolini kamaytiradi. Bu turdagi yong'in o'chirgichlar deyarli barcha yong'in turlari uchun mos keladi, ammo ular ishlatilganda qoldirgan chang elektr uskunalari ishdan chiqarishi mumkin va tizimga zarar yetkazishi mumkin.

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

Gazli yong'in o'chirgichlar asosan server xonalari, kompyuterlar va elektronika bilan jihozlangan joylar uchun mos keladi. Bu o'chirgichlar inert gazlar (halon, argon yoki azot) yordamida ishlaydi va bu gazlar kislorod bilan aloqani uzish orqali olovni to'xtatadi. Gazli tizimlar yong'in o'chirgichlarining afzalligi shundaki, ular atrof-muhitga minimal zarar etkazadi, ammo ular qimmat bo'lishi mumkin va ekologik xavflarni hisobga olish zarur.

Yong'in o'chirgichlar turini tanlashda har doim yong'in manbai va uning ehtimoliy zararini hisobga olish kerak. Har bir tur o'zining maxsus vazifalarini bajarishda samarali bo'ladi, shuning uchun ularni noto'g'ri ishlatish xavfli va samarali bo'lmasligi mumkin.

Yong'in o'chirg'ichlarning ekspluatatsiyasi va noto'g'ri foydalanish oqibatlari

Yong'in o'chirgichlarining ekspluatatsiyasi va noto'g'ri foydalanish oqibatlari haqida quyidagi ma'lumotlar mavjud: Yong'in o'chirgichlarining ekspluatatsiyasi ularning samarali ishlashini ta'minlash uchun muhimdir. To'g'ri ishlatilmagan yoki noto'g'ri saqlangan o't o'chirgichlar yong'in paytida ishdan chiqishi mumkin, bu esa jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Yong'in o'chirgichlarni ishlatishdan oldin, ularning texnik holati va ishlash imkoniyatlarini tekshirish zarur. Noto'g'ri foydalanishning eng katta xavfi - o't o'chirgichlarning faolsizlanishi yoki ishlamasligidir, bu esa olovni to'xtata olish qobiliyatining yo'qolishiga olib keladi. Agar o't o'chirgichni noto'g'ri ishlatgan bo'lsangiz, masalan, yong'in turiga mos kelmaydigan o't o'chirgichdan foydalansangiz, bu yong'in maydonining kengayishiga va uning boshqarilmas holga kelishiga olib kelishi mumkin. Bunda ko'pikli o't o'chirgichlar suyuqliklarni o'chirishda, uglerod dioksidli (CO_2) o't o'chirgichlar esa elektr jihozlarida samarali emas. Shuningdek, noto'g'ri saqlash va xizmat ko'rsatmaslik ham o't o'chirgichlarning ishlashiga ta'sir qiladi. Masalan, ko'pikli o't o'chirgichlar muzlashga moyil, bu ularni ishlatilmasdan oldin sinovdan o'tkazish zarurligini anglatadi. Shuningdek, yong'in o'chirgichlarning ishlash muddati tugagan yoki ularni noto'g'ri saqlash, ularning o'chirish quvvatini pasaytirishi mumkin. Bunday holatlar, albatta, odamlarning xavfsizligini tahdid qiladi va kuchli yong'inlar yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun yong'in o'chirgichlarning to'g'ri ekspluatatsiyasi juda muhimdir.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, yong'in o'chirgichlarining to'g'ri ekspluatatsiyasi xavfsizlikni ta'minlash va yong'inlarning oldini olishda juda muhimdir. Agar yong'in o'chirgichlar to'g'ri saqlanmasa yoki ishlatilmasa, ular ishdan chiqishi yoki samarali bo'lmasligi mumkin. Noto'g'ri foydalanish, masalan, yong'in turiga mos kelmaydigan o't o'chirgichni tanlash, yong'in o'chirish jarayonini samarali amalga oshirishni imkonsiz qiladi. Bu esa yong'in tarqalishini tezlashtirishi va katta moliyaviy va insoniy zarar keltirishi mumkin. Yong'in o'chirgichlarini muntazam tekshirish, ularni to'g'ri saqlash va ishlatish zarurati, yong'in xavfini kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, o't o'chirgichlar faqat tegishli joylarda va kerakli vazifalar uchun ishlatilishi lozim. Masalan, ko'pikli o't o'chirgichlar faqat suyuqlik va qattiq moddalar yong'inlarini o'chirishda samarali, lekin elektr o'chirishda zarar yetkazishi mumkin. Yong'in o'chirgichlarning ishlashiga doir bilimlar va ulardan samarali foydalanish yong'inlarni erta bosqichda o'chirishga va katta zararlarni oldini olishga yordam beradi. Shuningdek, yong'in o'chirgichlarning ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan xizmat ko'rsatish muddatlarini inobatga olish, ularning samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

O't o'chirgichdan foydalanish uchun sizga quyidagilar kerak bo'ladi:

- qurilmani o'rnatilgan joydan olish;
- muhrni (plombani) buzish;
- og'zini qat'iy gorizontal ravishda joylashtirish;
- richagni bosish;
- o't o'chirgichdan chiquvchi vositani olov tomon yo'naltirish.

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. M. Ibragimov, T. M. Davronov "Yong'in xavfsizligi va texnikalarni ekspluatatsiya qilish" -.
2. M. S. Karimov "Yong'in xavfsizligi asoslari" -.2019
3. B. R. To'laganov "Texnik xavfsizlik va yong'in xavfsizligi" -.2020
4. Turagalov , T. D. ., & Nasriddinov , N. J. M. o'g'li. (2022). ZAMONAVIY YONG'IN O'CHIRISH AVTOMATIK TIZIMLARINING AHAMIYATI VA MUAMMOLARI. Евразийский журнал академических исследований, 2(6), 705–709. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/2306>
5. Nasriddinov Jasurbek Muxammadjon o'g'li. (2022). SANOAT KORXONALARIDAN CHIQUYOTGAN ZARARLI MODDALARNI SABABLARI VA YECHIMLARI. Zamonaviy fan va ilmiy tadqiqotlar bo'yicha xalqaro konferentsiya materiallari , 1 (3), 144 149. <https://econferenceseries.com/index.php/icmsss/article/view/597> dan olindi
6. Nasriddinov Jasurbek Muxammadjon o'g'li, Qodirov Diyorbek Bo'ltak o'g'li, MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH "Hodimlarni shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish tartibi" jild. 3-son 29 (2023-yil) <https://interonconf.org/index.php/ger/article/view/9270>



**PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA YONG'IN
XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ISTIQBOLLARI**

Namangan davlat universiteti
Nuraliyev Abdulhamid Oybek o'g'li
nuraliyevabdulhamid6@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy jamiyatda yong'in xavfsizligini ta'minlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Korxona, tashkilot va ta'lim muassasalarida yong'in xavfsizligi choralari yetarlicha tashkil etilmasa, bu inson hayoti va moddiy boyliklarga katta zarar yetkazishi mumkin. Shu bois, Korxona, tashkilot va ta'lim muassasalarida yong'in sodir bo'lishini oldini olish va sodir bo'lganda bartaraf etish chora-tadbirlar bo'yicha bir qator taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Abstract: Ensuring fire safety in modern society is one of the most important issues. If fire safety measures are not adequately organized in enterprises, organizations and educational institutions, this can cause significant damage to human life and material wealth. Therefore, a number of proposals and recommendations have been developed on measures to prevent fires in enterprises, organizations and educational institutions and eliminate them if they occur.

Kalit so'zlar; Favqulodda vaziyatlar, yong'in, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, Korxona, tashkilot va ta'lim muassasalar, yo'laklar

Kirish. Insoniyatning ekologiya va atrof-muhitga ta'siri hamda sanoatning jadallik bilan rivojlanishi natijasida so'nggi yillarda favqulodda vaziyatlar soni keskin ravishda ortib borib, buning oqibatida aholi orasida turli yuqumli kasalliklarning tarqalishi, insonlarda bevaqt hayotdan ko'z yumishi holati, jiddiy moddiy talofatlar, atmosfera va suv manbaalarining ifloslanish holatlari yuzaga kelmoqda. bu esa o'z navbatida aholi orasida favqulodda vaziyatlar ta'siridan muhofazalanish bo'yicha targ'ibot ishlarini olib borish zaruratini tug'diradi.

Favqulodda vaziyatlar bu muayyan hududda odamlar qurbon bo'lishiga, odamlarning sog'lig'iga yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy talafotlarga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoitlari buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy ofat yoxud boshqa ofat natijasida, karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi natijasida yuzaga kelgan vaziyatlar;

Yong'in bu bir zumda shiddat bilan ro'y beradigan va tez tarqaladigan [yonish](#) jarayoni. Moddiy boyliklarni yo'qotadi va inson hayoti uchun xavf soladi.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bu favqulodda vaziyatlar ro'y berganda o'tkaziladigan hamda odamlarning hayotini asrab qolishga va sog'lig'ini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorlarini kamaytirishga, shuningdek favqulodda vaziyatlar zonalarining

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

kengayishiga yo'l qo'ymaslikka hamda xavfli omillar ta'sirini tugatishga qaratilgan qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan ishlar majmui;

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish bu oldindan o'tkaziladigan hamda favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro'y bergan taqdirda esa odamlarning hayotini asrab qolishga va sog'lig'ini saqlashga, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talafotlar miqdorlarini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar majmui.

Korxona, tashkilot va ta'lim muassasalarda yong'in xavfsizligini ta'minlash hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha tavsiflar

Korxona, tashkilot va muassasalar bino va inshootlari hamda xonalarining yong'inga qarshi holati, favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha javobgarlik ushbu obyektlarning rahbarlariga yuklangan.

Korxona, tashkilot va muassasalar obyektlari rahbarlari tegishli buyruq bilan har bir bino va inshoot hamda xonaga yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha javobgar shaxslarni biriktiradi.

Yong'in yoki boshqa favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda, insonlar va moddiy boyliklarni qutqarish rejasi ishlab chiqilib, ko'rinarli joylarga o'rnatilishi lozim.

Korxona, tashkilot va muassasalarda quyidagilarni amalga oshirish lozim:

bir obyektida favqulodda vaziyatlarda insonlarni evakuatsiya qilish uchun loyihada belgilangan kirish-chiqish yo'laklar turli buyum va jihozlar bilan to'sib qo'ymaslik; Evakuatsiya kirish-chiqish yo'nalishlarini belgilab beruvchi ko'rsatgichlarni ko'rinarli nuqtalarga joylashtirish;

Bino va inshootlar hamda xonalarni yong'inni o'chirish birlamchi vositalari bilan me'yor talablari asosida jihozlash;

Yong'inga qarshi suv ta'minoti va ichki yong'in o'chirish jo'mraklarining soz holatda bo'lishini, shuningdek, ularni yeng, dastak va ulash moslamalari bilan ta'minlash;

Bino va xonalarda barcha elektr ta'minoti tizimining "Elektr uskunalarning tuzilish qoidalari" talablari asosida ishlashini ta'minlash;

Obyektlarda isitish tizimi, qozonxonalar, tabiiy va suyultirilgan gaz, boshqa muqobil yoqilg'i mahsulotlarida ishlaydigan uskunalarning sertifikatlangan hamda soz holatda bo'lishini ta'minlash;

Obyektlarning bino va inshootlari, boshqa konstruksiyalarning texnik mustahkamligiga erishish.

Ish vaqti tugagandan so'ng har bir xonadagi konditsioner, kompyuter, tele-video apparaturalar, boshqa turdagi barcha elektr jihozlari va maishiy uskunalarni o'chirib, elektr tarmog'idan uzib qo'yish lozim.

Barcha elektr sim va kabellar tashqi himoya qobiqlarining elektr tokiga qarshi chidamlilik darajasini mutaxassislar tomonidan sinovdan o'tkazish.

4-sho'ba: Professional ta'lim bilan bog'liq muammolar va ularning innovatsion yechimlari

Korxona, tashkilot va ta'lim muassasalarning bino hamda inshootlarida quyidagilar taqiqlanadi:

Obyektlarga yong'in-qutqaruv va boshqa maxsus xizmatlar avtoulavlarining yetib borishi uchun ular harakatlanadigan yo'llarni sun'iy to'siqlar bilan to'sib qo'yish taqiqlanadi;

Yerto'la, sokol, qavatlarda yonuvchi va yengil alangalanuvchi suyuqliklar, portlovchi moddalar, gaz ballonlari, aerosol hamda boshqa portlash xavfini yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan moddalarni saqlash;

Chordoqlar, texnik xizmat ko'rsatish joylari, ventkamera va boshqa texnik xonalarda ishlab chiqarish bo'linmalari, ustaxonalarni joylashtirish hamda mahsulotlar, uskunarlar va boshqa buyumlarni saqlash;

Yerto'la va yarim yerto'lalarda yonuvchan buyumlar saqlash omborxonalari, ustaxonalar, xo'jalak xonalarini joylashtirish, agar ularga kirish eshiklari umumiy kirish zinalaridan (eshigidan) alohida bo'lmasa;

Yo'laklar, yuqori qavatlarga o'tish lyuklari, qo'shni xonaga o'tish yo'laklaridagi eshiklar va zaxira chiqish yo'llarini turli mebellar, buyumlar va boshqa yonuvchan ashyolar bilan to'sib qo'yish;

Yo'laklar, zaxira chiqish yo'llari va zinapoyalarda o'zboshimchalik bilan devorlar, shiftlar va ayrim holatlarda pollarga yonuvchan qurilish materiallarini qoplash, bezatish, bo'yash ishlarini olib borish;

Xonalarda me'yor talablariga javob bermaydigan, qo'lbola yasalgan elektr isitish moslamalari hamda vaqtincha o'tkazilgan elektr simlardan foydalanish;

Belgilanmagan joylarda sigareta chekish, obyektlar va ularning atrofida payvandlash ishlarini o'tkazish hamda ochiq olov bilan ishlash;

Nosoz gaz quvurlari, asbob-anjomlari va maishiy gaz ballonlaridan foydalanish.

Yong'in yoki tutun hidi sezilsa, zudlik bilan quyidagilarni bajarish lozim:

Yong'in-qutqaruv xizmatiga "101" yoki "1050" raqamlari orqali xabar berish;

Yong'in joyidan insonlarni qutqarish;

Navbatchi xodimlarga xabar berish;

Birlamchi vositalar bilan yong'inni bartaraf etish choralari ko'rish.

Xulosa Hozirga paytda yildan yilga sanoat korxonalari va MCHJ lar soni ko'payib borayotgani bilan bir qator aholi salomatligiga ham ta'sir darajasi yuqori bo'lib borayotgani barchamizga ma'lum bunday holatlarda, u yerda ishlovchilar shahsiy hamda jamoaviy himoya vositalaridan oqilona foydalanib texnika xavfsizlik qoidalariga to'laqonli rioya etishlari talab qilinadi, bundan tashqari yong'in xavfsizligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan nazariy va amaliy mashg'ulotlar, maxsus treninglar, ko'rgazmali mashg'ulotlar o'tkazilib turilishi, bunda xodimlarga ish jarayonida yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etish, favqulodda holatlarda birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan

foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha zarur tushunchalar va tavsiyalar berilib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

